



YOMON BOLA

Anton Chexny



YOMON BOLA

Anton Chehov

TOSHKEN I
«ADABIYOT UCHQUNLARI»
2018

UO‘K: 811.202

KBK: 86.34

Ch – 36

Chexov, Anton

Yomon bola: hikoyalar. Anton Chexov. – Toshkent:
Adabiyot uchqunlari, 2018. –192 bet.

ISBN 978-9943-987-13-5

UO‘K: 811.202

KBK: 86.34

ISBN 978-9943-987-13-5

© Anton Chexov, «Yomon bola». «Adabiyot
uchqunlari», 2018-yil.

YOVUZ NIYATLI KISHI

Sud tergovchisi huzurida tik ko'ylak, seryamoq lozim kiygan kichkinagina, mihoyat darajada ozg'in bir mujik turibdi. Uning mo'y bosgan bujur yuzlarida, qalin va uzun qoshlari ostidan zo'rg'a ko'rinib turgan ko'zlarida tund bir shiddat ifodasi bor. Qanchadan beri taroq tegmagan chigal sochlari boshini shapkadek qoplab olib, u chehraga yana ko'proq shiddat, o'rgumchak shiddati beradi. U yalangoyoq.

— Denis Grigoryev! — deb so'z boshlaydi tergovchi. — Yaqinroq kelib mening savollarimga javob ber. Ushbu iyul oyining yettinchi kuni temir yo'l qorovuli Ivan Semyon o'g'li Akinfov erta bilan seni ko'ripti, sen — relsni shpalga hiriktiradigan gaykani burab, chiqarib turgan ekansan. Mana shu gayka!.. U seni shu gayka bilan ushlapti. Shundaymi?

— Labbay?

— Butun voqea shu Akinfov aytgandek bo'lganmidi?

— Ha, shundoq bo'lgandi.

— Yaxshi; xo'sh, endi aytib ber-chi: gaykani nega burab chiqarding?

— Labbay?

— Sen «labbay»ni qo'yib, savolga javob ber; gaykani nima uchun burab chiqarding?

Denis shlpga qaragan holda xirqirab javob beradi:

— Bir keragi bo'lmasa burab chiqararmidim?

— Bu gayka senga nima uchun kerak bo'ldi, axir?

— Gaykami? Biz bu gaykadan cho'kdirgich yasaymiz...

— Kim u, «biz» deganing?

— Biz, aholi... Klimov qishlog'ining mujiklari.

— Menga qara, og'ayni sen unaqa o'zingni telbalikka solmasdan durustroq gapirsang-chi. Bo'lmag'ur cho'kdirgichlar bilan boshni aylantirib yolg'on gapirma.

Denis ko'zlarini pirpiratib turib, so'zlaydi:

— Umrinda yolg'on gapirgan odam emasman. Endi kelib, mana yolg'onchi bo'lib o'tiribman... Cho'kdirgich bo'lmasa ish bitadimi, taqsir? Qarmoqqa chuvalchang yo bo'lmasa mayda baliqni o'tkazganingminan, u o'lgurda cho'kdirgich bo'lmasa, suvga botadimi? Yolg'onchi emishman... — deb iljayadi Denis— Suv betida qalqib yuraveradigan bo'lsa, undan nima foyda? Olabug'ani oling, cho'rtanni oling, shirin baliqni oling — hammasi chuqurdagi yemga keladi; suv betida turgan yemni shilishper cho'qisa cho'qiydi, uyam bo'lsa yilda bir... Bizning soyda shilishper o'zi yo'g'am... U baliq katta suvni xushlaydi.

— Sen menga shilishperdan gapirib nima qilasan?

— Labbay? O'zingiz so'radigiz-ku! Biz tomonda katta-katta boylar ham baliqni shunaqa qilib tutadi. Eng

yaramas bir bolani olgan vaqtingizdayam cho'kdirgich bo'lmasa baliq ovlamaydi. Albatta, tushunmagan odam bo'lsa boshqa gap — u cho'kdirgich bo'lmasayam ovga chiqaveradi. Ahmoqqa zakon yo'q degan gap bor emasmi, axir?

— Demak, sen o'sha gaykani cho'kdirgich yasash uchun burab chiqargan ekansan-da?

— Bo'lmasam-chi? Nima, uni soqqa qilib o'ynardimmi?

— Cho'kdirgich uchun qo'rg'oshin, yo miltiq o'qi... yo bironta mix topib ishlatsang bo'lardi-ku...

— Qo'rg'oshin ko'chada yotgami yo'q, u pulga keladi, mix bo'lsa yaramaydi. Gaykadan boshqasi qo'l kelmaydi... U ham og'ir, ham tayyorgina teshigi bor.

— Jinnilikka soladi-ya o'zini! Go'yo kechagina tug'ilgan-u, yo bo'lmasa osmondan tushgan. Bu gayka burashning oqibati qanday bo'lishini bilmaysanmi, hoy esi past? Agar qorovul ko'rib qolmasa, poyezd izidan chiqib ketib, qancha odam o'ladi! Sen odam o'ldirgan bo'larding, odam!

— E, xudo saqlasin, taqsir! Nega odam o'ldiray? Nima, biz dinsizmidik, yo yovuzmidik? Xudoga shukur, janobi taqsir, yoshimiz shunchaga yetib odam o'ldirish tugul, unday narsalarni o'ylaganimiz ham yo'q... O'zing saqla, parvardigorim, rahming kelsin... Gapingizni qarang-al

— Xo'sh, seningcha, poyezdlarning ag'anashi nimadan bo'ladi? Bir-ikkita gaykani burab chiqardingmi, ag'anaydi ketadi!

Denis iljayadi, ishonmagandek bo'llib, tergovchiga ko'zini pirpiratib qaraydi.

— Yo'g'-el Necha yildan beri butun qishloq gayka burash bilan tirikchilik qilsak ham, shu

kungacha xudo o'zi saqlab keldi, mana endi ag'anash, odam o'ldirish degan gaplar chiqib turipti... Men uning relsini olib ketsam, yo bo'lmasa aytaylik, yo'lga bitta-yarimta xodani ko'ndalang qilib qo'ygan bo'lsam, ana unda poyezd, ehtimol ag'inardi, bu ho'lsa... nihoyati bir gayka xolos... Gayka-ya!

— Sen axir tushunsang-chi, relsni shpallarga o'sha gaykalar bilan biriktirib qo'yadilar-da!

— Buni biz yaxshi bilamiz... Biz, axir, hammasini burab olmaymiz-da... qoldiramizam... Telbalarining ishini qilmaymiz... tushunamiz...

Denis esnab og'zini cho'qintiradi.

— O'tgan yil shu yerda poyezd ag'anab edi, — dedi tergovchi. — Sababi endi ma'lum bo'ldi...

— Nima dedingiz?

— O'tgan yil deyman, bir poyezd izidan chiqqan edi. Shuning sababi mana endi ma'lum bo'ldi... Ha-a bildim!

— Siz mehribonlarimiz, shunaqa narsalarni bilish uchun bilimdon bo'lgansizlar-da. Xudo fahm berganda kimga berishini yaxshi bilgan... Siz, mana, bu unday, bu munday deb darrov gapning fahmiga yetdingiz, ammo anovi qorovulingiz bir mujik emasmi, hech narsaning fahmiga bormasdan, odamning yoqasiga osilib, sudray beradi... Avval bir narsaning fahmiga borgin, undan keyin sudrada! Mujik bo'ldimi, miyasi ham mujikka yarasha bo'ladi... Janobi taqsir, muni ham daftaringizga yozib qo'ying, u meni ikki marta lunjimga, yana tag'in ko'kragimga mushtladi.

— Sening uyingni tintigan vaqtda yana bitta gayka topiptilar... Munisini qachon va qayerdan burab olgan eding?

— E, siz anavi qizil sandiq ostida yotgan gaykani aytyapsizmi?

— Qayerda yotganini bilmayman, ish qilib senikidan topganlar. Qachon burab olgansan?

— Uni men burab olganim yo'q. Uni menga ana u Semyon ko'rning o'g'li Ignashka bergan. Men haligi qizil sandiq ostidagisini aytayotibman, ammo tashqarida, chanaadan topilganini Mitrofan ikkovimiz burab chiqarganmiz...

— Qaysi Mitrofan u?

— Petrov Mitrofan... Eshitganmisiz? O'zi to'r qilib, boylarga sotadi. Unga haligi gayka o'lgurdan juda ko'p kerak bo'ladi. Har bir to'rga, men sizga aytsam, o'ntadan ketadi...

— Menga qara... Jazo qonuni majmuasining 1081-moddasida aytilganki, basharti biron kimsa yomon niyat bilan temir yo'lga biron zarar yetkizsa, agarda mazkur zarar natijasida. o'sha yo'lda kelayotgan transport xavf ostida bo'lsa va u ishning natijasida falokat ro'y berishini ul kimsa bilsa... tushundingmi? Bilsa! Bu burab olishning oqibati qanday bo'lishini sen bilgansan, albatta... Ul kimsa katorga ishlariga yuborilmoqqa hukm etiladi.

— Siz yaxshi bilasiz, albatta... Biz nodon odamlarmiz... Biz nimani bilardik?

— Sen hamma narsani bilasan! Hozir yolg'on aytayotibsan, o'zingni telbalikka solasan!

— Nega yolg'on aytay? Ishonmasangiz qishloqqa borib so'rang... Cho'kdirgich bo'lmasa yelim baliqdan boshqa narsa tutib bo'lmaydi; toshboshi baliqdan bemaza baliq bormi dunyoda, o'shayam cho'kdirgich bo'lmasa ilinmaydi.

Tergovchi kuladi:

— Ha-a, shilishperdan ham gapir bo'lmasa!

— Bizning soyda shilishper bo'lmaydi. Qarmoqqa kapalakni o'tkazib, cho'kdirgichsiz tashlasak qo'shboshi baliq ilinadi xolos, uyam onda-sonda.

— Bo'ldi, jim...

Jimlik cho'kdi. Denis og'irligini goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga solib, ko'k movut yopilgan stolga qaradi va zo'r berib kiprik qoqdi, qarshisida go'yo movut emas, quyosh ko'rinayotganday. Tergovchi shoshilib yozadi. Biroz jimlikdan so'ng:

— Men endi ketaveraymi? — dedi Denis.

— Yo'q. Men seni mirshablarga qo'shib, qamoqxonaga jo'nataman.

Denis kiprik qoqishdan to'xtab, qalin qoshlarini ko'tarib, to'raga savol nazari bilan qaradi:

— Bu nimasi? Nega qamoqxonaga yuborasiz janobi taqsir? Sira vaqtim yo'q, hozir yarmarkaga jo'nashim kerak; Yegorda tuzlangan cho'chqa moyi pulidan uch so'm qoluvdi, o'shani olmasam bo'lmaydi...

— Jim tur, xalaqit berma.

— Qamoqxonaga emish... biron gunohim bo'lsa, mayliydi, borardim, yo'qsa bekordan-bekorga... quruq tuhmatga-ya... Bo'lmasa nimaga axir? O'g'rilik qilgan bo'lmasam, mushtlashgan bo'lmasam... Oliq-soliqdan boqimonda qolgan, deb o'ylasangiz, janobi taqsir, xotirjam bo'ling, oqsoqolning gaplariga ishonmang... Siz ana u to'radan so'rang, taqsir... U oqsoqolda imon degan narsa yo'q o'zi...

— Jim tur!

Denis:

— Haliyam jim turibman... — deb g'o'dillaydi.

— Xatlash vaqtida oqsoqol juda orttirib yozgan, buni men qasam ichib tasdiqlayman. Biz o'zimiz: uch og'aynimiz: Kuzma Grigorevich, chunonchi,

Yegor Grigorevich, undan keyin mana men Denis Grigorevich...

— Sen menga xalaqit berayotibsan... — deydi tergovchi, so'ngra qichqiradi. — Hoy Semyon! Olib bor muni!

Ikkita salobatlik soldat kelib, uni mahkamadan olib chiqib ketarkan, Denis yana so'zlaydi:

— Biz o'zimiz uch og'aymimiz. Birining gunohiga biri javobgar emas... Soliqni Kuzma to'lamasin-u, javobini men, Denis beray emish... Sudyalar! Attang, burungi xo'jayinim katta general o'lib ketdi-da, xudo rahmat qilgur, yo'qsa siz sudyalarning toza adabingizni berardi... Adashmasdan, yaxshi bilib hukm qilish kerak. Ursang ham mayli, lekin gunohim bo'lsa ur, insof bilan ur...

***Rus tilidan
Abdulla Qahhor
tarjimasi***

CHIQDI

Tushgi ovqatni yeb bo'lishdi. Qorinlar to'yib, dimog'lar chog'; esnab, shirin uyqu bosib, ko'zlar biyo-biyo. Er sigara chekdi, kerishdi va kushetkaga o'zini tashladi. Xotin uning bosh tomonida o'tirib, mushukka o'xshab xirilladi... Er-xotin baxtiyor edi.

– Gapirsang-chi, – dedi er esnab.

– Nima deyaym? Hm... Ha, aytganday! Eshitdingmi? Soflya Okurkova haligi... oti nima edi-ya... Fon-Trambga tegipti! Buni qara-ya!

– Tegsa, tegibti-da, nima qipti?

– Tramb razil odam-ku, axir! Shunday ham yaramas... Shunday ham vijdotsiz odamki! Bunaqa tuturiqsiz, betamiz maxluq doriga ham topilmaydi. Axloqini ham asti qo'yaver! Grafning ish boshqaruvchisi edi, shuning orqasidan ko'p dunyo orttirdi, endi temir yo'lda ishlab, o'g'irlik qiladi... Singlisini g'orat qildi... Qisqasi ko'p yaramas va o'g'ri... Shunaqa odamga tegadimi kishi?! Shu bilan umr qiladimi kishi! Hayronman! Shunday binoyi qiz bo'lsa-yu... Shunaqa qilib o'tirsa-ya! Bunaqa maxluqqa o'lsam ham tegmas edim! Millioner bo'lsa ham baribir tegmas edim! Dunyoda yakka-yu yagona chiroyli bo'lsa ham aftiga tuflar edim. Toqatim bormi razil erga!

Xotin irg'ib o'rnidan turdi va qipqizargan, g'azablangan holda uyda nari-beri yurdi. Uning

ko'zlari g'azabdan yonar, so'zlari samimiy ekanligi ochiq ko'rinib turar edi...

– Bu Tramb shunaqa maxluq. Shunaqa odamlarga tegadigan xotinlar o'larday axmoq, o'larday sharmanda xotinlar!

– Hm... Sen, albatta tegmas eding... Hm... Bor-di-yu men ham razil odam bo'lsam-chi? Nima qilar eding?

– Menmi? Sendan chiqar edim! Bir soniya ham sen bilan umr qilmas edim! Men faqat pok kishini yaxshi ko'rolaman, xolos. Agar Tramb qilgan ishlarning yuzdan birini qilganingni bilib qolsam bormi... Tamom!

– Hm... Hali shunaqaman degin... Men bil-magan ekanman. Ha-ha-ha... Baqrayib turib yolg'on gapiradi-ya!

– Men umrimda yolg'on gapirgan emasman! Qani, razillik qilib ko'r-chi, nima qilar ekanman!

– Nima hojati bor? O'zing bilasan... Men o'sha sening Fon-Tramingni bir cho'qishda qochiraman!.. Trambni menga qaraganda kisavur desa bo'ladi. Nega ko'zingni lo'q qilasan? Ajab... (Pauza). Men necha pul oylik olaman?

– Bir yilda uch ming so'm.

– Bundan bir hafta burun olib berganim marvarid necha pulga keldi? Ikki ming... Shunday emasmi? Kecha olib bergan ko'ylagim besh yuz... Dacha ikki ming... Ha-ha-ha... Kecha otaxoning bir mingni o'marib ketdi...

– Axir, Per, boshqa daromadlar ham...

– Otlar... Shaxsiy doktor... Mashinachilarning schyotlari. Bundan uch kun burun yuz so'mni o'zing kartaga boy berding...

Er boshimi ko'tardi, chakkasiga mushtim tirab, butun boshlik bir ayb-noma o'qib berdi; yozuv stolning yoniga borib bir necha dalil va hujjatlar ko'rsatdi.

– Mana, ko'rdingmi, jomim, fon-Trambling mening oldimda chakana o'g'ri, kisavur! Mimba'd birov to'g'risida bunaqa demal

Men hikoyam tamom qildim. Ehtimol kitobxon:

– Xotin chiqdimi? – deb so'rar.

– Ha... chiqdi. Lekin eridan emas, narigi uyga chiqdi.

***Rus tilidan
Abdulla Qahhor
tarjimasi***

VANKA

Uch oy avval Alyoxin degan etikdo'zga shogirdlikka berilgan to'qqiz yashar bola Vanka Jukov rojdestvoga o'tar kuni kechasi yotmadi. Xo'jayinlari va boshqa shogirdlar ertalabki ibodatga ketishgandan keyin u, xo'jayinining jovonidan siyohdon bilan zang bosib ketgan ruchka oldi-da, g'ijimlangan bir varaq qog'ozni oldiga yozib, xat bitishga kirishdi. Xatni boshlashdan oldin eshikka va derazalarga bir necha marta qo'rqa-pusa qarab qo'ydi, ikki tomoniga etik qoliplari tizib qo'yilgan sanamga ham ko'z qirini tashlab qo'ydi, keyin bir, uf tortdi. Qog'ozni skameyka ustiga yozib, uning oldiga tiz cho'kib o'tirdi.

«Bobojonim Konstantin Makarich! — deb yoza boshladi u xatni. — Men sizga duoyi salom yozmoqdaman. Sizni rojdestvo hayiti bilan qutlab, u tomonlarda omon-eson yurishingizni xudodan tilab qolaman. Mening otam ham, onam ham yo'q. Sizdan boshqa hech kimim yo'q».

Vanka sham shu'lasini aks etib turgan qorong'i derazaga qaradi, Jivarev degan boynikida kechasi qorovullik qiladigan bobosi Konstantin Makarich darrov ko'z oldiga keldi. Bobosi oltmish besh yoshlar chamasida, kichkinagina, qotmadan kelgan, ammo nihoyatda epchil va serharakat, yuzlari doim kulib turadigan, ko'zlari suzuk bir chol edi. Kunduz

kunlari u, xizmatkorlar turadigan uyda uxlaydi, yoki oshpaz xotinlarga tegishib o'tiradi, kechalari esa keng po'stinini kiyib, qo'ng'on atrofida shaqildog'ini chalib yuradi. Uning ketidan Kashtanka degan qari it va uzun bo'yi, qora juni uchun Vyun deb atalgan yana bir it boshlarini osiltirib ergashib yuradi. Vyun juda itoatkor va yuvosh it, o'z odamlarini ham, begonani ham baravar hurmat qiladi, ammo unga hech kim ishonmaydi. Uning itoatkorligi va yuvoshligida ayyorlik bor. Bildirmasdan kelib turib oyoqni uzib olishda, muzxonaga kirib, u yerdagi go'sht-yog'larni urishda, dehqonning tozug'ini qiyratishda undan o'tkiri yo'q. Odamlar bir-necha marta uning keyingi oyog'ini urib mayib qilishgan, ikki marta dorga ham osishgan, chala o'llik qilib ham urishgan, biroq har safar omon qolgan.

Bobosi shu topda darvoza oldida qishloq butxonasining charog'on derazalariga ko'zini suzib qarab turgandir, yo bo'lmasa sovuqqa qotganidan piymasi bilan yer tepinib, qarollar bilan o'ynashayotgandir. Shaqildog'ini belbog'iga osib olgani aniq. Qo'llarini bir-biriga ishqab, sovuqdan seskana-seskana, hirlinglaydi va yo beka oqsochining, yo oshpaz xotinning biqinini chimchilaydi.

— Qani, tamakidan hidlaylik, tamakidan, — deydi-da, xotinlarga tamaki tutadi.

Xotinlar tamaki hidlab, chuchkurishadi. Chol bunda» nihoyatda xursand bo'lib ketadi-da, qah-qah urib kuladi va:

— Burningni art, yaxlab qopti! — deb qich-qiradi.

Keyin itlarga ham tamaki hidlatishadi. Kashtanka chuchkuradi, xafa bo'lganidan boshini chayqay-chayqay chetga chiqib o'tiradi. Vyun odob

saqlab, chuchkurmaydi, dumini silkitib turadi. Havo shinam, jimjit, musaffo. Tun qorong'i, ammo butun qishloq, uning oppoq tomlari, mo'rilardan buralib-buralib chiqqan tutunlari, kumushday qirov bosgan daraxtlar, qor bosgan tepaliklar ravshan ko'rinib turadi. Osmon jilvali charaqlab turgan yulduzlar bilan to'la, somon yo'li ham oydindek yorug', arafada uni yuvib, qor bilan ishqalaganday...

Vanka bir uh tortdi-da, peroni siyohga botirib, yana xatni yozaverdi:

«Kecha bo'lsa meni o'lgudek qiynashdi. Xo'jayinlarning belanchakdagi bolasini tebratib o'tirib, bilmasdan uxlab qolibman. Xo'jayin sochimdan sudrab, hovliga olib chiqib, qayish bilan rosa savaladi. O'tgan hafta xo'jayin beka meni selyodka tozalashga buyurdi, men uni dumidan tozalay boshlagan edim, beka baliqni qo'limdan tortib olib, uning kallasini basharamga ishqadi. Xalfalar meni masxara qilishadi, qovoqxonaga araqqa yuborishadi, xo'jayinnikidan bodring o'g'irlattirishadi, xo'jayin bo'lsa qo'liga tushgan narsa bilan uradi. Ovqatdan hech narsa yo'q. Erta bilan non beriladi, tushda bo'tqa, kechqurun ham quruq nonning o'zi: choymi, karam sho'rvalarni nuqul o'zlari tushirishadi. Kechasi yotadigan joyim — yo'lak, xo'jayinning bolasi yig'lasa mijja qoqmay kechasi bilan belanchak tebratib chiqaman. Jon bobo, xudo xayir bersin, meni bu yerdan uyga, qishloqqa olib keting, hech toqatim qolmadi... Oyoqlaringizga boshimni qo'yib yalinaman, o'lgumimcha duo qilay, meni bu yerdan olib keting, bo'lmasa o'lib qolaman...».

Vankaning lablari burishdi, qop-qora mushti bilan ko'zlarini arttdi-da, piqilladi.

«Men sizga tamakilaringizni maydalab beraman, — deb davom etdi bola, — ibodat qilaman, biron ayb qilsam itday savalang. Agar menga ish topilmaydi desangiz, yalinib-yolvorib gumashtaga etik tozalovchi bo'lib kiraman, yo bo'lmasa Fedkaning o'rniga podachiga shogird bo'laman. Bobojon, sira toqatim qolmadi, jonimdan to'ydim. Qishloqqa piyoda jo'nay desam etigim yo'q, sovuqdan qo'rqaman. Bu qilgan yaxshiligingizga katta bo'lganimda sizni boqaman, hech kimga xo'rlatmayman, o'lganingizda onam Pelageyaga qilinganday, sizga ham duoyi fotiha qilaman.

Moskva katta shahar. Hamma uylar boylarga qaraydi, ot ko'p, qo'ydan sira yo'q, itlari yuvosh. Bu yerning bolalari barat oyi qo'shig'ini aytishmas ekan. Butxonalarda ham hech kimga qo'shiq aytirishmaydi, bir kuni bir do'konda ipi va yog'ochi bilan sotiladigan qarmoq ko'rdim, bunaqa qarmoqqa har qanaqa baliq ilinadi, hatto bir pud keladigan laqqa baliq ilinadigan qarmoq ham bor. Shunaqanggi do'konlar ham borki, u yerda badavlat kishilarning kuchi yetadigan miltiqlar bor, har bittasi yuz so'mdan turar deyman... Go'sht do'konlarida esa qirg'ovillar, kakliklar, quyonlar to'lib yotipti, ularni qayerda otilganini qassoblar sira aytishmaydi.

Bobojon, xo'jayiningiznikida archa bayrami bo'lganda menga usti yaltiroq yong'oqdan olib, ko'k sandiqqa solib, yashirib qo'ying. Vankaga desangiz oyimqiz Olga Ignatevna beradi».

Vanka yana bir xo'rsindi-da, derazaga tikilib, xayolga botdi. Xo'jayinga archa olib kelish uchun bobosining o'rmonga borishini va o'zi bilan birga

Vankani ham olib borganlarini esladi. Qanday yaxshi zamonlar ekan!

Bobosi zo'r berardi, sovuq, ham zo'r berardi, ularga qarab Vanka ham zo'r berardi. Bobosi ba'zan archa kesishdan oldin trubka chekib olardi, tamaki hidlardi, sovqotgan Vankani masxara qilardi. Qirovga o'ralgan yosh archalar qaysi birlarining kuni bitganini bilmasdan tik turardi. Bir yoqdan lip etib quyon chiqib qolar va qor uyumlari ustidan o'qday uchib o'tib ketardi... Bobosi esa:

— Ushla! Ushla uni! Ha, shayton! — deb ketidan qichqirib qolardi.

Kesilgan archani bobosi xo'jayinlar uyiga sudrab olib kelardi, keyin uni bezatishardi. Vankani yaxshi ko'rgan oyimqiz Olga Ignatevna hammadan ko'p jon kuydirardi. Vankaning onasi Pelageya tirikligida xo'jayinlarnikida oqsoch edi, Vankaga Olga Ignatevna popuklar berardi, zerikkanidan uni o'qishga, yozishga, yuzgacha sanashga va hatto tantsa tushishga o'rgatgan edi. Pelageya o'lgandan keyin yetim qolgan Vankani qarollar turadigan oshxonaga chiqarib, bobosiga qo'shib qo'yishdi, u yerda Moskvaga, Alyoxin etikdo'znikiga jo'natishdi.

«Tezroq keling, bobojon, — deb xatini davom ettirdi Vanka, — xudo xayir bersin, meni bu yerdan olib keting. Mendek bechora yetimga rahmingiz kelsin, bu yerda meni uzzukun savalaydilar, o'lardek och yuraman. Shunday zerikdimki, yig'laganim yig'lagan. Qaysi kuni xo'jayin qolip bilan boshimga shunday urdiki, yiqilib tushdim, zo'rg'a o'zimga keldim. Turmushim har qanday itnikidan ham battar... Alyonaga ham salom ayting, g'ilay Yegorkaga ham, kucherga ham, mening garmonimni

hech kimga bermang, deb nevarangiz Ivan Jukov, jon bobo, tezroq keling».

Vanka xatni to'rt bukladi-da, bir kun oldin bir tiyinga sotib olgan konvertga soldi... Biroz o'ylab turib keyin peroni siyohga botirdi-da:

Bobom qishlog'iga
deb manzil yozdi.

Keyin yelkasini qashib, biroz o'ylanib, «Konstantin Makarichga tegsin» deb qo'shib qo'ydi. Hech kim xalaqit bermasdan xat yozganidan xursand bo'lib, boshiga shapkasini kiydi va ko'ylakchan yugurganicha ko'chaga chiqib ketdi...

Kunduz kuni so'raganida qassoblar «xat pochta qutisiga solinadi, qutilardan olinib, mast yamshchiklar mingan, uch otli qo'ng'iroqlar osilgan aravalarda butun yer yuziga tarqatiladi» deb aytishgan edi. Vanka eng yaqin pochta qutisiga chopib bordi-da, qimmatbaho xatni qutiga soldi.

Bir soatlardan keyin umidlar allasi ostida qattiq uyquga ketdi... Tushiga pech kirdi. Pechda bobosi yalang oyoqlarini pastga osiltirib, oshpaz xotinlarga xat o'qib berayotgan emish... Pech yonida Vyun dumini likillatib aylanib yurganmish...

***Rus tilidan
O.Rahimiy
tarjimai***

UYQU ISTAGI

Tun. O'n uch yashar dastyor qiz Varka bola yotgan belanchakni tebratadi va eshitarlar-eshtilmas ming'iraydi.

*Alla aytay senga-yo,
Alla qo'zim, alla-yo...*

Sanam oldiga shamchiroq yoqilgan, uyning u burchagidan bu burchagiga tortilgan arg'amchiga yo'rgak latta va katta qora shimlar osilgan. Chiroq shu'lasidan shipga katta doira shaklidagi ko'kimtir dog' tushib turipti. Shim va lattalar pechkaga, belanchakka, Varkaga uzun-uzun soya solgan... Chiroq lipillaganda shipdagi dog' bilan soyalarga jon kirib, shamoldan silkinayotganday qimirlaydi. Uy dim. Hamma yoqni karam sho'rva, charm va mum hidi tutib ketgan.

Bola yig'layapti. U allaqachonlar holdan ketib tovushi bo'g'ilib qolgan bo'lsa ham, big'illamoqda, hali beri ovunadiganga o'xshamaydi. Varkani uyqu bosib, ko'zlari yumilmoqda. Bo'yni tolib, boshi yerga og'ib boradi. Na qovog'ini qimirlata oladi, na lablarini. Nazarida yuzi qovjirab, tarashaday qotgan, boshi to'g'nog'ichning boshiday kichkina bo'lib qolganga o'xshaydi.

*Alla qo'zim, alla-yo,
Senga osh pishira-yo...*

deb ming'irlaydi u.

Pechkada chigirtka chirillaydi, narigi uyda xo'jayini va uning shogirdi Afanasiy hurrak tortadi... Belanchak nologanday g'ijirlaydi. Varka ming'irlaydi. Bularning hammasi qo'shilib allalovchi tun muzikasiga aylanadiki, bu muzikani o'ringa yotib eshitganda huzur qiladi kishi. Bu muzika Varkaning g'ashiga tegadi, chunki uyqusini keltiradi, uxlash esa mumkin emas. Xudo ko'rsatmasin, agar uxlab qolsa bormi, xo'jayini urib o'ldiradi.

Chiroq lipillaydi, shirdagi dog', soyalarga jon kirib, Varkaning yarim ochiq harakatsiz ko'ziga suqilganday bo'ladi... Uning mudrayotgan miyasida alaq-chalaq tushga aylanadi. Varka osmonda bir-birini quvlashib, boladay yig'layotgan qora bulutlarni ko'radi. Birdan yel esib, bulutlar g'oyib bo'ldi va suyuq loy bilan qoplangan keng tosh yo'l paydo bo'ladi, yo'ldan aravalar o'tmoqda, uning orqasidan tugun ko'targan odamlar bormoqda, notayim ko'lankalar yelib yurmoqda: yo'lning ikki tomonida sovuq tuman qoplagan o'rmon zo'rg'a ko'zga chalinadi. Birdan haligi odamlar tugunlari va soyalar bilan o'zlarini yerga tashlab suyuq loyga yotishadi. — «Nega bunday qildinglar?» — deb so'raydi Varka. — «Uxlaymiz, uxlaymiz», — deyishadi ular. Mast va shirin uyquga ketishadi. Qarg'alar, zag'izg'onlar telegraf simlariga qo'nib, xuddi yig'layotgan boladay qichqirishib, haligilarni uyg'otishga urimishadi.

— Alla aytay senga-yo, alla qo'zim alla-yo...
— deb ming'irlaydi Varka va o'zini qorong'i, dim uyda ko'radi. Yerda uning otasi rahmatlik Yefim

Stepanov to'lg'anayotir, qiz uni ko'rmaydi-yu, lekin og'riqqa chidolmay, ag'nayotganini va ingrashini eshitadi. Unda, uning o'z ta'biri bilan aytganda «Grija kasali avj qilyapti». Og'riq shu qadar kuchliki, bir og'iz so'z aytishning ilojini qila olmay entikadi, ingraydi.

Onasi Pelageya yugurganicha xo'jayinning hovlisiga Yefim o'lay deyapti, deb aytgani ketgan. Uning ketganiga xiyla vaqt bo'llb qoldi, kela qolsa ham bo'lar edi. Varka pech ustida uyg'oq yotib, otasining «oh-vohiga» quloq soladi. Mana, aravada kimningdir kelib to'xtagani eshitildi, xo'jayin, uyiga shahardan mehmon bo'lib kelgan yosh doktorni yuboripti. Doktor uyga kirdi, uni qorong'ida ko'rib bo'lmasa ham yo'talgani va eshikni yopgani eshitildi.

— Chiroq yoqing, — dedi u.

— Uh-uh-uh, — deb javob qildi Yefim.

Pelageya irg'ib pechkā yoniga kelib gugurt qutisini izlaydi. Bir daqiqa jim qolishdi. Doktor cho'ntagini kavlab, o'z gugurtini yoqdi.

— Hozir, taqsir, hozir, — deb Pelageya yugurganicha uydan chiqib ketdi-da, birozdan so'ng sham qoldig'ini yondirib kirdi.

Efimning ikki yuzi yallig'lab, ko'zlari yaraqlab turibdi. Ayniqsa ko'z qarashi shunday o'tkirki, uyni va doktorni teshib yubormoqchi bo'lgandek tikiladi.

— Xo'sh, nima bo'ldi? — dedi doktor engashib — Ehe! Qachondan beri shunday bo'lib qoldi?

— Nima dedingiz? O'lay deyapman, janobi oliylari, kunim bitgan... tuzalmayman...

— Qo'y, qo'y bemaza gapingni... davolaymiz!

— Bilganingizni qiling, janobi oliylari, qulluq, faqat biz shuni bilamizki... ajal tikilib kelsa, chora yo'q.

Doktor chorak soatcha Yefimning u yoq bu yog'ini ko'rdi; so'ng o'rnidan turib:

— Qo'limdan hech narsa kelmaydi... Kasalxonaga borishing kerak, u yerda operatsiya qilishadi. Hozirning o'zida bor... Albatta, bor! Vaqt biroz kech, kasalxonadagilarning hammasi uxlab qolishgandir. Lekin mayli, men to'rt ellik xat yozib beraman. Uqdingmi?

— Taqsir, nimada boradi? Bizda arava yo'q,
— dedi Pelageya.

— Hech qisi yo'q, men xo'jayinlarga aytib ko'raman, arava berishadi.

Doktor ketdi. Chiroq o'chib yana haligi «oh-voh...» eshitiladi. Yarim soatdan keyin ko'cha eshigi oldiga arava yuborishipti, Yefim o'rnidan turib, kiyinib, kasalxonaga jo'nadi...

Tong otdi, musaffo ertalabki payt. Pelageya uyida yo'q; u Yefimning holini bilgani kasalxonaga ketgan. Qayerdadir yig'layotgan bolaning ovozi keladi. Varkaning qulog'iga kimningdir uning tovushi bilan bolami allalayotgani eshitiladi.

— Alla qo'zim alla-yo, alla aytay senga-yo...

Pelageya qaytib keldi; cho'qindi va pichirlab:

— Kechasi operatsiya qilishgan ekan, ertalab jon beripti... Joyi jannatda bo'lsin... Kechroq harakat qilibsizlar deyishdi... Ertaroq olib borganda bo'lar ekan.

Varka o'rmonga borib o'sha yerda yig'lab o'tirdi, birdan birov uning bo'yniga shunday musht urdiki, qizning peshonasi borib qayinga tegdi: ko'zini ochib, oldida xo'jayini — etikdo'zni ko'rdi.

— Bu nimasi, la'nati? — dedi u, — bola yig'lasin-u, sen uxlagin!

U yaxshilab qizning qulog'idan cho'zdi. Qiz boshini silkiganicha beshik tebratib, ming'irlab allasini aytadi. Shipdagi dog' va yoyig'lik shim, yo'rgak lattalaridan tushib turgan soyalar tebranib, lipillab yana uning miyasini band qildi, u yana haligi suyuq loy bilan qoplangan yo'lni ko'rdi. Tugun ko'targan odamlar va soyalar yotib, qattiq uyquga ketgan. Ularni ko'rib Varkaning ham juda uxlagusi keladi. O'ziga qolsa-ku, jon deb yotardi-ya, lekin onasi Pelageya yonida ketmoqda, u tezroq yur deb shoshirmoqda. Ikkovi ham jadallab shaharga ketishyapti, ishga kirishmoqchi:

— Xudo yo'lga biroz hayr qilinglar! — deb onasi yo'lovchilardan sadaqa so'raydi, — Xudo xayringizni bersin, yaxshilar!

— Ber, bolani bu yoqqa! — deb qichqiradi unga javo-ban tanish bir ovoz, — ber bolani bu yoqqa! — deydi yana haligi ovoz, qattiqroq va jahi bilan, — uxlayapsanmi, kasofat?

Varka cho'chib ketadi, u yoq bu yog'iga qaraydi, na tosh yo'l bor, na Pelageya va na yo'lovchilar; bolasini emizgani kirgan bekasi uyning o'rtasida turipti, bu barvasta xotin bolani ovutib, emizib bo'lguncha Varka kutib turadi. Deraza g'irashira yorishib, shipdagi dog' va soyalar xiralashib boradi. Bir ozdan keyin tong otadi.

— Ol! — dedi beka, ko'ylagining tugmasini sola turib, — yig'layapti, ko'z tekkanga o'xshaydi.

Varka bolani olib, belanchakka yotqizib yana tebratadi. Soyalar, shipdagi dog' asta-asta yo'qoladi va qizning ko'zini tindirib, miyasini gangitadigan narsa qolmaydi. Lekin hali ham avvalgicha uyqu bosib kelmoqda, hamon uyqusi keladi! Varka boshini belanchakning bir chetiga qo'yib, uyqusini

qochirish uchun butun gavdasi bilan tebranadi. Ko'zi yumilib, boshi og'irlashadi.

— Varka, pechkaga olov yoq! — dedi xo'jayini narigi uydan turib.

Demak o'rnidan turib, ish boshlaydigan vaqt bo'lipti. Varka belanchakni qo'yib o'tin keltirish uchun saroyga qarab yuguradi. U xursand, chunki yugurib ish qilib yurganda bir joyda o'tirganday uyqu kelmaydi. U o'tin keltirib, olov yoqarkan, qotib qolgan yuzlari yumshab, ruhi yengillashganday bo'ladi.

— Varka, samovar qo'yl — deb qichqiradi bekasi. Varka tutantiriq qilib to uni yondirib samovarga tashlaguncha bekasi yana:

— Varka, xo'jayinning kalishini yuvib qo'y, — deb buyruq beradi.

U yerga o'tirib, kalishni yuvar ekan, shu katta va chuqur kalishga boshingni tiqib, bir pastgina mizg'ib olsang qanday yaxshi bo'lardi, deb o'ylaydi. Birdan kalish shishib kengayib uyday katta bo'lib qoldi. Varkaning qo'lidan cho'tkasi yerga tushib ketdi. Varka darhol boshini silkib, ko'z oldidagi narsalar kattalashib, harakatlanmasin deb ko'zlarini kattaroq ochishga tirishdi. .

— Varka, zinani yuvib qo'y, mijozlar kelsa uyat qiladi.

Varka zinani yuvadi, uylarni yig'ishtiradi, so'ng inkinchi pechkani yoqadi va boqqo'llik do'koniga qarab yuguradi. Ish ko'p, biron daqiqa bo'sh vaqt yo'q.

Lekin hammasidan ham oshxonadagi katta stol yonida turib bir joydan qimirlamay kartoshka artishdan og'ir ish yo'q. Boshi stolga og'ib boradi, kartoshka jimirlashib, pichoq qo'ldan tushadi,

yenglarini shimargan, semiz, badjahl beka bo'lsa atrofda shang'illab yuradi. U shunday qattiq so'zlaydiki, uning ovozi qulog'ingda jaranglab turadi. Yana kir yuvish, ish tikish, ovqat vaqtida xizmat qilib turish ham o'lguday mashaqqat, shunday vaqtlar bo'ladiki, hech narsaga qaramay polga yotib uxlagi keladi.

Kech kiradi, Varka derazadan qorong'i tushayotganini ko'rib, qotib borayotgan chakkalarini ikki qo'li bilan qisadi va nimaga xursand bo'layotganini o'zi ham bilmay kulimsiraydi. Qorong'i uning mudroq ko'zlariga xush yoqib, uyqudan darak berayotganday bo'ladi. Kechqurun uyga mehmon keladi.

— Varka, samovar qo'y! — deydi bekasi

Samovar kichkina bo'lganidan mehmonlar choyga qonguncha uni besh marta qaynatishga to'g'ri keladi. Choydan keyin Varka soatlab bir joydan qo'zg'almay, mehmonlarga qaraydi va xo'jayinning amrini kutadi.

— Varka, yugur, uch shisha pivo olib kel.

U joyidan sakrab turadi va uyqusini o'chirish uchun ildamroq yuguradi.

— Varka, bor, araq olib kel! Varka, parma qayerda? Varka, baliqni tozala!

Nihoyat mehmonlar ketishadi, chiroqlarni o'chirib, xo'jayinlar yotishadi.

— Varka, bolani tebrat! — degan so'nggi buyruq eshitiladi.

Pechkada chigirtka chirillaydi; shipdagi dog', yoyig'lik shim va yo'rgak lattalardan tushib turgan soyalar lip-lip qilib yana Varkaning ochiq ko'ziga suqiladi, uni gangitadi.

— Alla aytay senga-yo, — deb ming'illaydi u, — alla qo'zim alla-yo...

Bola yig'lay-yig'lay qotib qoladi. Varka yana haligi katta loy tosh yo'lm, tugun ko'targan odamlarni, Pelageyani, otasi Yefimni ko'radi. U hammani taniydi, hammasini tushunadi-yu, lekin karaxt qilib, uning qo'l-oyog'ini bog'lab qo'ygan, yashashga monelik qilayotgan bu kuch qanaqa ekanligiga chala uyqu ichida sira tushunolmaydi. U ana shu kuchdan qutulish uchun u yoq bu yog'iga qaraydi. Lekin uni topolmaydi. U nihoyat charchagan holda o'zining butun kuchini, sezgisini to'plab shipdagi lipillayotgan dog'ga tikiladi va yig'i ovozigga quloq solib yashashga monelik qilayotgan dushmani topadi.

U dushman — bola ekan.

Qiz kulib yuboradi, nega shuncha kundan buyon shu arzimagan narsani tushunolmay yurgan ekan? Shipdagi dog', soyalar va chigirtka ham hayron bo'lib unga qo'shilib, kulayotganday tuyiladi.

Shu xayol Varkani butunlay chulg'ab oladi, u o'rnidan turib, iljayganicba ko'zlarini yummasdan, uyning u boshidan bu boshiga yuradi. Qo'l-oyog'iga kishan bo'lib turgan boladan hozir qutulaman degan xayol uni qitiqlaydi, xursand qiladi. Bolani o'ldiradi-yu, keyin huzur qilib uxlaydi.

U kulib, ko'zlarini qisib, shipdagi dog'ga qarab, barmog'i bilan tahdid qiladi, asta belanchak yoniga boradi va engashib bolani bo'g'adi; keyin darhol polga yotib uxlashning iloji topilganidan behad sevinadi va bir daqiqadan so'ng o'likday uxlab qoladi.

***Rus tilidan
Zumrad
tarjimasi***

KASHTANKA

Birinchi bob

YARAMAS XULQ

Ko'ppak bilan xonaki itdan bo'lgan tulki tumshuq, sariq yosh it yo'lkada u yoqdan bu yoqqa yugurar va tashvishlanib atrofiga alanglar edi. U har zamon-har zamonda to'xtar va ingillar, gob sovqotgan bir oyog'ini, gob ikkinchisini ko'tarar, qanday adashib qolganini bilishga urinardi.

Shu kunni u qanday o'tkazganini, hu yot yo'lkaga qanday kelib qolganini yaxshi eslardi.

Bugungi kun shunday boshlandi: egasi duradgor Luka Aleksandrish shapkasini kiydi, yog'ochdan yasalgan allaqanday narsani qizil ro'molga o'rab, qo'ltig'iga qistirdi-da:

— Kashtanka, yur! — deb qichqirdi.

Kashtanka o'z nomini eshitib, yotgan yeridan — duradgorlik stoli tagidagi qirindi orasidan chiqdi-da, huzur qilib kerishib olgach, egasi ketidan yugurdi. Luka Aleksandrishga buyurtma bergan kishilar shu qadar uzoqda turardiki, ularning har birinikiga yetib borguncha duradgor yo'l-yo'lakay bir necha marta mayxonaga kirib, tomog'ini ho'llab chiqardi. Kashtanka yo'lda o'zini juda yomon tutganini

esladi. Sayrga chiqqani uchun sevinib ketganidan irg'ishlar, ot qo'shilgan konkaning vagonlariga qarab hurar, begona hovlilarga kirib chiqar, boshqa itlarning ketidan quvlar edi. Duradgor uni yo'qotib qo'yar, to'xtab, achchig'lanib chaqirardi. Bir marta u g'azab bilan itning tulkinikiga o'xshagan shalpon qulog'idan cho'zib tortdi-da:

— He... o'lib ketgur... rasvol — deb koyidi. Buyurtmachilarga uchrashib, qaytishda Luka Aleksandrich singlisinikiga kirdi va u yerda yeb-ichib chiqdi; keyin tanish muqovasoznikiga bordi, muqovasoznikidan chiqib mayxonaga kirdi, u yerdan chiqib oshnasinikiga bordi va hokazo. Xullas, Kashtanka begona yo'lkaga kelib qolganda kech kira boshlagan, duradgor esa g'irt mast edi. U qo'llarini havoda silkitar va chuqur nafas olib g'o'ldirardi:

— Gunohkor, osiy bandamiz! Gunohimizni o'zing kechir! Mana hozir ko'chada fonarlarni tomosha qilib yuribmiz. O'lganimizda esa do'zax o'tida yonamiz...

U goh muloyimlashib, Kashtankani chaqirib olar va unga qarab shunday derdi:

— Sen-chi, Kashtanka, bir jonivor-hasharotdan boshqa narsa emassan. Duradgor bilan romsozning orasida qaicha farq bo'lsa, sen bilan odam orasida ham shuncha farq bor...

U Kashtanka bilan shu tarzda gaplashib turganida, birdan muzika yangradi. Kashtanka alanglab qaradi va ko'chada, bir polk soldatning to'ppa-to'g'ri bostirib kelayotganini ko'rди. G'ashiga tegayotgan muzika tovushiga chidayolmay o'zini u yoqdan bu yoqqa urib vovulladi. Duradgorning qo'rqib g'inshish va hurish o'rniga tirjayganini,

qaddini rostlab, besh barmog'ini chekkasiga taqab chest berganini ko'rib, Kashtanka hayron bo'lib qoldi. Egasining qarshilik ko'rsatmaganini ko'rgach Kashtanka boyagidan ham battar vovulladi va jon holatda ko'chani kesib o'tib, narigi yo'lkaga yugurdi.

Kashtanka hushini yig'ib olganda muzika tingan, polkdan esa asar ham qolmagan edi. U ko'chani kesib o'tib, xo'jaymini qoldirib ketgan joyiga yugurdi, lekin, afsus! U yerda duradgor yo'q edi. Kashtanka jon holatda oldinga otildi, keyin orqasiga qaytdi, ko'chani yana bir kesib o'tdi, lekin duradgordan nom-nishon qolmagan edi... Kashtanka egasining izini hididan topib olay deb yo'lkani iskadi, lekin bundan sal ilgari yangi rezinka kalish kiygan allaqanday muttaham o'tgan ekan, barcha nozik hidlar, o'tkir kauchukning buriqsab turgan sassiq hidiga qo'shilib, hech narsani ajratib bo'lmadi.

Kashtanka goh oldinga, goh keyinga yugurdi, egasini topmadi. Bu orada qorong'i tushib qoldi. Ko'chaning har ikki tomonidagi fonarlar yoqildi, uylarning derazalarida chiroq ko'rindi. Zudlab yog'ayotgan laylak qor tosh ko'chani, otlarning yag'rinini, izvoshkachilarning shapkasini oqartirardi. Qorong'i quyuqlashgan sari narsalar tobora oqroq ko'rinardi. Kashtankaning yonida, uning oldini to'sib, oyoqlari bilan uni turtib, begona buyurtmachilar u yoqdan bu yoqqa tinmay o'tib turardi. (Kashtanka barcha odamlarni ikki toifaga: xo'jayinlar va buyurtmachilarga ajratardi; bular o'rtasida katta farq bo'lib: xo'jayinlar uni urishga haqli bo'lsa, Kashtankaning o'zi buyurtmachilarning boldiridan uzishga haqli edi). Buyurtmachilar qayoqqadir shoshilar, unga parvo ham qilmasdilar.

Juda qorong'i bo'lib qolgach, Kashtankaning yuragini qayg'u hamda vahima bosdi; u allaqanday bir eshikka siqilib olib, zor-zor yig'ladi. Kashtanka Luka Aleksandrich bilan kun bo'yi sayohat qilib charchagan, qulog'i va oyoqlari sovqotgan, buning ustiga qorni ham juda och edi. Kuni bo'yi u atigi ikki marta ovqatlandi: muqovasoznikida ozginagina yelim, qovoqxonalarining birida kolbasaning po'stlog'ini topib oldi. Ana shu xolos. Agar u odam bo'lganda edi, balki:

«Yo'q, bunday yashab bo'lmaydi! Undan ko'ra o'zingni otib o'ldirganing yaxshi!» deb qo'ygan bo'lardi.

Ikkinchi bob

SIRLI BIR NOTANISH ODAM

Lekin Kashtanka hech narsani o'ylamas, faqat g'inshirdi. Endi orqa va boshini momiqday yumshoq qor qoplab olgan, madorsizlikdan mudray boshlagan ham ediki, birdan eshik shiqilladi, g'ijillab ochildi va biqiniga urildi. Kashtanka irg'ib turdi. Ochilgan eshikdan buyurtmachilar toifasidan allaqanday bir kishi chiqdi. Kashtanka angillab, uning oyog'i tagida o'ralashib qolgani uchun bu kishining e'tiborini o'ziga jalb etdi. U engashdi-da:

— Ha, kuchukcha, bu yerga qanday kelib qolding, — dedi. — Eshik bilan ezib qo'ydimmi? Voy bechoragina-e... Qo'y, xafa bo'lma, qo'ya qol... Bilmay qoldim.

Kashtanka kiprigiga yopishgan qor uchqunlari orasidan notanish kishiga qaradi va ro'parasida soqoli qirilgan lo'ppi yuzli, boshiga tsilindr kiygan,

egnidagi po'stinining oldi ochiq, pakana va baqaloq odam turganini ko'rdi.

— Nega g'inshiysan? — deb so'radi u kishi qo'li bilan Kashtankaning ustidagi qorlarni qoqib.

— Egang qani? Adashib qoldingmi? Eh, bechora kuchukcha-ya! Endi nima qilamiz-a?

Notanish kishining ovoqidagi mehribonlik ohangini sezgan Kashtanka uning qo'lini yaladi va avvalgidan qattiqroq g'inshidi.

— Juda g'alati yoqimtoy kuchuk ekansan-ku! — dedi notanish kishi. — Tulkining o'zginasisan-a! Mayli endi, nima ham qilardik, men bilan yura qol. Biron narsaga yarab qolarsan... Mah-mah!

U kishi lahini cho'pilatdi va Kashtankaga qo'li bilan «yur» degan ishora berdi. Kashtanka unga ergashdi.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas Kashtanka katta yorug' xonada, stol oldida, notanish kishining ovqatlanishimi, boshini bir tomonga egib, iydiradigan tarzda maroq bilan kuzatib o'tirardi. U kishi ovqatlanar, Kashtankaga ham ovqatdan tashlab qo'yardi... Avval u Kashtankaga bir burda non va pishloqning ko'k po'stlog'ini tashladi. Keyin bir parcha go'sht, yarimta somsa va tovuq suyagini berdi. Kashtanka och bo'lgani uchun ularning hammasini shu qadar tez yamlab yutardiki, mazasini ham bilmay qolardi.

Qancha ko'p yesa ham to'ymasdi.

— Egang yaxshi hoqmas ekan! — dedi notanish kishi itning ovqatni och ko'zlik bilan chaynamay yutayotganini ko'rib. — Muncha ozg'insan! Qoq suyaksan...

Kashtanka ko'p ovqat yedi, lekin to'ymadi, faqat huzur qildi, xolos. Ovqatdan keyin uyning

o'rtasiga yotib, oyog'ini uzatdi va rohat qilganidan dumini likillatdi.

Yangi egasi kresloda yalpayib o'tirib, sigara chekayotganda Kashtanka dumini likillatib: bu yer yaxshimi yoki duradgorniki yaxshimi, deb o'yladi. Bu yerda jihozlari oz va buning ustiga xunuk: kreslo, divan, lampa va gilamlardan boshqa hechnarsa yo'q. Shuning uchun ham uy bo'shga o'xshab ko'rinadi. Duradgorning uyi esa har xil narsalar bilan to'la: unikida stol, duradgorlik dastgohi, bir uyum qirindi, randalar, iskanalar, arralar, sa'va qamalgan qafas, tog'ora bor... Notanish kishinikida hech qanaqa hid yo'q, duradgornikida esa doim yelim, lak va qirindilarning xushbo'y hidi anqiydi. Lekin shumisini ham aytish kerakki, notanish kishining ko'pgina yaxshi tomoni bor: u ovqatni ko'p berdi, Kashtanka stol oldida dumini likillatib, iyyiradigan tarzda termulib turganda biron marta ham urmadi, yer tepinib: «yo'qol la'natil!» deb ham qichqirmadi.

Yangi egasi sigarasini chekib bo'lgach, chiqib ketdi va ko'rpacha olib kirdi. Ko'rpachani devor yoniga, burchakka solar ekan:

— Hoy ko'ppak, bu yoqqa kel! Bu yerda yot. Uxla! — dedi.

Keyin u lampani o'chirib, chiqib ketdi. Kashtanka ko'rpachada yotdi va ko'zini yumdi. Ko'chadan itning vovullagani eshitildi, u ham javob qaytarmoqchi bo'lgan edi, lekin birdan ko'nglini g'ussa bosdi.

U Luka Aleksandrichni, uning o'g'li Fedyushkani va duradgorlik dastgohi tagidagi shinamgina o'rnini esladi... Kashtanka qishning uzoq kechalarida duradgor yog'och randalayotganda yoki ovozini chiqarib gazeta o'qiyotganda, Fedyushka bilan

o'ynashini esladi... Fedyushka Kashtankaning orqa oyog'idan tortib dastgoh tagidan sudrab chiqarar va u bilan shunday fokuslar qilar ediki, ko'z oldi qorong'ilashib, a'zoyi badani og'rirdi. Fedyushka uni orqa oyog'ida yurishga majbur qilar, Kashtankani qo'ng'iroq qilar, ya'mi dumidan qattiq tortar, natijada u angillar, ham vovullardi. Kashtankaga tamaki hidlatardi... Ayniqsa mana bu fokus juda azob berardi: Fedyushka bir parcha go'shtni ipga bog'lab Kashtankaga tashlar, u yutib yuborgach esa, qah-qahlab kulib, uni me'dasidan tortib chiqarardi. Xotiralar ko'z oldiga ravshanroq kelgan sari Kashtanka qattiqroq va g'amginroq g'inshiy boshladi.

Lekin ko'p o'tmay horg'imlik va issiq qayg'udan ustun keldi... U uxlab qoldi. Xayolida itlar yugurishib yurardi; bular orasida Kashtanka bugun ko'chada uchratgan ko'ziga oq tushgan, tumshug'ining yonini tikanakday jun bosgan, baroq qari xonaki it ham bor edi. Fedyushka bo'lsa, qo'liga iskana ushlab uni quvlab yuribdi, keyin Fedyushka ham birdan it qiyofasiga kirib, baroq jun bosdi, quvomb-quvonib vovulladi-da, Kashtankaning yoniga kelib qoldi. Qashtanka ikkalasi oqko'ngillik bilan bir-birlarining tumshuqlarini iskashdi-da, yugurib ko'chaga chiqib ketishdi...

Uchinchi bob

YANGI YOQIMTOY TANISHLAR

Kashtanka uyg'onganda tong yorishgan, ko'chadan esa faqat kunduzlari bo'ladigan g'ovurg'uvur eshitilardi. Uyda hech kim yo'q. Kashtanka kerishdi, esnadi va achchig'lanib xonada u yoqdan

bu yoqqa kezib yurdi. U burchaklarni va jihozlarni iskadi, dahlizga kirib chiqdi, lekin bironta qiziqarli narsa topmadi. Dahlizga chiqiladigan eshikdan tashqari yana bir eshik bor edi. Biroz o'ylab ko'rgach, Kashtanka ikki oyog'i bilan eshikni timdalab ochdi va ikkinchi xonaga chiqdi. Krovatda buyurtmachi toifasidagi odam bayko adyol yopinib uxlab yotardi. Kashtanka kechagi notanish kishini tanidi.

— Rrrr... — dedi Kashtanka, lekin shu zahoti kechagi ovqatni eslab, dumini likillatdi va is kay boshladi.

Kashtanka notanish kishining kiyimlarini, etigini iskadi va ulardan ot hidi kelayotganini aniqladi. Yotoqxonada allaqayoqqa chiqiladigan yana bir eshik bo'lib, u ham yopiq edi. Kashtanka shu eshikni timdaladi, ko'kragi bilan itarib ochdi va shu zamonog' g'alati, juda shubhali hidni sezdi. Ko'ngilsiz bir uchrashuvni oldindan his qilgan Kashtanka irilladi va atrofiga alanglab, devorlariga yopishtirilgan qog'ozlar kir bo'lib ketgan kichik uyga kirdi-da, qo'rqqanidan tislendi. Kashtanka ro'parasida sira kutilmagan va qo'rqinchli bir narsani ko'rdi. Kulrang bir g'oz bo'yni va boshini yerga egib, qanotlarini yozib va qig'illab to'g'ri Kashtankaga qarab bostirib kelardi. Undan sal narida kichkinagina ko'rpachada oppoq mushuk yotardi; Kashtankani ko'rishi bilanoq u irg'ib turdi, belini kamalak qilib, dumini ko'tardi, yungini hurpaytirdi va u ham pixilladi. Kashtanka juda qo'rqib ketdi, lekin sir boy bermaslik uchun qattiq vovulladi va mushukka tashlandi... Mushuk belini boyagidan ham battarroq egdi, pixilladi va panjasi bilan Kashtankaning boshiga bir urdi. Kashtanka

o'zini chetga oldi, cho'nqaydi, mushuk tomon tumshug'ini cho'zib g'inshidi va qattiq vovulladi; shu vaqt orqa tomondan kelgan g'oz Kashtankaning orqasini cho'qidi. Kashtanka sapchib tushdi va g'ozga tashlandi...

Shu vaqt birdan:

— Bu nima degan gap? — deb jahl bilan aytilgan qattiq ovoz eshitildi va egniga chopon kiygan, sigara tishlagan kechagi notanish kishi kirib keldi. — Nima gap o'zi? Joy-joyingga bor!

U kishi mushukning yoniga keldi, egilib turgan beliga bir turtdi-da:

— Fedor Timofeich, bu nima? Janjal qo'zg'adinglarmi? Eh, qari tentak! Yot! — dedi.

Keyin g'oz tomonga o'girilib baqirdi:

— Ivan Ivanovich, bor joyingga!

Mushuk itoatkorlik bilan ko'rpachasiga yotdi va ko'zini yumdi. Qizishib ketib, janjalga aralashganidan o'zi ham norozi ekani tumshuq va mo'ylovidan sezilib turardi. Kashtanka ranjib g'inshidi, g'oz esa bo'ynini cho'zib, nima to'g'ridadir tez-tez, qizg'in va ravshan gapirdi, lekin uning nima deganiga hech tushunib bo'lmas edi.

— Xo'p, xo'p! — dedi xo'jayin esnab. — Ahil bo'lib, do'st bo'lib yashash kerak. — U Kashtankani silab qo'ydi va gapini davom etdirdi: — Sen, sariq, qo'rqma... Bular yaxshi, seni xafa qilishmaydi... Shoshma, otingni nima qo'yamiz? Otsiz yurib bo'lmaydi-ku, og'ayni.

Notanish kishi o'ylab turgach:

— Topdim... — dedi. — Sening oting — Tyotka bo'ladi... Tushundingmi? Tyotka.

U «Tyotka» so'zini bir necha bor takrorladi-da, chiqib ketdi.

Kashtanka o'tirdi va atrofini kuzata boshladi. Mushuk ko'rpachasida qimir etmay o'tirar va o'zini uyquga solar edi. G'oz esa bo'ynini cho'zib va turgan joyida yer tepinib, allanarsa to'g'risida tez va qizg'in gapirardi. Aftidan juda aqlli g'oz ko'rinardi; har gal uzundan-uzoq gapirgandan keyin, hayron bo'lib, orqasiga tislana va o'z so'zidan zavqlanayotganday ko'rinardi... Kashtanka uning gapiga quloq soldi, «rrr...» deb javob qaytardi-da, burchaklarni islay boshladi. Bir burchakda kichkina tog'ora turar, unda no'xot va non ivitib qo'yilgan edi. Kashtanka no'xotni yeb ko'rdi — bemaza ekan, nondan yeb ko'rdi — durust ekan, indamay yeyaverdi. G'oz begona bir it ovqatini yeb qo'yayotgani uchun xafa bo'lmadi, aksincha, boyagidan ham qizg'inroq gapirdi va o'zining ishonchini ko'rsatish uchun tog'ora yoniga keldi-da, no'xotdan bir necha donasini terib yedi

To'rtinchi bob

CHAMBARAKDAGI MO'JIZA

Birozdan keyin notanish kishi yana kirdi. Uning qo'lida darvozaga va P harfiga o'xshagan g'alati bir narsa bor edi. Yog'ochdan qo'pol qilib ishlangan P harfining tepasiga qo'ng'iroq osilgan va to'pponcha bog'lab qo'yilgan; qo'ng'iroqning tiliga va to'pponchaning tepkisiga kanop bog'langan edi. Notanish kishi P ni uyning o'rtasiga qo'ydi, anchagacha allanarsalarni yechdi, boyladi, keyin g'ozga qaradi-da:

— Qani, Ivan Ivanovich, marhamat! — dedi.

G'oz P ning yoniga keldi va allanarsani kutgan vaziyatda to'xtadi.

— Qani, — dedi notanish kishi, — boshlaymiz.
— Avval bir salom qillib qo'y! Tez bo'li!

Ivan Ivanich bo'ynini cho'zdi, har tarafga qarab bosh chayqadi va panjasi bilan yer tepinib qo'ydi.

— Yasha, balli... Qani endi, o'li!

G'oz oyog'ini osmonga ko'tarib chalqancha tushih yotdi. Ana shunday bir necha ahamiyatsiz fokuslardan keyin notanish kishi birdan boshini changalladi va yuzida qo'rquv aks etdirib qichqirdi:

— Qorovull! O't ketdi! Yonib ketdik!

Ivan Ivanich P ning yoniga yugurib bordi, kanopni tishlab tortdi-da, qo'ng'iroqni chalib yubordi.

Notanish kishi juda mamnun bo'ldi. U g'ozning bo'ynini siladi-da:

— Barakalla, Ivan Ivanovich! — deb qo'ydi.

— Endi, o'zingni zargar deb faraz qil, oltin va brilyantlar bilan savdo qilasan. Magaziningga kelsangki, o'g'rilar yuripti. Shunda nima qilarding?

G'oz ikkinchi kanopni tishlab tortdi, to'pponcha paqillab otildi. Qo'ng'iroqning jaranglashi Kash-tankaga juda yoqdi, to'pponchaning paqillab otilishi esa uni shu qadar zavqlantirib yubordiki, P ning atrofida yugurib vovulladi.

— Tyotka, joyingga bor, — deb qichqirdi notanish kishi. — Tek tur.

Ivan Ivanichning ishi to'pponcha otish bilan tugamadi. Notanish kishi xipchinini shipillatib uni bir soatcha o'z atrofida yugurtirdi, g'ozni g'ovdan sakrashga, chambarak ichidan sakrab o'tishga, dumini yerga tirab, panjalarini silkitishga majbur qildi. Qashtanka Ivan Ivanichdan ko'z uzmas, zavqlanganidan g'inshirdi, bir necha marta qattiq vovullab, uning ketidan yugurdi. G'oz ham, o'zi ham

charchagandan keyin notanish kishi peshonasining terini arttdi-da:

— Marya Xavronya Ivanovnani chaqir! — deb qichqirdi.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas hurillagan ovoz eshitildi... Kashtanka vakilladi, o'ziga qahramonona tus berdi-da, har ehtimolga qarshi notanish kishining yoniga borih turdi. Eshik ochildi, allaqanday kampir mo'raladi va bir nimalar dedi-da, qop-qora juda xunuk bir cho'chqani kiritib yubordi. Cho'chqa Kashtankaning irillaganiga parvo qillmay tumshug'ini ko'tardi-da, xursandlik bilan hurilladi. U egasini, mushukni va Ivan Ivanichni ko'rganiga juda sevinib ketganga o'xshardi. U mushukning yoniga borib, tumshug'i bilan qorniga turtib qo'yganda va g'oz bilan allanarsa haqida gaplashganda uning harakatlari, ovozi hamda dumining titrashidan ancha ko'ngilchanligi sezilib turardi. Bunaqa shaxslarga qarab irillash va vovullash foydasizligini Kashtanka darrov tushundi.

Xo'jayin P ni olib qo'ydi va:

— Fedor Timofeich, marhamat! — deb qichqirdi. Mushuk erinchoqlik bilan o'rnidan turdi-da, istar-istamas yurib, xuddi bir katta ish ko'rsatayotgandek cho'chqaning yoniga keldi.

— Qani, misr piramidasidan boshlaymiz, — dedi xo'jayin.

U anchagacha allanarsalarni tushuntirdi, keyin: «Bir... ikki... uch!» deb komanda berdi. «Uch» deyilishi bilanoq Ivan Ivanich qanotlarini qoqdi va sakrab cho'chqaning ustiga chiqib oldi... G'oz qanotlarini yoyib, bo'ynini cho'zib, muvozanatni saqlab, cho'chqaning ustiga joylashgach, Fedor Timofeich erinchoqlik bilan shalvirab yurgyu, ularning yoniga bordi va o'z san'atini nazar-

pisand qilmagan bir qiyofada avval istar-istamas cho'chqaning ustiga chiqdi, keyin g'ozning ustiga chiqdi-da, oldingi oyoqlarini ko'tarib turdi. Notanish kishi aytgan misr piramidasi hosil bo'ldi. Kashtanka zavqlanganidan chiyillab yubordi, lekin shu mahal kekxa mushuk esnadi va muvozanatini yo'qotib, g'ozning ustidan ag'inab tushdi. Notanish kishi baqirdi, qo'llarini silkidi va yana allanarsani tushuatira boshladi. Xullas, xo'jayin piramida bilan bir soatcha ovora bo'lgandan keyin Ivan Ivanovichga mushukka minib yurishni o'rgata boshladi, keyin mushukka chekishni o'rgatdi va hokazo.

Notanish kishi peshonasining terini artib chiqib ketishi bilan ta'lim tugadi. Fedor Timofeich jirkanib pix-pix qilib qo'ydi-da, ko'rpachasiga yotib ko'zini yumdi.

Ivan Ivanich tog'ora yoniga bordi, kampir cho'chqani olib chiqib ketdi.

Juda ko'p yangi taassurotlar tufayli Kashtankaga kun juda tez o'tib ketganday tuyildi, kechqurun esa devorlariga yopishtirilgan qog'ozlari kir bo'lib ketgan uyga ko'rpachasi bilan ko'chirib qo'yildi-da, u yerda Fedor Timofeich va g'oz bilan birgalikda tunadi.

Beshinchi bob

TALANTI TALANTI

Oradan bir oy o'tdi.

Kashtanka har kuni kechqurun yaxshi ovqat bilan boqishlariga va Tyotka deb chaqirishlariga o'rganib qoldi. U notanish kishiga ham, yangi hamrohlariga ham ko'nikdi. Umr silliq va ravon o'tardi.

Kunlar bir xilda boshlanardi. Odatda Ivan Ivanich hammadan avval uyg'onar va Tyotka yoki mushuk yoniga borar, bo'ynini egib allanarsalar to'g'risida qizg'in va berilib gapirar, lekin uning nima deyayotganiga avvalgidek sira tushunib bo'lmas edi. Ba'zan u boshini baland ko'tarib uzun monologlar o'qirdi. Dastlabki tanishgan kunlarida Kashtanka g'ozni aqlli bo'lgami uchun ko'p gapiradi deb o'ylagandi, lekin ko'p o'tmay uni butunlay izzat qilmaydigan bo'ldi; g'oz uning yoniga kelib, uzun nutqini boshlaganda, Kashtanka avvalgidek dumini likillatmas, aksincha hadeb gapiraverib hech kimni uxlatmagani, ezmaligi uchun sira mensimas va iymanib o'tirmay «rrr...» deb qo'yardi.

Fedor Timofeich esa butunlay boshqacha edi. U uyg'onsa ham damimi chiqarmas, qimirlamas, hatto ko'zimi ham ochmas edi. Unga qolsa sira uyg'onmas edi, chunki hayotni uncha yaxshi ko'rmasa kerak. Uni hech narsa qiziqtirmas, hamma narsaga beparvo qarar, hamma narsadan nafratlanar, hatto mazali ovqatni yeb turib ham jirkanib, «pix-pix»lab qo'yardi.

Kashtanka uyg'onganidan keyin uydan-uyga o'tib yurar va burchaklarni iskar edi. Faqat unga va mushukka hamma uylarga kirib yurishga ruxsat berilgandi; g'oz bo'lsa, devorlariga yopishtirilgan qog'ozlari kir bo'lib ketgan uyning ostonasidan hatlashga ham haqsiz edi. Xavronya Ivanovna hovlining allaqayerida, og'ilda yashar va ta'lim paytlaridagina paydo bo'lardi. Xo'jayin kech uyg'onar va choyini ichib bo'lishi bilanoq fokuslarini boshdardi. Har kuni uyga P, qamchi va chambarak olib kirilar, har kuni shu fokuslar takrorlanardi. Ta'lim uch-to'rt soat davom etar, hatto ba'zan shunday bo'lardiki, Fedor Timofeich,

horiganidan xuddi mastlarga o'xshab gandraklar, Ivan Ivanovich tumshug'ini ochib og'ir nafas olar, xo'jayin esa qip-qizarib ketib, hadeb peshonasining terini artardi.

Ta'lim va ovqatlanish tufayli kun juda xursandchilik bilan o'tar, kechqurunlari esa Tyotka zerikar edi. Odatda kechqurun xo'jayin allaqayerga jo'nar, g'oz bilan mushukni ham o'zi bilan olib ketardi. Yolg'iz qolgan Tyotka ko'rpachasiga yotar va g'ussaga botar edi. G'ussa, xuddi uyni bosayotgan qorong'ilik singari sekin-asta butun borligini qamrab olardi. Shunday bo'lardiki, itning vovullashga ham, ovqat yeyishga ham, uydan-uyga yugurib yurishga ham, hatto, qarashga ham xushi kelmay qolardi; keyin itmi, odammi ekanligi noaniq ikki gavda xayoliga kelardi. Ularning istarasi issiq, yoqimtoy, lekin kimligini anglab bo'lmasdi; ularni ko'rganda Tyotka dumini likillatar, nazarida allaqayerdadir ko'rganday va sevganday bo'lardi... Uxlab ketar ekan, ulardan har gal yelim, qirindi va lak hidi kelayotganday tuyilardi.

U yangi hayotga juda ko'nikib, ozg'in, suyaklari chiqib turgan xonaki itdan to'q va sho'x ko'ppakka aylangach, egasi odatdagi ta'lim oldidan uni silab qo'ydi-da, shunday dedi:

— Tyotka, endi ishni boshlasak ham bo'lar. Bekor yurish yetar. Seni artist qilmoqchiman... Xo'sh, artist bo'lg-ing keladimi?

Shunday qilib unga turli hunar o'rgata boshladi. Birinchi darsda u keyingi oyoqlarida tik turishni o'rgandi. Bu hunari o'ziga ham juda yoqdi. Ikkinchi darsda keyingi oyoqlarida sakrab, egasi ushlab turgan qandni og'zi bilan ilib olishi kerak edi. Keyingi darslarda esa o'yin tushishni,

egasining atrofida tizginlangan holda yugurishni, muzikaga jo'r bo'llb uvillashni, ko'ng'iroq chalishni, to'pponcha otishni o'rgandi. Oradan bir oy o'tgach misr piramidasida bemalol Fedor Timofeichning o'rnini bosadigan bo'ldi. U jon-dili bilan ta'lim olar, muvaffaqiyatlaridan esa nihoyatda xursand edi; tilini osiltirib egasi atrofida tizginlangan holda yugurish, chambarak orasidan sakrash va kekxa Fedor Timofeichga minib yurish unga juda xush yoqardi. Har bir muvaffaqiyatli chiqqan fokusdan zavqlanib qattiq vovullar, egasi esa hayron bo'lar va zavqlanganidan qo'llarini bir-biriga ishqab:

— Talant! Talant! — Haqiqiy talant! Bu o'yinlaring, albatta, hammaga manzur bo'ladi! — deb qo'yardi.

Shunday qilib Tyotka «talant» degan so'zga o'rganib qoldi va har gal egasi shu so'zni aytganda irg'ib turar, go'yo bu so'z o'z ismi bo'lib qolganday, atrofga alanglab qo'yardi.

Oltinchi bob

NOTINCH KECHA

Tyotka tush ko'rdi, tushlda qorovul supurgi ko'tarib, quvlab yurgan emish. Tyotka qo'rqqanldan uyg'onib ketdi.

Xona jimjit, qop-qorong'i va juda dim edi. Burgalar talardi. Tyotka ilgari qorong'idan hech qo'rqmasdi, lekin endi negadir yuragini vahima bosdi, vovullagisi keldi. Qo'shni xonada xo'jayinning chuqur nafas olgani eshitildi, oradan biroz vaqt o'tgach, og'ilxonadagi cho'chqa xurilladi, yana jimllk cho'kdi. Ovqat haqida o'ylasang ko'ngling ancha

yengil tortadi. Shuning uchun ham Tyotka bugun Fedor Timofeichning ovqati orasidan tovuqning oyog'ini o'g'irlab olganini, va mehmonxonada shkaf yomidagi o'rgimchak in qo'ygan va chang bosgan burchakka yashirganini o'yladi. Hozir borib xabar olib kelsa bo'lardi-ya: tovuq oyog'i turganmikan, yo yo'qmikan? Egasi topib olib, yeb qo'ygan bo'lishi ham mumkin. Lekin tong otmasdan u uyga kirib bo'lmaydi; bu yerming tartibi shunday. Tyotka tezroq uxlay deb ko'zini yumdi, chunki qanchalik tez uxlasa, shunchalik tez tong otishimi u tajribada bilardi. Lekin shu vaqt undan sal nariroqda g'alati bir tovush eshitildi. Tyotka seskanib ketdi va irg'ib o'rnidan turdi. Bu Ivan Ivamichning tovushi edi. Lekin bu tovush odatdagidek ezma va ishonarli bo'lmay, eshikning g'ijillashiga o'xshash g'ayri tabiiy, juda dahshatli chinqiriq edi.

Tyotka qorong'ida hech narsani ko'rmadi ham, tushunmadi ham. Shuning uchun boyagidan battar qo'rqib ketdi-da, g'o'ldirab:

— Rrrrr... — deb qo'ydi.

Oradan yaxshi bir suyakmi tozalaguncha kerak bo'lgan bir muddat o'tdi; qichqiriq takrorlanmadi. Tyotka asta-sekin tinchlandi va mudrab ketdi. Tushida soni va yonboshida bulturgidan qolgan yunglari osilib turgan ikkita katta qora itni ko'rdi; ular katta tog'oradagi oppoq bug'i osmonga ko'tarilayotgan va juda mazali is kelayotgan yuvindini ochko'zlik bilan ichishardi; ular ba'zi-ba'zida Tyotkaga qarar va tishlarini irjaytirib: «Senga bermaymiz!» deb g'o'ldirashadi. Lekin uydin po'stin kiygan kishi chopib chiqdi-da, ularni qamchi bilan urib, haydab yubordi; shundan keyin Tyotka tog'ora yoniga borib, icha boshladi, boyagi kishi darvozadan chiqib ketishi

bilan haligi qora itlar o'kirishib unga tashlandi. Shu vaqt yana qig'illagan tovush eshitildi.

— Q-g'o'l Q-g'e-g'e! — deb qichqirdi Ivan Ivanich. Tyotka uyg'ondi, irg'ib o'rnidan turdida, ko'rpachasidan tushmasdanoq ulidi. Unga Ivan Ivanich emas, boshqa birov qichqirayotganday tuyildi, og'ilxonadagi cho'chqa ham negadir yana xurillab qo'ydi.

Birdan tuflining shipillashi eshitildi va chopon kiygan, sham ko'targan xo'jayin kirib keldi. Lip-lip etgan nur devorlarga yopishtirilgan kir qog'ozlarni va shipni yoritib, qorong'ilikni quvib chiqardi. Tyotka qarasa, uyda begona kimsa ko'rinmaydi. Ivan Ivanich yerda, uxlamay o'tirardi. Uning qanotlari yoyilgan, tumshug'i ochilgan, juda charchab, suvsab qolganga o'xshardi. Qari Fedor Timofeich ham uxlamasdi. Boyagi tovush uni ham uyg'otib yuborgan bo'lsa kerak.

— Ivan Ivanich, senga nima bo'ldi? — deb so'radi xo'jayin g'ozdan. — Nega baqirasan? Tobing yo'qmi?

G'oz javob bermadi.

Xo'jayin uning bo'ynini ushlab qo'ydi, orqasini siladi-da:

— Voy, tentakvoy-ey. O'zing ham uxlamaysan, boshqalarni ham uxlatmaysan, — deb qo'ydi.

Xo'jayin shamni olib chiqib ketgach, uy yana qorong'i bo'lib qoldi. Tyotkani vahima bosdi. G'oz qichqirmas, lekin itning nazarida qorong'ilikda allakim turganday bo'lardi. Hammasidan dahshatlisi shu ediki, o'sha begonaning o'zi ko'rinmas, shakli bo'lmagani uchun qopib ham bo'lmas edi-da. Negadir Tyotkaning nazarida shu kechasi biron yomon hodisa yuz beradigandek sezilardi. Fedor Timofeich

ham notinch edi. Tyotka uning o'z ko'rpachasida ivirsilayotganini, esnab boshini silkitayotganini eshittardi.

Ko'chaning allaqayerida darvoza taqilladi. Og'ilxonadagi cho'chqa xurilladi. Tyotka g'inshidi, oldingi oyoqlarini cho'zib, ustiga boshini qo'ydi. Darvozaning taqillashi, negadir uxlamagan cho'chqaning xurillashi, qorong'ida va sukunat ichida Tyotkaga Ivan Ivanichning ovozdagi singari, juda ham g'amgin va dahshatli ohang eshitildi. Hamma yoq vahima va tashvish ichida edi. Nima bo'layotgan ekan-a? Ana shu ko'rinmagan kim ekan-a? Mana, Tyotkaning yonida ikkita ko'k uchqun bir on yiltillab ketdi. Bu Fedor Timofeich bo'lib, tanishganlaridan beri uning yoniga birinchi marta kelishi edi. Unga nima kerak? Tyotka panjasini yaladi-da, uning nega kelganini ham so'ramay, har xil ovoz chiqarib g'inshib qo'ydi.

— Q-g'e! — deb qichqirdi Ivan Ivanich. — Q-g'e-g'e!

Yana eshik ochildi-da, sham ko'targan xo'jayin kirdi. G'oz boyagidek tumshug'ini ochib, qanotini yozib o'tirardi. Uning ko'zlari yumuq edi.

— Ivan Ivanich! — deb chaqirdi xo'jayin.

G'oz qimir etmadi. Xo'jayin uning yoniga, yerga o'tirib bir pas indamay qarab turdi-da:

— Ivan Ivanich, — deb chaqirdi — Senga nima bo'ldi? O'zi nima gap. O'layapsanmi? Ha, endi esimga tushdi! — deb qichqirib yubordi u birdan boshini changallab. — Nega bunaqa bo'layotganingga tushundim? Bugun seni ot bosib olgan edi! Eh, xudoyim, eh xudoyim!

Tyotka xo'jayinining nima deyayotganiga tushunmas edi. Lekin shunga qaramay uning biror

dahshatli hol yuz berishini kutayotganini payqadi. Tyotkaming nazarida qorong'i derazadan allaqanday begona mo'ralayotganga o'xshab ko'rinardi. U deraza tomonga tumshug'ini cho'zib uvladi.

— Tyotka, g'oz o'lyapti, — dedi xo'jayin va qo'llarini yozdi, — ha, ha, o'lyapti! Uyingizga o'lim kirib keldi. Endi nima qilamiz? — Rangi o'chgan, zo'r tashvishga tushgan bechora xo'jayin uh tortdi, boshini chayqay-chayqay yotoqxonasiga chiqib ketdi. Tyotka qorong'ida qolishdan qo'rqib uning ketidan ergashdi. Xo'jayin krovatiga o'tirdi-da:

— E, xudoyim-ey, endi nima qilamiz? — dedi bir necha marta.

Tyotka uning oyog'i tagida o'ralashar, nima uchun yuragi siqilayotganini va boshqalar nega tashvishga tushayotganini tushunmay, sababini bilish niyatida xo'jayinning har bir harakatini kuzatib turardi. Ko'rpachasidan turmaydigan Fedor Timofeich ham xo'jayinning xonasiga kirdi va oyog'iga suykala boshladi. U tashvishli xayollarni chiqarib tashlamoqchi bo'lganday, boshini silkitar va krovat tagiga xavotirlanib qarab-qarab qo'yardi.

Xo'jayin bir likopchaga umivalnikdan suv qo'ydidan, yana g'oz oldiga chiqdi.

— Ich, Ivan Ivanich! — dedi u, muloyimlik bilan likopchani g'oz yoniga qo'yaturib. — Icha qol, jonim.

Lekin, Ivan Ivanich qimir etmas, hatto ko'zini ham ochmas edi. Xo'jayin uning boshini likopchaga engashtir-i va tumshug'ini suvga tegizdi, ammo g'oz suvdan ichmadi, qanotini yana ham kengroq yozdi, boshi likopchada qolaverdi.

— Tamom, vassalom! — deb uh tortdi xo'jayin.
— Tamom. Ivan Ivanichdan ajralib qoldik!

Xo'jayinning yuzidan yaltiroq tomchilar oqib tushdi, bunaqa tomchilar yomg'ir yoqqanda deraza oynalarida ko'rinadi. Tyotka bilan Fedor Timofeich nima bo'layotganiga tushunmay, uning oyog'iga suykashar va qo'rqib g'ozga qarashardi.

— Bechora Ivan Ivanich, — dedi xo'jayin g'amginlik bilan uh tortib. — Men bo'lsam semi bahorda dachaga olib ketaman, birgalashib ko'm-ko'k maysazorda sayr etamiz, deb o'ylagan edim. Bechora jonivor, sodiq o'rtoq, sendan ayrilib qoldim-ku! Sensiz endi nima qilaman?

Tyotkaning nazarida o'zi ham xuddi shunaqa bo'ladigandek, ya'ni nima uchundir ko'zi yumilib, oyoqlari cho'zilib, og'zi ochilib qoladigandek, hamma unga qo'rqib qaraydigandek tuyildi. Fedor Timofeichning miyasi ham shunday fikrlar bilan band bo'lsa kerakki, hech qachon qari mushuk bu qadar g'amgin va ma'yus bo'lmagan edi.

Tong yorisha boshladi. Tyotkani qo'rqitib chiqqan begona narsa ko'rinmas edi. Tong otgandan keyin qorovul keldi, g'ozming oyog'idan ko'tarib allaqayoqqa olib ketdi. Bir ozdan so'ng kampir kirdi va tog'orani ko'tarib chiqib ketdi.

Tyotka mehmonxonaga chiqdi va shkaf orqasiga qaradi: xo'jayin tovuq oyog'ini yeb qo'ymapti, suyak o'sha joyda, changda, o'rgimchak ini orasida yotardi. Ammo Tyotkaning yuragi siqilar va yig'lagisi kelardi. U tovuq suyagini aqalli hidlab ham ko'rmadi. Divanning tagiga kirib o'tirdi va ingichka ovoz bilan sekin-sekin:

— Ing-ing-ing... — qilib g'inshidi.

MUVAFFAQIYATSIZ CHIQISH

Bir kun kechqurun xo'jayin devorlariga yopishtirilgan qog'ozlari kir bo'lib ketgan uyga kirdi-da, qo'llarini bir-biriga ishqab.

— Xo'-o'sh... — deb qo'ydi.

U yana bir nima demoqchi edi-yu, hech nima demay chiqib ketdi. Ta'lim vaqtlarida xo'-jayinning qiyofasi va ovozing ohangini yaxshi o'rganib olgan Tyotka uning hayajonlanayotganini, tashvishlanayotganini va jahli chiqayotganini sezdi. Birozdan keyin u qaytib keldi-da:

— Bugun Tyotka bilan Fedor Timofeichni olib ketaman, — dedi. — Tyotka, misr piramidasida bugun sen marhum Ivan Ivanichning o'rnini bosasan. Nima bo'larkan endi! Tayyorgarlik ko'rilmagan, mashq qilinmagan, repetitsiya ham juda oz bo'ldi! Sharmanda bo'lamiz! Mayna qilishadi!

Keyin u yana chiqib ketdi va bir daqiqadan keyin po'stin va tsilindrda qaytib kirdi. Mushukning yoniga kelib, uni oldingi oyoqlaridan ushlab ko'tardi va qo'yniga, po'stinining ichiga tiqib qo'ydi. Fedor Timofeich esa juda beparvo ko'rinar, hatto ko'zini ochishga ham erinardi. Unga yotadimi, xo'jayini oyog'idan ko'taradimi, ko'rpachasida cho'ziladimi yo xo'jayinning qo'ynida po'stin tagida orom oladimi, baribirga o'xshardi...

— Tyotka, yur, — dedi xo'jayin.

Tyotka hech narsaga tushunmasa ham, dumini likillatib, egasiga ergashdi.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas u chanada, egasining oyog'i ostida o'tirar va uning sovuqdan junjikib hayajon bilan:

— Sharmanda bo'lamiz! Mayna qilishadi! —
deyayotganiga quloq solardi.

Chana to'nkarilib qo'yilgan tog'oraga o'xshagan kattakon, g'alati bir bino yonida to'xtadi. Binoga kiraverishdagi uchta oynavonlik eshik ichkarisidagi uzun yo'lakda o'n-o'n beshta ravshan yonayotgan fonar nur sochardi. Eshiklar jaranglab ochilar va shu yerda o'rallshib yurgan odamlarni xuddi og'izlar singari yutardi. Bu yerda odamlar juda ko'p, eshik oldiga tez-tez otlar kelib to'xtardi, lekin itlar ko'rinmasdi.

Xo'jayin Tyotkani ko'tardi va qo'yniga, po'stin ichiga Fedor Timofeich oldiga tiqib qo'ydi. Bu yer qorong'i va dim, lekin issiq edi. Shu mahal ikkita ko'k uchqun miltillab ketdi. Bu esa Tyotkaning sovuq va qattiq oyog'i tegib ketganidan bezovtalangan mushukning ochilgan ko'zi edi. Tyotka uning qulog'ini yaladi va joylashib olish uchun g'ivir-g'ivir qila boshladi, sovuq oyoqlari bilan mushukni tagiga bosib, to'satdan po'stindan boshini chiqardi-yu, shu zamonAQ jahl bilan irillab, yana boshini tortib oldi. Turli-tuman bahaybat mahluqlar bilan to'lgan, xiragina yoritilgan kattakon uyni ko'rganday bo'ldi; uyning ikki tomoniga tortib qo'yilgan to'siq va panjaralardan badbashara kallalar: ot kallalari, shoxli, shalponquloq kallalar ko'rindi; yana burun o'rniga dum osilgan va og'zidan uzun ikkita suyak chiqib turgan semiz va bahaybat bosh ko'rindi.

Tyotkaning oyog'i ostida mushuk bo'g'iq ovoz bilan miyovladi, lekin shu vaqt xo'jayin po'stinini yozib: «Xo'ppa!» degan edi, Fyodor Timofeich va Tyotka sakrab yerga tushdi.

Ular kulrang taxta devorli kichik bir uyda turishardi; bu yerda oyna qo'yilgan kichikroq stol,

taburetka va burchaklarga ilib qo'yilgan latta-puttalardan boshqa hech qanday jihoz yo'q edi; lampa yoki sham o'rniga, trubkaga ulab devorga qoqib qo'yilgan, yelpug'ichsimon, yorug' narsa nur sochib turardi. Fedor Timofeich Tyotkaning oyog'i ostida g'ijim bo'lgan po'stinini yaladi-da, taburetkaning tagiga borib yotdi.

Xo'jayin hamon hayajonlanar edi, qo'llarini ishqab yechlna boshladi... U odatdagidek yechindi, ya'ni ichki kiyimlaridan boshqa hamma narsani yechdi. Keyin taburetkaga o'tirdi-da, oynaga qarab basharasini g'alati bir qiyofaga sola boshladi. Eng avval boshiga farqi ochilgan, ikkita kokili shoxga o'xshab dikkayib turgan parik kiydi. Keyin yuziga allaqaiday oq narsa surdi, oppoq bo'yoqning ustidan qosh qo'ydi, mo'ylov chizdi va ikki betiga qizil surdi. Shu bilan u kifoyalanmadi. Yuzini va bo'ynini bo'yagach allaqanaqa kiyimlarni kiya boshladi. Tyotka bunaqa kiyimlarni ilgari uyda ham, ko'chada ham hech qachon ko'rmagan edi. Meshchanlarning uyida deraza pardalari yoki mebel qoplash uchun ishlatiladigan parcha gulli chitdan tikilgan haddan tashqari keng, qo'ltig'idan tugmalanadigan cholvorni tasavvur qiling; cholvorning bir pochasi jigarrang bo'lsa, ikkinchi pochasi och sariq chitdan. Xo'jayin cholvorni kiyib bo'lgach, kattakon kungira yoqali, orqasiga xaldan yulduz rasmi tushirilgan chit kamzilni ildi, oyog'iga ikki turli paypoq bilan kovush kiydi...

Tyotkaning ko'zi qamashib, taraddudlanib qoldi. Oppoq yuzli, qo'pol gavdali odamdan xo'jayinning isi keladi, ovozi ham tanish — xo'jayinning ovozi, lekin ba'zan Tyotka ikkilanar, ana shunday paytlarda, chipor odamdan qochmoqchi va unga qarab

vovullamoqchi bo'lardi. Yangi joy, yelpug'ichsimon nur va xo'jayinida yuz bergan bu o'zgarish, yuziga surgan moylarning isi — mana shularning hammasi uning yuragiga g'ulg'ula solardi. Nazarida burun o'rnida dum o'sgan badbashara maxluqqa o'xshagan biron narsa bilan to'qnash keladiganday tuyilardi. Buning ustiga devorning narigi tomondan yoqimsiz bir muzika sadosi kelar, goho allaqanday g'uvillagan tovush eshitilardi. Unga faqat bir narsa tasalli berardi, — u ham Fedor Timofeichning beparvoligi edi. Mushuk taburetkaning tagida pinagimi buzmay yotar, hatto taburetka surilganda ham ko'zini ochmas edi.

Frak va oq jilet kiygan bir kishi eshikdan qaradi va:

— Hozir Miss Arabella chiqadi. Undan keyin sizning navbatingiz, — dedi.

Xo'jayin indamadi. U stol tagidan kichkina bir chemodanni tortib oldi-da, taburetkaga o'tirib kuta boshladi. Qo'li va lablarining harakatidan hayajonlanayotgani sezilib turardi. Tyotka uning nafas olishi bejo ekanini eshitdi.

— Mister Jorj, marhamat! — deb qichqirdi allakim eshik orqasidan.

Xo'jayin o'rnidan turdi, uch marta cho'qindi, keyin taburetka tagidan mushukni olib chemodaniga soldi.

— Tyotka, bu yoqqa kel! — dedi u sekim.

Tyotka hech narsaga tushunmasdan uning yoniga keldi; xo'jayin uning boshidan o'pdi va Fedor Timofeichning yoniga solib qo'ydi. Keyin hammayoq qorong'i bo'lib qoldi... Tyotka mushukning ustida tipirchilar, chemodanning devorini timdalardi, qo'rqqanidan ovozi chiqmas edi. Chemodan esa xuddi to'lganda chayqalayotganday bo'lar va titrardi...

— Mana, men ham kelib qoldim! — deb qichqirdi xo'jayin. — Mana, men ham keldim!

Tyotka bu so'zdan keyin chemodan allaqanday qattiq narsaga tekkanini va chayqalmay qolganini payqadi.

Qattiq va kuchli o'kirish eshitildi: allakimni olqishlashar, ana o'sha allakim esa o'kirar va shu qadar qattiq qah-qah urardiki, chemodanning qulfi jingillab ketdi. Bu haligi burni o'rnidan dum o'sib chiqqan badbashara maxluq bo'lsa kerak. Bu o'kirishga javoban xo'jayin chiyillagan ovoz bilan kulib yubordi. U uyda hech qachon bunday kulmas edi.

— Ha! — dedi u qichqirib o'kirgan tovushni bostirib yuborish uchun — Muhtaram xaloyiq! Men hozir to'ppa-to'g'ri vokzaldan kelyapman! Buvim o'lib, menga meros qoldirib ketdi! Chemodan juda og'ir — ichida tilla bo'lsa kerak... Ha-ha! Birdan ichidan million so'm tilla chiqsa-ya! Hozir ochib qaraymiz...

Chemodanning qulfi shiqilladi. O'tkir nur Tyotkaning ko'zini qamashtirdi; u chemodandan sakrab chiqdi va guldiragan ovozlardan qulog'i batang bo'lib, xo'jayinning atrofida gir aylanib qattiq vovilladi.

— Ha! — deb qichqirdi xo'jayin. — Fedor Timofeich, tog'al! Qimmatli xolajon. Mehribon qarindoshlar, sizlarni qaranglar-a!

U qumga qorni bilan yiqilib mushuk bilan Tyotkani ushlab olib quchoqlay boshladi. Tyotka xo'jayinning quchog'ida turib, taqdir keltirgan bu yangi bir olamga ko'z yugurtirib chiqdi, bu olamning hashamatini ko'rib, avval hayratda, zavq ichida qotib qoldi, keyin esa egasining qo'ynidan otilib chiqib, taassurotning zo'rligidan pildiroq

singari gir-gir aylana boshladi. Bu yangi olam juda hashamatli va juda yorug' edi; qayerga qarama, hamma yoqda, yerdan tortib to shipgacha faqat odamlarning yuzi, yuzi, yuzi, boshqa hech narsa ko'rinmadi.

— Xolajon, marhamat, o'tiring! — deb qichqirdi xo'jayin.

Tyotka bu gapning ma'nosini esladi-da, irg'ib stulga chiqib o'tirdi. Keyin u egasiga qaradi. Uning ko'zi hamma vaqtdagidek, jiddiy va muloyim boqardi, ammo basharasi, ayniqsa og'zi va tishlari harakatsiz tabassumdan qiyshaygan edi. O'zi bo'lsa qah-qah urib sakrar, kaftini qoqar va minglab kishilar to'lgan bu yerda vaqti choq ekanini ko'rsatmoqchi bo'lardi. Tyotka uning quvonchiga chippa-chin ishondi, birdan minglab odamlarning o'ziga qarab turganini butun vujudi bilan his qildi-da, tulki tumshug'ini osmonga ko'tarib, shodlik bilan uvladi.

— Xolajon, siz o'tira turing, — dedi unga egasi, — biz tog'am bilan kamarinskayaga o'yin tushamiz.

Fedor Timofeich noma'qulchilik qilishni qachon buyurisharkan, deb kutib turar va beparvolik bilan atrofiga qarab qo'yardi. Uning dumidan, mo'ylovidan va harakatlaridan bo'shashib, qovog'ini solib, pala-partish o'ynashidan, to'plangan xaloyiqqa ham, o'tkir nurga ham, egasiga ham, hatto o'ziga ham tahqir ko'zi bilan qarayotgani bilinib turardi... O'z hissasini o'ynab bo'lgach, u esnadi va o'tirdi.

— Xo'-o'sh, xolajon, — dedi xo'jayin, — avval biz qo'shiq aytamiz, keyin o'yin tushamiz. Xo'pmi?

U cho'ntagidan surnaycha chiqarib chala boshladi. Tyotka chiyillashga chiday olmay betoqatlik bilan stulda tipirchiladi va uvladi. G'ovur va gulduros ko'tarildi.

Xo'jayin ta'zim qildi va gulduros tingach, yana chala boshladi. Muzika avjiga chiqqanda yuqorida o'tirganlardan allakimning «Voy» degani eshitildi.

— Dada! — deb qichqirdi bir bola. — Bu Kashtanka-kul!

— Ha, Kashtankaning o'zginasi! — deb tasdiqladi g'o'ldiragan ovoz bilan mast. — Kashtanka! Fedyushka xudo ursin agar. Kashtankaning o'zginasi. Ma, ma!

Allakim galereyadan turib hushtak chaldi, bir yosh bola va bir katta kishi baravariga:

— Kashtanka! Kashtanka! — deb chaqirdi.

Tyotka cho'chib tushdi va o'sha ovoz kelayotgan tomonga qaradi. Soqol bosgan, iljayib turgan mast basharaga va do'mboqqina, qizil yuzini qo'rquv bosgan bolaga ko'zi tushib, boya yorug' shu'laga duch kelgandagidek ko'zi qamasbdi...

U birdan o'tmishini esladi, stuldan yiqilib tushib, qumda pitprlab qoldi, so'ng quvonchidan vangillaganicha ular tomonga otildi. G'ovur va gulduros ko'tarildi. Ora-sira hushtak tovushi va bolaning:

— Kashtanka! Kashtanka! — deb qichqirgan ovozi eshilib turardi.

Tyotka g'ovdan sakrab o'tdi, keyin allakimning yelkasidan oshib o'tdi-da, lojaga chiqib qoldi: keyingi yarusga o'tish uchun baland devordan oshishi kerak edi; Tyotka bir sakradi, oshib o'tolmay devordan sirg'anib tushdi. Keyin u qo'ldan-qo'lga o'tdi, allakimlarning qo'li va yuzini yalab, tobora yuqoriga ko'tarilardi. Nihoyat galerkaga ham o'tdi...

Oradan yarim soat o'tgach, Kashtanka yelim va lak hidi keladigan kishilar ketidan ko'chada borardi. Luka Aleksandrich chayqalar va tajribada

ko'rib-bilib qolgani uchun ariqlardan nariroqda yurishga harakat qilardi.

— Gunohkor bandangman... — deb g'o'ldirardi u. — Sen bo'lsang Kashtanka — g'alatisan, duradgor bilan romsoz orasida qancha farq bo'lsa, sen bilan odam orasida ham shuncha farq bor.

Uning yonida otasining shapkasini kiyib olgan Fedyushka borardi. Kashtanka ularning orqasidan qarar, nazarida ularning ketidan ko'pdan beri ketayotgandek, ulardan hech qachon ajralmagandek, quvonch bilan borardi.

U devorga yopishtirilgan qog'ozlari kir bo'lib ketgan uyni, g'ozni, Fedor Timofeichni, mazali ovqatlarni, ta'limni, tsirkni eslar, lekin endi bularning hammasi uzundan-uzoq, chalkash, tashvishli tushdek tuyulardi.

Rus tiidan
H.Ahrorova
tavlimasi

ORDEN

Harbiy progimnaziyaning o'qituvchisi, kollejskiy registrator Lev Pustyakov do'sti poruchik Ledensovning yonidagi xonada istiqomat qilardi. Yangi yil kuni ertalab u xuddi shu Ledensovnikiga qadam ranjida qildi.

— Bilasanmi Grisha, — dedi u poruchikka odatdagicha yangi yil bilan tabriklagandan keyin. — Agar bir noiloj holga tushib qolmaganimda seni ham bezovta qilmoqchi emasdim. Bir kunga Stanislavingni berib tursang. Bugun savdogar Spichkinnikiga ziyofatga bormoqchiman. U ablahni o'zing bilasan, ordenni juda yaxshi ko'radi; agar bo'ynida yoki ko'kragida biron narsa osilib turmagan odamni ablah deyishdan ham toymaydi... Uning ustiga ikkita qizi bor... Taniysan-ku Nastya bilan Zinani... Tushundingmi aziz do'stim... Seni do'stim deb aytayapman... Beraqol, bir yaxshilik qil!

Pustyakov bu so'zlarni qizarinib, tutila-tutila aytarkan, xavotirlanib eshikka qarab-qarab qo'yardi. Poruchik oldin jerkib tashlasa ham, keyin ko'ndi.

Kunduz soat ikkida Pustyakov izvoshga tushib Spichkinnikiga ketarkan, po'stinining yoqasini sal ochib, ko'kragiga tikilib borardi, birov Stanislavingning zarhali yaltirar, emali tovlanar edi.

Pustyakov sovuqdan uvushib, o'ylab borar edi:

«Kishini naqadar olijanob ko'rsatadi! Ko'p bo'lsa besh so'mlikkina narsa-yu, kishini shunchalik sersavlat qiladi-ya».

Spichkinning hovlisiga yetgandan keyin, po'stinini ko'kragi ko'rinarli qilib ochib, izvoshchiga shoshilmasdan pul to'lay boshladi. Nazarida izvoshchi uning tugmalari, pogonlari va Stanislavini ko'rib og'zi ochilib qolganday bo'ldi. Pustyakov mag'rurona yo'talib olib, uyga kirdi. Dahlizda po'stinini yecha turib zalga qaradi. Ichkaridagi uzun stol atrofida o'tirgan o'n besh chog'lik kishi ovqatlanmoqda edi. Odamlarning g'ovur-g'uvuri, idish-tovoqlarning taqir-tuquri eshitilib turardi.

— Kim u? — degan ovozi eshitildi mezbanning.

— Iya, Lev Nikolaich-kul! Qani, marhamat, kiring. Biroz kechikdimgiz, hech qisi yo'q. Endi o'tirgan edik.

Pustyakov ko'kragini kerib, boshini yuqoriga ko'targancha qo'llarini bir-biriga ishqab zalga kirdi. Biroq kayfi uchib ketdi. Zinaning yonida o'zi bilan birga ishlaydigan fransuz tili o'qituvchisi Tramblyan o'tirar edi. Fransuz ordenni ko'rib qolsa qancha gap-so'z, sharmandalik... Butun obro' bir pul bo'ladi... Birdan uning boshiga ordenni uzib tashlash yoki qaytib chiqib ketish fikri keldi. Lekin orden puxta chatib qo'yilgan, chiqib ketishning ham endi iloji yo'q edi. Darrov o'ng qo'li bilan ordenni bekitdi, biroz qaddini bukib, o'ng'aysizlanibroq hammaga ta'zim qildi va hech kimga qo'l berib ko'rishmay bo'shashganicha xuddi o'sha fransuz ro'parasidagi bo'sh stulga o'tirdi.

«Kayfi bo'lsa kerak!» deb o'yladi Spichkin uning izza bo'lgan yuzini ko'rib.

Pustyakovning oldiga bir tarelka sho'rva keltirib qo'yishdi, u chap qo'li bilan qoshiqni oldi-

yu, lekin shunday kazo-kazolar oldida chap qo'llab ovqat yeb bo'lmasligini eslab, ovqat yeganini, qorni to'qligini vaj qildi.

— Qornim to'q... Rahmat... — deb g'o'ldiradi, u. — Amakim protoiyerey Yeleev aytdirib yuborgan ekanlar... Shu, qo'ymasdan ovqat yedirib yubordilar.

Yaxshi hidi gurkirab turgan sho'rva, ishtahani juda qitiqlaydigan, bug' chiqarib turgan dimlama baliq Pustyakovning yuragini ezib yubordi. U chap qo'li bilan ordenini bekitib o'ng qo'lini bo'shatmoqchi bo'lgan edi, bo'lmadi.

«Sezib qolishadi... Chap qo'lim ko'kragimda ko'ndalang tursa ashula aytmoqchi bo'layotganga o'xshab qolaman. E xudo, ziyofat tezroq tugay qolsa-chi! Biron oshxonaga borib ovqat yerdim.

Uchinchi ovqat tugagach u fransuzga ko'z qirini tashladi. Tramblyan ham negadir qizargan, Pustyakovga tikilganicha hech narsa yemasdan o'tiripti. Ko'z-ko'zga tushganda ikkovlari ham yana qattiqroq xijolat tortib, oldilaridagi bo'sh tarelkaga qarashadi.

«Sezdi ablah! Basharasidan ko'rib turibman sezganligini. Bu past, yana o'lguday mayda gap. Ertagayoq borib direktorga chaqadi!» deb o'yladi Pustyakov.

Mehmonlar va mezbonlar to'rtinchi ovqatni yeb, nasib qilgan beshinchi ovqatni ham yeyishdi...

Qirg'iy burnining keng kataklarini tuk bosgan, ko'z-lari qisiqdan kelgan novcha bir janob o'rnidan turdi. U sochlarini silab turib xitob qildi:

— X-x-xo'sh... chunonchi... shu... shu yerda hozir bo'lgan xonimlarning gul-gul ochilishlari uchun ko'taraylik! — Mehmonlar o'rinlaridan duv turib qadahlarini qo'llariga olishdi. Butun xonalar

bo'ylab qattiq «ura» sadosi jaranglab eshitildi. Xonimlar iljayishib, qadahlarini urishtirmoq uchun uzatishdi. Pustyakov ham o'rnidan turib, ryumkasini chap qo'li bilan oldi.

Erkaklardan biri unga murojaat qilib, qadahda ichkilik uzatdi:

— Lev Nikolaich, sizga xizmat bo'lsa ham, shuni Nastasya Lvovnaga uzatib yuboring. Bir iloj qilib o'sha kishiga ichiring! — dedi u.

Pustyakovga ko'p malol kelgan bo'lsa ham majburan o'ng qo'lini ishga soldi. Nihoyat, lentasi g'ijimlangan Stanislav chiroqda yaltirab ketdi. O'qituvchining rangi o'chib, boshini egdi va yer tagidan sekingina fransuzga qaradi. U hayron bo'lib Pustyakovga tikilgancha qoldi. So'ngra lablarida tabassum paydo bo'lib, yuzidagi xijolat va xomushlik asta tarqala boshladi...

Shu payt uy egasi fransuzga shisha uzatib:

— Yuliy Avgustovich! Shuni o'sha yoqqa uzatib yuboring, — deb iltimos qilib qoldi.

Tramblyan istar-istamas zo'rg'a o'ng qo'lini shishaga uzatgan edi... oh qanday baxt! Pustyakov uning ko'kragidagi ordenni ko'rdi. Yana unda Stanislavgina emas, butun boshliq Anna ekan. Demak fransuz ham muttahamlik qilgan ekan! Pustyakov xursandligidan kulib yubordi va stulga bermalol yalpayib o'tirib oldi... Endi ordenni yashirishning nima hojati bor! Ikkalovi ham bir xil gunoh qilibdi. Endi kim borib chaqadi, kim sharmanda qiladi. Spichkin muallim ko'kragidagi ordenni ko'rib:

— Ehe, — deb qo'ydi.

— Qarang, Yuliy Avgustovich! — dedi Pustyakov, — juda qiziq ish-al! Bayramdan oldin bizdan ko'rsatilganlar juda kam bo'ldi deyman! Bo'lmasa

qancha odam bor edi. Faqat siz-u menga tegipti-da, hayron qoladigan ish-al

Tramblyan suyunib ketdi va bosh irg'atib 3-daraja Anna osilib turgan qaytarma yoqaning chap tomonini oldinroqqa chiqardi.

Dasturxon yig'ilgandan keyin Pustyakov uyma-uy yurib qizlarga ordenni ko'rsatdi. Qorni och bo'lsa ham kayfi chog' edi.

U orden haqida Spichkin bilan so'zlashib turgan Tramblyanga rashki kelib: «Voy attang shunaqaligini bipganimda-chi, naq Vladimiri taqib kelmasmidim, esizgina, esimga kelmapti-da» deb o'zidan koyindi.

Faqat ana shu fikr uni qiynamoqda edi. Boshqa jihatdan esa u o'zini butunlay baxtiyor deb sezardi.

***Rus tilidan
Zumrad
tarjimasi***

SEMIZ VA ORIQ

Nikolayev temir yo'lining vokzalida ikki oshna uchrashib qoldi. Biri semiz, biri oriq. Semiz hozirgina vokzalda ovqat yegan — yog'liq labi pishgan olchaday yaltirab turibdi. Undan xeres vinosi va flerd oranje degan atirning hidi kelar edi. Oriq esa vagondan hozirgina tushgan va chemodan, tugun, kartonlar ko'tarib olgan edi. Undan vetchina va qahva hidi kelar edi. Uning orqasida oriq, cho'ziq yuzli xotini, qisiq ko'zli novcha gimnazist o'g'li turibdi.

— Porfiriyl! — dedi semiz, oriqni ko'rib. — Senmisan! Bo'talog'im! Necha-necha yoz, necha-necha qishlar o'tib ketdi!

— El! — dedi oriq hayron qolib. — Mishal Birodarim! Qadrdonim. Xo'p eson-omon bormisan?

Oshnalar qayta-qayta, uch marta, og'iz-burun o'pishgandan keyin ko'zlariga yosh olib tikilishdi. Ikkovi ham o'zida yo'q xursand bo'lib dovdirab qoldi.

— Azizim! — dedi oriq og'iz-burun o'pishgandan keyin. — Buni qara-ya! Xo'p uchrashib qoldik-da! Qani menga tuzukroq qarachi! Hali ham o'sha ilgarigidek, chiroyliksan-a! Hamon o'shanday jonon, olifta! Obbo sen-ey! Xo'sh qalaysan? Boyidingmi? Xotin oldingmi? Men uylandim, mana... Bu xotinim, Luiza Vantsenbax... Lyuteran mazhabida... Bu esa o'g'lim Nafanail, uchinchi klassda o'qiydi...

Nafanail, bu kishi mening qadrdon do'stim! Gimnaziyada birga o'qiganmiz.

Nafanail biroz o'ylab turib, shapkasini bosbidan oldi.

— Gimnaziyada birga o'qiganmiz, — dedi oriqlar davom etib. — Esingda bormi, seni nima deb kalaka qilishardi? Hukumat kitobini papiros bilan kuydirganing uchun seni Gerostrat¹ deb kalaka qilishar edi. Men chaqimchi bulganim uchun Efialt² deb kalaka qilishardi. Ha-ha... Bola edik! Tortinma, Nafanya! Yaqinroq kel... Bu mening xotinim Vantsenbax... O'zi lyuteran...

Nafanail biroz o'ylab turib, o'zini otasining orqasiga oldi.

— Xo'sh, ishlar qalay, do'stim? — dedi semiz, do'stiga nazar tashlab. — Biron joyda xizmat qilasanmi? Kattaroq amalga mindingmi?

— Xizmat qilaman, do'stim! Ikki yildan beri kollejskiy asessorman, Stanislav³ oldim. Maoshning mazasi yo'q... Sadqaiysar-kuya! Xotinim muzika darsi beradi, men uyda yog'ochdan portsigar qilib sotaman. Juda g'alati portsigarlar yasayman. Bittasi bir so'm. Ulgurji oladigan odamga arzonroq qilib beraman. Sababi tirikchilik-da. Departamentda xizmat qilar edim, shu mahkama bo'yicha bu yoqqa isblar mudiri bo'lib keldim... Shu yerda xizmat qilaman. Xo'sh, senci? Statskiy sovetnik bo'lgandirsan, deyman? A?

¹ Gerostrat — yunon afsonasining qahramoni. Nom chiqarish uchun ma'buda Diananing ibodatxonasiga o't qo'ygan.

² Efialt — afsona qahramoni. U Eron qo'shiniga tog'dan o'tgani yo'l ko'rsatib, vatandoshlariga xiyonat qilgan.

³ Stanislav — orden.

— Yo‘q, azizim, yuqoriroqdan kelaver, — dedi semiz. — Men tayniy sovetnik bo‘lib qoldim... Ikkita Yulduzim bor.

Birdaniga oriqlarning rangi oqarib ketdi, toshday qotib qoldi, lekin sal o‘tmay yuzi tarvayib, kuydirgan kalladay irjaydi; xuddi yuz-ko‘zidan uchqunlar yog‘ilayotganga o‘xshar edi. O‘zi qo‘nishdi, bukchaydi... chamadoni, tuguni va kartonlari ham burishib qolganday bo‘ldi... Xotinining cho‘ziq yuzi yana ham cho‘zildi; Nafanail g‘oz turib, mundirining hamma tugmalarini soldi...

— Men janobi oliylari... Ko‘p yaxshi!.. Bolaligingdan beri do‘st bo‘lib yurgan kishing shugday martabaga yetsa! Hi-hi!

— Qo‘ysangchi! — dedi semiz aftini burishtirib. — Bu gaplarning nima keragi bor? Birga, ko‘rpa tepishib katta bo‘lgan odamlarmiz, muncha ehtirom-u qo‘l qovushtirishning nima keragi bor!

— Qo‘l qovushtirmasdan bo‘lar ekanmi... Nainki... — dedi oriqlar yana ham qo‘nishib, janoblarning nazari marhamatlari!.. Go‘yoki obihayot... Bu janobi oliylari, o‘g‘lim Nafanail... xotinim Luiza, lyuteran, bir daraja...

Semiz unga qarshi nimadir demoqchi edi, uning yuzidagi ortiq darajada bo‘lgan mutelik, xoksorlik alomatlari ensasini qotirib yubordi. U o‘girilib, xayrlashgani qo‘l uzatdi.

Oriqlar butun vujudi bilan ta‘zim qilib xayrlashdi va xitoydan hi-hiladi. Xotin iljaydi. Nafanail tovoni bilan qadam tashlayman deb shapkasini qo‘lidan tushirib yubordi. Uchchovi ham o‘zida yo‘q xursand edi.

***Rus tilidan
Abdulla Qahhor
tarjimasi***

SPRAVKA

Tush payti edi. Sochlari qirilgan, ola ko'z, novcha bo'yli, yo'g'on gavdali pomeshchik Voldirev paltosini yechdi, shoyi ro'molcha bilan peshonasini artdi-da, qo'rqa-pisa mahkamaga kirdi. Perolar g'ichirlar edi...

— Men spravkani qayerdan olsam bo'ladi? — deb so'radi u mahkamaning ichkarisidan stakanlar qo'yilgan patnis ko'tarib chiqayotgan shveytsarga qarab. — Men bu yerdan surishtirib bilishim va daftardagi qarordan kopiya olishim kerak.

— Marhamat qiling, u yoqqa! Ana, deraza yonida o'tirgan kishiga! — dedi shveytsar, qo'lidagi patnis bilan chetdagi derazami ko'rsatib.

Voldirev yo'talib qo'yib, derazaga tomon yo'l oldi. U joyda, tif kabi ko'kish, serdog' stolda boshida to'rtta kokilchasi bor, bo'jama toshgan uzun burunli va mundiri o'ngigan yosh bir amaldor o'tirgan edi. U burnini qog'ozga nuqab, xat yozmoqda. Burnining o'ng tomondagi teshigi oldida pashsha o'rmalab yurganidan pastki labini cho'zib, burnining tagiga puflab-puflab qo'yadi, shunda uning basharasi tashvishli ko'rinadi.

— Men bu yerda... Sizdan, — dedi unga Voldirev, — o'z ishim to'g'risida spravka olsam bo'ladimi? Men Voldirev bo'laman... Aytmochi,

daftarga ikkinchi martda yozilgan qarordan kopiya olishim kerak.

Amaldor peroni siyohdonga botirib oldi-da, qancha siyoh olganiga qaradi. Perodagi siyoh qog'ozga tommasligiga qanoat hosil qilgach, yana g'ichirlatishga kirishdi. Uning labi cho'zildi, ammo bu gal pashsha uning qulog'iga borib qo'nganidan, puflashning keragi bo'lmay qoldi.

— Men bu yerdan spravka olsam bo'ladimi? — deb takrorladi bir minutdan keyin Voldirev. — Men zamindor Voldirev bo'laman...

— Ivan Alekseich! — deb qichqirdi chinovnik osmonga qarab, go'yo Voldirevni sezmaganday. — Savdogar Yalikovga ayting, kelishida arizasining kopiyasini politsiyadan tasdiqlatib kelsin! Unga ming marta aytdim.

— Men knyagina Gugulinaning vorislariga qilgan da'vom to'g'risida kelgan edim, — deb to'ng'illadi Voldirev. — Bu ma'lum ish! O'tinib so'rayman, mening ishimni bitirib yuboring.

Amaldor Voldirevning borligini hamon payqamay, labidan bir pashshani tutib olib, unga tikilib qaradi va tashlab yubordi. Pomeshchik yo'talib qo'ydi va katak ro'molchasiga burnini qattiq qoqdi. Biroq bu ham foyda bermadi. Unga hamon hech kim e'tibor etmadi. Ikki minutcha jimlik hukm surdi. Voldirev cho'ntagidan bir so'mlik qog'oz pulni olib, chinovnikning oldida ochiq turgan kitobning ustiga qo'ydi. Amaldor peshonasini tirishtirib, bezovtalik bilan kitobni tortdi-da, yopib qo'ydi.

— Kichikkina bir spravka... Men faqat bilishnigina istar edim, knyagina Gugulinaning jorislari qanday asosga muvofiq... Sizni bezovta qilsam maylimi?

Amaldor esa, o'z ishi bilan band bo'lgani holda, o'rnidan turdi-da, keyin tirsagini qashib, negadir, shkafga qarab bordi. U bir pasdan keyin stoliga qaytib keldi va yana kitobga tutunar ekan, uning ustidagi bir so'mlikka ko'zi tushdi.

— Men sizni bir minutgina bezovta qilaman... Menga spravka berish kerak, xolos...

Amaldor eshitmadi, u nimanidir ko'chirishga tutindi.

Voldirev aftini burishtirib qo'ydi va peroni g'ichirlatayotganlarga umidsizlik bilan qarab:

«Yozishyapti! — deb o'yladi chuqur nafas olib, — yozishyapti joning chiqqurlar!»

U stoldan uzoqlashib, xonaning o'rtasiga bordi, umidini uzib, qo'llarini yoniga tashladi-da, to'xtadi. Yana stakanlarni ko'tarib o'tayotgan shveytsar uning avzoyini ko'rди-da, yaqin kelib:

— Qani, nima bo'ldi? So'radingizmi? — dedi.

— So'radim, ammo men bilan gaplashgisi kelmayapti.

— Siz unga uch so'm bering... — deb shivirladi shveytsar.

— Men ikki so'm berdim.

— Siz yana bering.

Voldirev stolning yoniga qaytib bordi-da, ochiq turgan kitobning ustiga yashil uch so'mlikni qo'ydi.

Amaldor kitobni yana tortdi va uni varaqlay boshlab, go'yo to'satdan, yalt etib Voldirevga ko'z tashladi. Uning burunlari yaltirab, qizarib ketdi va iljayib:

— Xo'sh... xizmat? Buyuring! — dedi.

— Men o'z ishim to'g'risida spravka olmoqchi edim. Men Voldirev bo'laman.

— Juda soz! Gugulinskiyning ishi yuzasidan bo'lsa kerak-da? Juda yaxshi! Unday bo'lsa, o'zlariga nima kerak?

Voldirev unga iltimosini aytdi. Amaldor jonlanib, go'yo shamolday yelib ketdi. U spravkani yozib uzatdi, qarordan kopiya berishni buyurdi. Iltimoschiga stul ham qo'yib berdi. Bu ishlarning hammasi ko'z ochib yumguncha bajarildi. Amaldor u bilan hatto obihavo to'g'risida gaplashdi, hosilning qanday bo'lganini so'radi. Voldirev qaytib ketayotganda uni zimapoyadan pastgacha kuzatib ham qo'ydi. Unga xushomadgo'ylik bilan tabassum qilib, qanday ish buyursa, qulluq qilib, bajarishga o'zini tayyordek ko'rsatdi. Voldirev negadir noqulay ahvolga tushdi, iyib ketganidan cho'ntagidan darrov bir so'mlik qog'ozni olib, amaldorga uzatdi. Amaldor esa, tabassum bilan ta'zim qildi va xuddi nayrangboz singari, pulni shunday tez oldiki, pul havoda yilt etib ko'rinib qoldi.

— «He, satqai odam...» — deb o'yladi pomeschik ko'chaga chiqib» to'xtab, ro'molcha bilan peshonasini artdi.

***Rus tilidan
S.Ibrohimov
tarjimasi***

CHINOVNIKNING O'LIMI

So'lim oqshomlarning birida xuddi shunday so'lim ekzekutor Ivan Dmitrich Chervyakov kreslolarining ikkinchi qatorida o'tirib, durbin orqali «Kornevilskiye kolokola» degan spektaklni tamosha qilardi. U sahnaga qarab, o'zini eng rohatda o'tirgan his qilardi. Lekin birdaniga... Hikoyalarda «lekin birdaniga» so'zi tez-tez uchrab turadi. Avtorlar shunday deyishga haqli, chunki hayotda tasodifiy hodisalar juda ko'p! Lekin, birdamiga uning yuzi burishdi, ko'zlari olaydi, nafasi to'xtadi... U ko'zidan durbinni oldi, engashdi va... apishu!!! Ko'rib turibsizki, chuchkurdi, chuchkurishpppg aybi yo'q. Mujiklar ham chuchkuradi, politsmeysterlar, ba'zan hatto tayniy sovetniklar ham chuchkuradi. Hamma chuchkuradi. Chervyakov hechqancha hijolat bo'lmadi, ro'molchasi bilan og'zi burnini artdi va odobli odam bo'lgani uchun chuchkurganim birovga malol kelmadimikan deb atrofiga qaradi. Mana shunda hijolat bo'lib qoldi. Qarasa oldida o'tirgan chol perchatkasi blan tepakal boshini, bo'ynini artib, do'ng'illayotipti. Chervyakov cholni tanidi: bu chol statskiy general Brizjalov bo'lib, temir yo'l mahkamasida xizmat qilardi.

«Men unga tupuk sachratdim,— deb o'yladi Chervyakov. Mening boshlig'im emas, begona, shunday bo'lsa ham yaxshi emas, afv so'rash kerak».

Chervyakov yo'taldi, biroz oldinga engashib generalning qulog'iga pichirladi:

— Kechiring, janobi oliylari, beodobchilik bo'ldi... Men hilmasdan...

— Mayli, mayli...

— Xudo haqi, kechiring. Axir men... Qandoq qilay...

— Xudo haqi, kechiring. Axir men... o'zimga qolsa shundoq bo'lsin depmanmi!

— Obbo, tek o'tirsangizchi, azbaroyi xudo! Qo'ying, eshitaylik!

Chervyakov xijolat bo'ldi, iljaydi va sahnaga qaradi. U sahnaga qararkan, endi rohat qilolmay qoldi. Uning yuragi g'ash bo'la boshladi. Antrakt vaqtida Brizjalovga yaqin keldi, uning oldida biroz yurdi va o'zini dadil tutib g'o'ldiradi:

— Men sizga bilmasdan tupuk sachratdim, janobi oliylari... Kechiring... Axir men... Nainki...

— E, qo'ysangiz-chi... Men allaqachon esimdan chiqarib yubordim-u, siz hali ham o'sha gapni gapirib yuribsiz! — dedi general va tajang bo'lib pastki labini qimirlatdi.

«Ko'zlari qonga to'lib turibdi-yu, tag'in esidan chiqqan emish, — deb o'yladi Chervyakov, generalga shubha bilan qarab. — Gapirgisi ham kelmaydi. Unga tushuntirishim kerak, o'zimga qolsa... Bu tabiat qonuni, axir. Tushuntirmasam menga tupurdi deb o'ylaydi. Hozir o'ylamasa, keyin o'ylaydi!».

Chervyakov qilgan adabsizligini uyiga kelib, xotiniga gapirib berdi. Chervyakovning fahmicha xotini bu voqeaga yengiltaklik bilan qaradi: u faqat qo'rqib ketdi-yu, Brizjalov erining nachalnigi emasligini bilganidan keyin, ko'ngli joyiga tusha qoldi.

— Shunday bo'lsa ham borib uzr so'ra, — dedi u. — Bo'lmasa xalq orasida o'zini tutolmas ekan, deb o'ylaydi!

— Mana shunisi bor-da! Men uzr so'radim, lekin hayronman... Bir og'iz ham durust gap aytmadi. Gaplashishga fursat ham bo'lgani yo'q.

Ertasi kuni Chervyakov yangi vitsmundirini kiydi, sochini oldirdi va izoh bergani Brizjalovning oldiga ketdi... Generalning qabulxonasida arzga kelgan bir muncha odam o'tirgan ekan. General arz so'ramoqda edi. U bir necha kishidan arz so'rab bo'lib, Chervyakovga qaradi.

— Kecha, janobi oliylari, agar eslarida bo'lsa, — deb so'z boshladi ekzekutor, — men «Arkadiya»da chuchkurdim... Bilmasdan janobi oliylariga tupuk sachratdim... Kechira...

— Shu ham gap bo'ldi-yu... Tavba! Sizning nima arzingiz bor? — dedi general navbatdagi kishiga.

«Gapirgisi ham kelmayapti, — deb o'yladi Chervyakov rangi o'chib, — xafa bo'libdi... yo'q, ko'nglidan chiqarmasam bo'lmaydi... Tushuntiraman...»

General odamlardan arz so'rab bulgandan keini ichkari uyga kirib ketayotgan edi. Chervyakov uning ketidan ergashib g'o'ldiradi:

— Janobi oliylari! Agar janoblarini bezovta qilishga haddim sig'sa, faqat pushaymonligimni izhor qilish vajidan deb bilasiz!.. o'zlariga ma'lum, jo'rttaga qilganim yo'q!

General aftini burishtirib, qo'l siltadi va ichkariga kirib ketar ekan:

— Siz meni kalaka qilayotibsiz, muhtaram afandi, — dedi.

«Kalaka nimasi! — dedi ichida Chervyakov. — Mening hech bunaqa niyatim yo'q! General bo'la

turib, shuni bilmaydi-ya! Bunaqa bo'lsa men bu takabburdan uzr so'rab o'tirmayman! Ming la'nat! Xat yoza qolaman, endi kelib yurmayman. Xudo ursin, kelmayman!»

Chervyakov uyga ketayotib shuni ko'nglidan kechirdi. U generalga xat yozmadi. O'ylab-o'ylab nima deb yozishni bilmadi. Ertasiga yana generalning oldiga borishga to'g'ri keldi.

— Men kecha kelib sizni bezovta qilgan edim, janobi oliylari, — dedi u general boshini ko'tarib unga qaraganda. — Siz aytmoqchi, men kalaka qilganim yo'q. Sizga uzr aytgani kelgan edim. Kalaka qilish xayolimga ham kelgan emas. Nahot, kalaka qilgani haddim sig'sa? Agar biz kalaka qiladigan bo'lsak u vaqtda, demak, ulug'larda hurmat qoladimi.

— Yo'qol! — deb baqirdi birdaniga general ko'karib, titrab-qaqshab.

— A? — dedi angrayib qolgan Chervyakov sekin.

— Yo'qol!! — deb qichqirdi general yana, yer tepinib. Chervyakovning qornida nimadir uzilib ketdi. U hech nimaga qaramay, hech nimani eshitmay, eshikkacha tisarilib bordi, ko'chaga chiqib, jo'nab qoldi... Uyiga qanday borganini ham bilmay, vitsmundirimi ham yechmay, divanga yotdi-yu... o'lib qoldi.

***Rus tilidan
Abdulla Qahhor
tarjimasi***

YOMON BOLA

Istarasi issiq, yosh Ivan Ivanich Lapkin va burni qanqaygan, yosh qiz Anna Semyonovna Zamblitskaya pastga, tik tushib boradigan qirg'och bo'yidagi kursiga o'tirdilar. Kursi suvga yaqin, quyuq majnuntollar orasida edi. Ajoyib joy! Sizni faqat baliqlar va suv yuzida suzadigan o'rgimchaklar ko'rib turibdi-xuddi olamdan bekinganday o'tiribsiz.

Boshqalar ham baliq ovlash uchun qarmoqlar, matraplar (to'r) bilan qurollanib kelishgan. O'tirgach, ular ham baliq ovlashga kirishdilar.

– Men yolg'iz qolganimizdan xursandman, – u yoq bu yoqqa qarab gap boshladi Lapkin. – Men sizga ko'p narsalarni aytishim kerak, Anna Semyonovna... juda ko'p narsalar... Sizni birinchi marta ko'rganimda... Qarmog'ingizga ilindi...

– Men o'shanda ko'nglim orzusi kim ekanligi va men hayotimni kimga bag'ishlashim kerakligini angladim... Qarmog'ingizga ilindi, shekilli... sizni ko'rib, birinchi marta zo'r ehtiros bilan sevib qoldim! Tortmay turing, yaxshiroq ilinsin... Azizim, ayting, yolvorib so'rayman, men balki arzimasman, lekin sizni muhabbatingizga umid qilsam bo'ladimi? Torting!

Anna Semyonovna qarmoqni baland ko'tarib, itqitdi va baqirib yubordi.

– Voy, xudoyim, olabug'a! Tez! Chiqib ketadi...

Olabug'a qarmoqdan chiqib, bir sakradi-yu, yana o'zining qadrdon muhitiga sho'ng'ib ketdi.

Baliq izidan yugurgan Lapkin, bexosdan baliq o'rniga Anna Semyonovnaning qo'lidan tortib, bag'riga bosib o'pa boshladi. Anna siltanib o'zini tortdi, ammo kechikdi: lablar birlashdi.

Bo'sa izidan bo'sa, va'dalar, ishontirishlar... Baxtli onlar! Qolaversa, yer yuzida mutlaq, to'liq baxtning o'zi yo'q. Baxt, odatdagidek o'zini o'zi zaharlashi yoki o'zga ta'sir orqali zararlanishi mumkin. Mana bu marta ham xuddi shunday bo'ldi. Yoshlar o'pishayotgan vaqtda, kimningdir kulgani eshitildi. Ular daryoga qarab, qotib qoldilar: beligacha suvga botgan yalang'och bola ularga qarab turardi. Bu Anna Semyonovnaning gimnaziya o'qiydigan ukasi Kolya edi. U ularga istehzoli kulib qarardi.

– A-a-a... O'pishayapsizlarmi? Juda yaxshi. Oyimga aytib beraman.

– O'ylaymanki, siz halol inson sifatida... qizarib, bo'zarib po'ng'illadi Lapkin, -poylash razillik, aytib berish pastkashlik, ablahlik ekanini bilsangiz kerak. Siz oliyjanob inson...

– Pul bering, aytmayman!-dedi «oliyjanob» inson. – Bo'lmasa, aytaman.

Lapkin cho'ntagidan pul olib, Kolyaga uzatdi. U esa pulni nam mushtida g'ijimlab, hushtak chaldi-yu, sho'ng'ib ketdi. Shundan so'ng yoshlar qayta o'pishmadilar.

Keyingi kun Lapkin Kolyaga shahardan koptok va bo'yoqlar olib keldi, opasi esa dorilardan bo'shagan qutichalarni berdi. Keyin esa itning tumshug'i tasviri tushirilgan zaponka (ilmatugma) sovg'a qildilar. Yomon bolaga, albatta, bularning hammasi yoqardi, shu sabab bundan ham ko'proq narsa olish uchun, u yana kuzata boshladi. Bir daqiqa ham ularni yolg'iz qoldirmasdi.

– Yaramas! – derdi Lapkin tishlarini g‘ichirlatib. -O‘zi kichkina-yu, lekin katta ablah! Kelajakda undan kim chiqadi?!

Iyun davomida Kolya sevishganlarni holi-joniga qo‘ymadi. U aytib berish bilan qo‘rqitar, kuzatar, sovg‘alar talab qilar va bularning hammasi unga oz ko‘rinar, axiyri cho‘ntak soatda to‘xtadi. Nima qilibdi! Olib berishga va‘da berdilar.

Bir kuni tushlikda dasturxonga vafli tortilganda, Kolya xoholab, Lapkinga bir ko‘zini qisdi-da:

– Aytaymi, -a? – dedi.

Lapkin qizarib, sarosimada vafli o‘rniga sal-fetkani chaynab yubordi. Anna Semyonovna sapchib, boshqa xonaga yugurib ketdi.

Mana shunday sharoitda ular avgust oxirigacha, nihoyat, Lapkin Anna Semyonovnaning qo‘lini so‘ragunga qadar yurdilar. O, bu qanday baxtli kun edi! Qizning ota-onasi bilan gaplashib, ularning roziligini olgach, Lapkin, avvalo, bog‘ga yugurdi va Kolyani izlay boshladi. Uni topgach, zavqdan baqirib yuborishiga oz qoldi – yomon bolaning qulog‘idan tortqilay boshladi. Shu vaqt Kolyani izlab yurgan opasi ham kelib, ikkinchi qulog‘idan tortdi. Sevishganlar yuzidagi lazzatni so‘z bilan ta‘riflash qiyin. Kolya yig‘lab, yolvorardi:

– Azizlarim, mehribonlarim, endi yomonlik qilmayman! Kechiringlar!

Keyinchalik ular shu vaqtgacha bir-birlarini yaxshi ko‘rib yurgan paytda ham bunaqangi baxt, bunaqangi huzurbaxsh holatni, ya‘ni yomon bolaning qulog‘ini tortishdek huzurni his qilmaganliklariga iqror bo‘ldilar.

***Rus tilidan
A. Hayitqulova
tarjimai.***

ALBION QIZI

Gryabov degan mulkdorning uyi yoniga rezina shinali, barqut o'rindiqli, semiz kucherli yangi kolyaska kelib to'xtadi. Kolyaskadan uyezd dvoryanlarining yo'lboshchisi Fyodor Andreich Ottsov sakrab tushdi. Dablizda uni uyqusiragan eshikbon kutib oldi.

— Janoblar uydami? — deb so'radi yo'lboshchi.

— Yo'qlar. Boyvuchcha xonim bolalarni olib mehmonga ketganlar, boy otamiz tarbiyachi mamzel bilan ertalabdan beri baliq tutyaptilar.

Ottsov bir muddat o'ylanib turdi, so'ng Gryabovni izlab daryo bo'yiga ketdi. Uni qo'rg'onidan ikki chaqirim naridan topdi. Daryoning tik qirg'og'idan pastga qarab Gryabovni ko'rdiyu kulib yubordi... Norg'ul, semiz, kallasi naq xumday keladigan Gryabov qumloq sohilda chordona qurib o'tirgancha baliq tutardi. Shlyapasi ensasiga o'tib ketgan, galstugi yonga qiyshaygan. Mulkdorning yonginasida ko'zlari qisqichbaqaning ko'zlariday chaqchaygan, burni burundan ko'ra qarmoqqa ko'proq o'xshab ketadigan qushtumshuq, novcha, ozg'in ingliz ayol tik turardi. Ayol dokasifat matodan oq ko'ylak kiygan, ko'ylak ostidan sarg'ish ustixonlari ro'y-rost sezilib qolgan edi. Belidagi tillarang kamariga tilla soatcha taqib olib, qarangki, u ham baliq tutardi. Atrof suv quyganday jim. Ikkisining

ham yuzi qarmoq po'kaklari qalqib turgan daryo sathiday osoyishta.

— Ishqi zo'r-u, ishqihozligi og'ir! — deb kuldi Ottsov. — Salomat bormisan, Ivan Kuzmich?

— Ha-a... senmisan? — dedi Gryabov suvdan ko'z uzmay. — Kelgan ekansan-da?

— Yo'limiz tushib... Haliyam shu bema'ni odatingni tashlamabsan-a? Zerikmadingmi?

— E, padariga la'nat... Kun bo'yi, naq nahordan beri shu yerdaman... Bugun nimagadir ovim o'ngmayapti. Men ham, manavi ta'viya-taraqqs ham hech narsa tutolmadik. Haykalday qotib o'tiribmiz, lekin ilinsa qani! Dodlab yuboray deysan.

— Haliyam tupur shu ishlingga! Yur, borib aroq ichamiz!

— Shoshma... Balki biror nima ilinib qolar. Kechga borib baliq xo'rakka o'ch ho'ladi... Shu desang, birodar, saharbardondan beri shu joyda o'tiribman. Yorilib ketay dedimki, hech naryog'i yo'q... Qaysi jin chaldiyu men shu dardga muftalo bo'ldim! It kuni, degim, bo'lmag'ur ishligini o'zim ham bilaman, lekin o'tiraveraman, jilolmayman. Yurgan bir kazzobday, degin, shu og'ir jazoga mustahiq ekanmanki, suvga qarab, ahmoq bo'li-ib o'tiribman!.. Beda o'rimiga borishim kerak asli, lekin men baliq ushlayapman. Kecha Xaponevo qishlog'iga pop hazratlari kelib va'z aytibdilar, o'shanga ham borolmadim, kechgacha manavi dudlangan baliqning yonida qarmoq tashlab o'tirdim.

— Hoy, aqldan ozdingmi sen? — dedi Ottsov ingliz ayoldan uyalib. — Xonimning yomida so'kinasan? Yana uning o'zini...

— E, onasi o'lsin! So'ksang-so'kmasang — bir pul, baloni ham tushunmaydi. Maqtaysanmi,

onasini axtarasanmi, bunga baribir. Burniga qara, burniga! Burnini ko'riboq hushing og'adi! Shu yerda uzzukun birga o'tiramiz, miq etib og'iz ochsa qani! Ro'dapo qo'riqchiday qaqqayib turaveradi, tushini suvga aytadimi, nima balo!..

Ingliz ayol homuza tortib, qarmog'iga chuvalchang ildi-da, yana suvga tashladi.

— Hayratimga til ojiz, birodar! — deya so'zini davom ettirdi Gryabov. — Bachchag'ar Rossiyada o'n yil yashabdi hamki, birorta ruscha so'zni o'rganmabdi!.. Bizning zodagonchalardan birortasi bularning yurtiga borsa bas, ikki kunda inglizning tilida chuldirab ketadi, bular esa... E, onasi o'lsin! Sen buning burniga qara! Burniga qara buning!

— Bo'ldi qilaqol... Uyat bo'ladi... Xotin kishini malomat qilish yaxshimas.

— Xotin emas bu, hali qizgina... Ko'ngilginasi kuyov tusab turgan bo'lsalar ham ajabmas. Bilsang, turish-turmushidan chirik hidi kelayotganday... Eh, birodar, ko'rgani ko'zim yo'q buni! Ko'zlarini chaqchaytirib bir qarasa bormi, ko'nglim ag'darilay deydi, go'yo tirsagimni toshga urib olganday bo'laman. Buyam baliq ovlaganini aytmaysanmi. Qara, qimir etmaydi, baliq tutayotgani yo'q, ibodat qilyapti. Hammaga tepadan qaraydi, puf-sassiq, deb burnini jiyiradi... Turishiga qara buning, o'z ko'nglida, men ham odamman, demak, tabiat podshosiman, deb xayol qilsa kerak-da, a? Sen buning oti nimaligini bilasanmi? Uilka Charlzovna Tfays! Tuf-e!.. Tiling ham kelishmaydi!

Ingliz ayol o'zining ismini eshitib, Gryahov tomonga tumshuq burdi, uni boshdan-oyoq tahqirli bir nazar bilan ko'zdan o'tkazdi. Keyin Gryabovni qo'yib, Ottsovg'a qaradi, bunisiga ham nafratini

bildirgan bo'ldi. Bir so'z demay, kibru viqoru salobat bilan qaradi.

— Ko'rdingmi? — dedi Gryabov xoxolab kulgancha. — Mana, pishirib ye, demoqchi bo'lyapti. Hu sendaqa tāsqaranil.. Bolalarning g'amini yeymanda, bo'lmasa, bunaqa kaltakesakning dumini allaqachon tugib qo'yardim-a! Shu bolalarni o'ylamasam, qo'rg'onimdan o'n chaqirim naridan o'tardi-ya... Burni naq qirg'iyning tumshug'iga o'xshaydi... Belichi? Beli yo'q buning, tik turgan mixning o'zginasi. Bilsang, birodar, o'zimga qolsa, shundoq olardimu yerga qoqib kiritib yuborardim. Shoshma-chi... Po'kak qimirladi, baliq aylanganga o'xshaydi...

Gryabov o'rnidan sakrab turdiyu qarmoqni tortdi. Ip tarang tortildi... Gryabov yana bir silkitdi, lekin qarmoq chiqmadi.

— Ilinib qoldi, — dedi u aftini burishtirib. — Toshga ilinib qoldi-yov... Jin ursin...

Gryabovning yuzida iztirob ko'rindi. Uh tortib, notinch kuymalanib, so'kishu qarg'ishni qalashtirib, qarmoq ipini tortib ko'rdi. Lekin qarmoq chiqavermadi. Gryabovning yuzi bo'rday oqarib ketdi.

— Savil qolsm! Endi suv kechishga to'g'ri keladi.

— Suv kechib yurasanmi, qo'y bu ishingni!

— Aytaverasan-da, birodar. Kechki payt baliq zo'r tutiladi... Endi, shu joyda ishning chappa ketganini! Suvga tushamiz endi. Boshqa iloj yo'q! Yechingim kelmayapti, hech yechingim kelmayapti... Manavi inglizingni ketkizish kerak. Bu turganda yechinib bo'larmidi. Harna, ayol oti bor buning ham!

Gryabov shlyapasi bilan galstugini yechdi.

— Miss... Xo'-o'sh... — deya ingliz ayolga murojaat qildi u. — Miss Tfays! Je vu pri...⁴

⁴ Iltimos qilardimki... (frans.)

Bunga nima desam ekan? O'zing ayt, nima deb aytsam sen tushunasan, a? Hov, eshityapsizmi, quloqdan bormi?.. Anavi yoqqa! Hu anavi yoqqa keting! Eshityapsanmi?

Miss Tfays Gryabovga ola qarab, nimadir deb ming'irladi.

— Nima deding? Tushunmadingizmi hali? Bu yerdan yo'qol, deyapman senga! Hu ana u yoqqa ket! Uyoqqa!

Gryabov missning yengidan tutib, butazor tomonga imo qildi-da, yerga cho'kkalab ko'rsatdi, aytmochi bo'ldiki, sen o'sha yerga borib, butalar panasida mana shunday... panalab tur... Ingliz ayol, qoshlari qahrli chimrilib, o'zining tilida allanimabalolar deb gapirdi. Mulkdorlarning ikkovi ham piq etib kulib yubordi.

— Shuncha vaqtdirki, buning ovozini birinchi marta eshitishim... Bulbuligo'yo bo'lib ket-e! Tushunmaydi! Sen ayt, birodar, bu dardi bedavoga yana nima dey?

— E, qo'ysang-chi buni! Yur, borib aroq ichamiz!

— Borolmayman, hozir aymi baliq tutadigan payt... Kech tushyapti, axir... Nima qllay endi, birodar, ayt, nima qilay? Kasofat-e! Endi buning ko'z oldida yechinishga to'g'ri keladi.

Gryabov syurtugi bilan nimchasini yechib tashladi-da, qumga o'tirib, etiklarini torta boshladi.

— Ivan Kuzmich, oshna, — dedi dvoryanlar yo'lboshchisi piq-piq kulib. — Judayam oshirib yubording, bu ishing borib turgan bedodlik...

— O'zidan ko'rsim, kim bunga ruschani tushunmagin, deb edi. Mayli, yechinaveraman, toki ajnabiylarga saboq bo'lsin!

Gryabov etiklarini, shimini yechdi, so'ng ishton-ko'ylaklarini ham sidirdiyu shiryalang'och bo'ldi. Ottsov qornini changallab qoldi. U kulgi bilan uyatning zo'rligidan qizarib ketgan edi. Ingliz ayolning qoshu ko'zlari pir-pir ucha boshladi. Sariq yuzida kibru nafratga to'la bir kulgi zohir bo'ldi.

— Sal salqinlab, keyin tushaman, — dedi Gryabov sonlariga shapatilab. — Azizim Fyodor Andreich, sen tushuntirib qo'ysang bo'lardi, nega yoz keldi deguncha ko'kragimga toshma toshib ketarkin, a?

— Tezroq suvga tush yoki kiyinib ol. Hayvon ekansan o'zi, oshna!

— Bu benomus sal-pal uyalsa qani! — dedi Gryabov cho'qina-cho'qina suvga tusharkan. — O'h, muzdekkma ekan... Qara, qoshini chimirganini qara! Ketmaydi bu... Oyimtilla o'z xayollarida naq osmonda yuribdilar, olomondan tepada! He-he-he... Bizlarni odam hisobiga qo'shmaydi bu!

Gryabov tizzagacha suvga kiringach, bo'ydor qomatini ko'z-ko'z qilgandek kerishib oldi-da, do'stiga ko'z qisdi:

— Erkaligini Angliyasiga borib qiladi!

Miss Tfays kiprik qoqmay, chuvalchangni yangiladi, odatdagicha bir marta esnab olib, qarmog'ini suvga tashladi. Ottsov teskari o'girildi. Gryabov ilinib qolgan qarmog'ini topib, suvga bir sho'ng'ib oldi-da, pishillagancha daryodan chiqdi. Oradan ikki daqiqa o'tar-o'tmay, u xuddi boyagiday, qumga chordona qurib o'tirgancha baliq tutar edi.

***Rus tilidan
Murod Muhammad Do'st
tarjimasi***

SAN'AT ASARI

Onasining yolg'iz o'g'li Sasha Smirnov «Birja vedomostlari» gazetasining 223-soniga o'ralgan bir narsani qo'ltig'iga qistirib, yuzi so'lg'in bir holda doktor Koshelkovning xonasiga kirdi.

— E-e, keling, yaxshi yigit! — deya kutib oldi doktor. — Xo'sh, sog'ligingiz qalay? Qanday xushxabarlar keltirdingiz?

Sashaning ko'zlari pirpiradi, o'ng qo'lini chap ko'kragiga bosib, hayajonlangan holda dedi:

— Oyim sizga salom yubordi va minnatdorlik bildirdi, Ivan Nikolayevich... Men oyimning yolg'iz o'g'liman, siz meni o'limdan saqlab qoldingiz... Og'ir darddan forig' qildingiz. Bu yaxshiligingizni aslo unutmaymiz.

— Bunday gaplarni qo'ying, yigit! — dedi doktor, bu so'zlardan erib ketib. — Men qilgan ishni hamma qiloladi.

— Men oyimning yolg'iz o'g'liman... Kambag'al odammiz, xizimatingizga yarasha haq to'lashga ojizmiz... Juda uyatga qoldik, doktor. Shuning uchun oyim va uning yolg'iz o'g'li — men, sizga minnatdorlik sifatida mana bu narsani hadya qilishga ahd qildik. O'zi qimmat narsa, qadimgi bronzadan ishlangan. Kamyob san'at asari.

— Hech keragi yo'q! — dedi doktor aftini burishtirib.

—Yo‘q demang endi,—dedi Sasha qog‘ozni ocha turib.—Olmasangiz meni ham, oyimni ham xafa qilasiz. Juda asl buyum. Qadimgi bronzadan ishlangan. Marhum dadamdan qolgan, biz buni qimmatli yodgorlik deb saqlab kelardik. Dadam qadimgi bronzadan yasalgan buyumlarni olib ishqibozlarga sotardi. Hozir oyim ham, men ham shu ish bilan mashg‘ulmiz.

Sasha qog‘ozni ochdi-da, keltirgan narsasini tantanali suratda stolga qo‘ydi. Bu buyum qadimgi bronzadan nafis ishlangan pastak qandil edi. Qandilda tasvir ham bor edi: shohsupada ikki qaddiqomati kelishgan qip-yalang‘och nozanin figurasi o‘rnatilgan bo‘lib, ularning holatini tasvirlashga jur‘atim ham, zarur ishtiyoqim ham yo‘q. Xonimlar tannoazona jilmayishar, shamdonni ko‘tarib turish vazifasi bo‘lmasa, xuddi supachadan sakrab tushib, uy ichini ostin-ustin qilishga ham tayyor edilar-ki, buni tasavvur etishning o‘zi xijolatli edi.

Doktor sovg‘aga bir muddat tikilib turdi-da, qulog‘ining orqasini qashladi, keyin bir yo‘talib, burnini qoqdi.

—Haqiqatan, asl narsa ekan,—dedi u to‘ng‘illab.—Ammo nima desam ekan... Hech kimga ko‘rsatib bo‘lmaydigan buyum ekan-da...

—Nega endi?

—O‘taketgan ustasi ham bundan battarini o‘ylab topolmaydi. Bu narsani stolga qo‘yish—butun uyni harom qilish demakdir.

—San‘atga nega bunday ko‘z bilan qaraysiz, doktor,—deb xafa bo‘ldi Sasha.—Axir, bu san‘at asari, o‘zingiz bir qarang! Bundagi nafislik va go‘zallikdan kishining qalbi shodlikka, ko‘zi yoshga to‘ladi! Bunday go‘zallikni ko‘rgan kishi butun

dunyoni unutib yuboradi. Qarang, qanday malohat, qanday nafosat, orzu bor bundal

—Buni o'zim ham ko'rib turibman, azizim,— dedi doktor, Sashaning so'zini bo'lib.— Ammo men oilali, bola-chaqali odamman, uyimga xonimlar kelib turadi...

— Albatta, agar nodon xalq nazari bilan qaralsa, bu yuksak san'at asari boshqacha bo'lib ko'rinadi,— dedi Sasha.— Ammo siz, doktor, oddiy xalqdan baland turmog'ingiz kerak. Bu buyumini olmasangiz, oyim ikkimizni qattiq xafa qilasiz. Men oyimning yolg'iz o'g'liman... Siz meni o'limdan saqlab qoldingiz. Biz sizga eng qimmatbaho buyumimizni taqdim etayapmiz. Faqat shunga mos keladigan boshqa narsamiz yo'qligi meni achintiryapti...

— Rahmat, rahmat, azizim, ko'p minnatdorman... Oyingizga salom ayting.

— Qandilni mana bu yerga, vazani yoniga qo'ying! Attang, jufti yo'qda... Eh, attang! Xo'p, xayr, doktor.

Sasha chiqib ketgandan keyin doktor ancha vaqtgacha qandilga tikilib qoldi, qulog'ining orqasini qashib, uzoq o'yladi.

«O'zi yomon narsa emas,— deb o'yladi u.— Uloqtirish uvol... Bu yerda qoldirib ham bo'lmaydi... Toza mushkul vaziyatda qoldim. Kimga hadya qilsam ekan?»

Uzoq o'ydan keyin Uxov degan o'zining qalin o'rto'g'i esiga tushdi. U advokat bo'lib, doktorning janjalli ishlarini boshqarardi.

— Juda soz-da,— dedi doktor o'ziga o'zi.— Do'stlik vajidan mendan sira pul olmaydi. Biron narsa hadya etsam, juda xursand bo'ladi. Mana shuni bera qolaman.

Keyin doktor darrov kiyindi-da, qandilni ko'tarib, Uxovnikiga ketdi. Advokat uyida ekan.

—Yaxshimisan, og'ayni!—dedi doktor.—Menga qilgan xizmatlaring uchun tashakkur bildirgani keldim. Pul bersam olmayсан, juda bo'lmasa, mana buni ol. Juda ajoyib bir narsa!

Buyumni ko'rgan advokat o'zida yo'q sevinib ketdi.

—Ana xolos!—dedi u qah-qah urib.—Odamlar nimalarni o'ylab topishmaydi-ya! Haqiqatan ham ajoyib narsa ekan.

Advokat ichidagi butun sevinchini izhor qilib bo'lgach, uyning eshigiga qo'rqa-pisa ko'z tashladi-da:

—Yo'q, birodar, buni olib ket, men olamayman,—dedi.

—Nega ololmayсан?—dedi doktor, qo'rqib ketib.

—Ololmayman-da...Uyimga onam kelib turadi, mijozlar keladi... xizmatchi ayollar oldida ham uyat.

—Bu gaplaringni qo'y, og'ayni,—dedi doktor.—O'zi juda nafis buyum. Olmasang, xafa bo'laman!

—Ba'zi joylari yopiq yoxud barg bilan berkitilgan bo'lsa ham mayli edi...

Doktor baribir sovg'ani qoldirdi-da, uyiga qarab ketdi.

«O'zi yomon narsa emas ekan,—dedi o'ziga o'zi Uxov.—Tashlasang uvol bo'ladi, u yerda qoldirish ham uyat. Yaxshisi, biron kishiga sovg'a qilaman. Ha, topdim! Bu qandilni qiziqchi artist Shashkinga taqdim etaman... U bunday narsalarga o'lgudek o'ch».

Juda puxta o'ralgan qandilni Uxov kechqurun Shashkinga sovg'a qildi. Yarim kechagacha Shashkinning pardoixonasi sovg'ani ko'rish uchun kelgan erkak artistlar bilan liq to'la edi. U yerdan hadeb ot kishnashiga o'xshash kulgi eshitilardi.

Biron aktrisa eshik oldiga kelib: «Kirsam maylimi?» deb so'rasa, qiziqchi darhol:

—Yo'q, yo'q, xonim, men kiyingan emasman! — degan ovoz eshitilardi.

Tomoshadan keyin artist kiftini qoqib:

—Bu matohni nima qilsam ekan? — dedi atrofidagilarga qarab. — Axir birovning uyida ijarada tursam, uyimga aktrisalar kelib turadi... Bu fotosurat emaski, darrov g'aladonga yashirsam.

—Uni soting, qo'ying, — deb maslahat berdi sahna sataroshi. — Bir joyda shunaqangi qadimgi bronzalarni olib sotuvchi bir kampir bor. Borib Smirnovni so'raysiz. Uni hamma taniydi.

Shashkin sataroshning aytganini qildi...

Oradan ikki kun o'tib, doktor Koshelkov o'z kabinetida barmog'ini peshonasiga tirab, me'da kislotalari haqida o'ylab o'tirardi. Birdan eshik ochilib, kabinetga Sasha Smirnov kirib keldi. Uning og'zi qulog'ida, yuzida shodlik aks etardi. Qo'lida gazetaga o'ralgan bir narsani ko'tarib olgandi.

—Doktor! — deya gap boshladi Sasha, nafasi bo'g'ilib. — Shu topda dunyoda mendek xursand odam bo'lmasa kerak. Baxtingizga qandilingizning juftini topishga muvaffaq bo'ldik! Oyim ham juda xursandlar. Men oyimning yolg'iz o'g'liman... Siz meni bir o'limdan olib qoldingiz...

Minnatdorligidan titroq bosgan Sasha qandilni doktorning stoli ustiga qo'ydi. Doktor qandilga tikilganча gapirmoqchi bo'lib og'zini ochdi, ammo hech nima deyolmadi: uning tili tanglayiga yopishib qolgandi...

***Rus tilidan
Odil Rahimiy
tarjimasi***

ROHIBNING QAYG'USI

Xuddi hozirgidek, V asrda ham har tong quyosh uyqudan bosh ko'tarib, shom pallasi ufqqa bosh qo'yar edi. Tongning ilk nurlari shabnam bilan o'pishgan lahzalarda Zamin qaytadan jonlanib, butun borliq shodumonlikka to'lib ketar, shomda esa hammayoqni chuqur sukunat o'z komiga torta boshlardi. Shu zaylda biri biridan farqsiz kunlar va tunlar almashinib kelaverardi. Ahyon-ahyonda osmonni qora bulut qoplab, qasirg'a o'ynar, ko'kdan yulduz uchib, rang-quti o'chgan rohib qavmlariga monastir yaqinida yo'lbars ko'rganini aytib, ularning ko'ngliga g'ulg'ula solar, va yana bir-biridan farqsiz kunlar, tunlar almashinib kelaverardi.

Rohiblar zuhdu taqvoda toat-ibodat qilishar, sarrohib bo'lsa cholg'u chalib yaratganga hamdu sanolar aytar, va ularning tili hamda dilidan tangri kalomi tushmas edi. Alomat sarrohibga qodiru mavlon benazir salohiyat va cho'ng iqtidor ato etgan edi. Rohiblarning quloqlari keksalik g'oratidan og'irlashib qolgan bo'lsa-da, sarrohib sozi jo'rligida bag'oyat mahoratla ijro etgan maqomlarni sel bo'lib tinglashar, ba'zilar o'zini tutolmay yig'lamoqqa tushishardi. Sarrohib eng oddiy narsalar haqida, aytaylik, dov-daraxtlaru gul-chechaklar, darrandalaru parrandalar, tog'-u toshlar-u daryo-ummonlar to'g'risida so'zlay boshlasa, uning sehrli ovozi

zavqlanmasdan yoki mutaassir bo'lmay eshitish mushkul edi. Uning kufri qo'zigan yoki qalbini kuchli his-hayajon chulg'agan damlarda yoxud qavmlarining diliga qutquli olamshumul voqealarni so'zlab dahshat solganda esa, hammaning diqqat-e'tiborini qozongan sarrohibning yuz-ko'zlarida zohir bo'lgan vajohatdan rohiblar tosh qotib qolishar — bunday vaziyatlarda uning amriga binoan o'zlarini o'tgayam, suvgayam otishga tayyor turishardi.

Sarrohibning tangrini ulug'lab, uning ta'rifida keltirgan hamdu sanolari, rivoyatlarida din ahliga bitmas-tuganmas ilhom bag'ishlaguvchi sehr mavjud edi. Ba'zan, ya'ni monastir hayotining bir maromdagi yakrang umrguzaronligida daraxtlaru gul-chechaklar, ko'klamu tiramoh, daryoyu ummon to'lqinlarining shovullashi ham rohiblarning ba'diga urib, qushlarning sayroqi xonishidan-da dillari zada tortgan kezlarda sarrohibning betimsol a'moli qavmlarida suv bilan havoga tashnalikdek ehtiyoj uyg'otardi.

Quvlashib yillar o'tib borar, kunlarni kunlardan, tunlarni tunlardan ajratib bo'lmas edi. Yovvoyi qushlaru darrandalardan bo'lak monastir yaqiniga zog' ham yo'lamasdi. Atrof javonibda odam zoti yashamas, monastirdan kentu manzilgohlarga borish uchun yuz chaqirimcha yo'l yurish lozim edi. Monastirga kelishni esa tarki dunyo qilgan va zohidona ro'zg'orni avlo bilgan darvishlarga o'zlariga ravo ko'rishardi. Turmush mashaqqatlaridan ezilgan, jonidan to'yib ketgan bandalargina monastir taraflarga borishni o'zlariga ixtiyor etardilar.

Buni qarangki, kunlarning birida yarim tunda monastir eshigini kimdir qoqdi. Boshpana so'rab turgan kimsani ko'rib, rohiblar taxayyulga borishdi.

Notanish odam turmushi yalang ayshu tarabda o'tgan kentlik po'rim bo'lib chiqdi. U sarrohibdan ibodatga izn so'rash o'rniga, toqatsizlanganicha yemak va ichmak berishlarini talab qildi. Olis kentdan gadoytopmas bu joylarga qanday kelib qolganini so'rashganda, u shikorga chiqqanini va ichib changalzorda adashib qolganini aytdi. Zohidlik zunnorini belga bog'lab, sahobu shom toat-ibodatda bo'lishga da'vat etganlarida, u tirjayganicha: «Sizlarga birodar bo'la olmayman», dedi.

Eb-ichib nafsi anchayin qongan musofir rohiblarga bir-bir qarash qildi-da, xuddi yozg'irgandek bosh chayqab dedi:

— Obbo siz rohiblar-ey! Yeb-ichish, huzur-halovatdan boshqasini bilmaydigan dangasa ekan-sizlar-ku! Oxiratingizni o'ylasangiz-chi, axir!? Tunu kun tavba-tazarruda yaratganga yukinadigan ilmu amalingiz nahotki shundan iborat bo'lsa?! Sizlar bu yerda vaqtida taomlanib, vaqtida istirohat qilasiz, uyoqda — Kenti Kabirda bo'lsa xeshu aqربولaringiz kun sayin razolat va fisq-fujur botqog'iga botib oxiratini kuydirishmoqda... Odamlarda na iymon, na e'tiqod qoldi! Zero, kallani ishlatib, bundoq sarhisob solsangiz-chi! Oddiy avom ro'zg'or tutishdan qiynalib yotibdi, havoyi nafslarini tiya olmay, sarvatu shahvatga mukkasidan ketganlar bo'lsa yo'ldan adashib xudoning g'ashiga tegmoqdalar. Ayting-chi menga, ularni naqs bosib, fosiqlik girdobi o'z girvatiga tortib ketmasligi uchun nima qilmoq kerak? Zuhdu taqvo hamda amru ma'ruf bilan ularni haq yo'lga solish kimning vazifasi? Erta-yu kech ayshu tarabdan bo'shamaydigan kaminaningmi? Zotan ruhni itoatda saqlab, butun qalb qo'ri, mehr-muhabbatini tangri va uning

bandalariga baxshida etib, tunu kun mana shu to'rt devor ichidan chiqmay, ezgu amallarga qo'l urmasdan taralla bedodlik qilib kelayotgan sizning vazifangiz emasmi?!

Musofirning sarxush ta'na-dashnomlari qanchalik qo'rs tuyulmasin, sarrohib ularni eshitib chuqur o'ygaga toldi. Avzoi buzilib, birodarlariga gezarib qaragancha dedi:

— Birodarlar, indallosini aytganda, kentlik mehmonning gaplari to'g'ri! Faqir-u yo'qsillarning iymonsizligi va nodonligi bilan uch pullik ishimiz yo'q. Axir u yoqlarga borib, xudo bexabarlarini g'aflat uyqusidan uyg'otishimiz kerak emasmi?

Sarrohib kentlik kishining ta'nalaridan mutaassir bo'ldi. Ertasiga u hamma qavmlari bilan xayr-xo'shlashib, hassasini to'qillatgancha olis va mashaqqatli yo'lga tushdi. Sarrohabsiz monastir huvillab qoldi.

Oradan bir oy o'tdi, ikki oy o'tdi — sarrohibdan darak bo'lmadi. Nihoyat, uch oydan keyin hassasini to'qillatgancha monastir eshigidan sarrohib kirib keldi. Kutib olishga chiqqan rohiblar uni savolga ko'mib tashlashdi. Ammo sarrohib ular bilan qayta diydorlashib turganidan xursand bo'lish o'rniga, lom-mim demasdan achchiq yig'lay boshladi. U o'zini xiyla oldirib qo'ygandi: safar uni judayam toliqtirgani va qaroqlarining qa'riga teran musibat soya solgani shundoq ko'rinib turar edi. Sarrohib birdaniga ancha yoshga keksayib qolganga o'xshardi. Uning yig'loqi ko'zlari va salqi yuzlari boyoqishning u yoqlarda rosa ezilgani, xo'rlik va abgorlik chekkanidan darak berib turardi.

Shunda monastir rohiblarining ham dili vayron bo'lib, unga qo'shilib yig'lamoqqa boshladilar.

Ularning: «Hadeb ko'zyosh to'kishingizning boisi ne?», degan savoliga sarrohib churq etib javob qilmadi va tamomila uzlatga chekindi.

Sarrohib yetti kechayu yetti kunduz tuz totmadi — na soz chalib qavmlarining qalbiga orom bag'ishladi, na amru ma'ruf qilib va'z-nasihat o'qidi. Nihoyat, u hujrasidan chiqib keldi. Tegasiga ruhoniylarni chorlab, surunkali jola to'kishdan shishib-qizargan, g'ussa va nafratga to'la ko'zlarini ularga tikkancha o'tgan uch oy davomida ko'rgan-kechirganlari haqida hikoya qila boshladi.

Monastirdan Kenti Kabirga dovur bosib o'tgan yo'lini bayon etarkan, uning ovozi xotirjam jaranglab, yuz-ko'zlaridan tabassum balqib turdi.

— Yo'limda, — deb hikoya qilardi u, — qushlarning «chax-chax» sayrashi, ariq va jilg'a suvlarining qiqirlab kulishl qalbimda xush kayfiyat uyg'otar va dilimni sarafroz aylardi; kamina bo'lsa g'olib chiqishga ishonchi komil fotih singari ketib borardim. Ana shunday nekbini orzu-maqсадlar qanotida shahar tomon oshiqar ekanman, yo'lakay qasidalar bitib, tangrining sha'niga hamdlar aytgancha manzilinga yetib kelganimniyam sezmabman...

Biroq kent va kentliklar to'g'risida so'zlay boshlashi hamon sarrohibning ko'zlari chaqnab, butun vujudida titroq turdi va ko'zlarida qahr-g'azab o'ti yondi. Sarrohib gavjum va sershovqin shaharga kirib borarkan, ko'z o'ngida namoyon bo'layotgan ko'rguliklarni ilgari ko'rish u yoqda tursin, hatto xayoliga ham keltira olmasdi. Umri poyoniga yetib borayotgan sarrohib hayotida birinchi marta shaytoni la'in hali-hamon ko'p narsalarga qodirligini, odam zotini irodasiz va haqir qulga aylantirib qo'yish unga hech narsa emasligini anglab yetdi. Baxtga

qarshi u kirib borgan dastlabki manzildan fosiqu gumrohlari oshyon qurib olishgan edi. U yerda bir talay puldorlar ishratparastlikka berilib, ko'z ko'rib quloq eshitmagan buzqliklar bilan mashg'ul edilar; stolga tortilgan noz-ne'matlarni oyoqosti qilishar, mast-alast holda behayo so'zlarni so'zlashar, uyatsiz qo'shiqlar kuylasbardi. Bunday sharmandagarchilik faqat xudobexabar gumrohlarninggina qo'li va tilidan kelishi mumkin edi; na xudodan, na shaytoni la'indan va na ajaldan qo'rqadigan bu haromzodalar o'zlarini o'ktam, xurram va xushbaxt chog'lashardi. Qahrabo tusli totli musallas nafis jomlarda jimir-jimir qilar, bag'oyat mazali va xushbo'y ichimliklardan mayparastlarning qayta-qayta ichgisi kelar edi. Musallasda shunday bir iblisona kuch pinhon ediki, undan ichgan har qanday odamni sarob misol o'z domiga tortaverardi...

Sarrohib g'azab otiga minib, ko'rganlarini kuyib-yonib bayon etarkan, «uh» tortgancha, afsus-nadomat chekib ko'zlaridan duv-duv yosh to'kardi.

— Maishatparastlarning, — deya hikoyasini davom ettirdi u, — davrasi o'rtasiga yarim yalang'och suyuqoyoq chiqib olgan edi. Odam zotiga ato etilgan noz-ne'matlar ichida bu qadar jozibador, bu qadar maftunkor husni tavajjuhni uchratish dushvor edi. Qoramag'izdan kelgan uzunsoch, quralay ko'z, dudoqlari lo'ppi bu kuydirmajon sadafdek oppoq tishlarini yaltiratgancha: «Qarasangiz-chi, naqadar sumanbar, va shu bilan birga benomus, behayo xilqatman!», deyayotgandek bo'lardi. Uning nihoyatda xushbichim va nazokatli kiftlariga kimxob va shohi tashlab qo'yilgan edi. Zero, zinogarning beandisha, beor tanasi yaltir-yultur liboslarga bekinib olishni istamas, balki ayni bahorda zamin

bag'rida bosh ko'tarib chiqqan sabza yanglig' harislik bilan ochilib-sochilar edi. Yuvuqsiz ayol erkaklarga qo'shilib may ichar, badaxloq qo'shiqlar xirgoyi etib, ularning birgina imosiga jimo qilib ketaverardi.

Junumi qo'zigan sarrohib qo'llarini to'lg'ab-to'lg'ab buqalar jangi, suvoriylar bellashuvi, teatru tomoshalar to'g'risida, haykaltarosh loydan did bilan yasagan shir yalang'och ayol haykali haqida uyatdan qizarib-bo'zarib so'zlar edi.

U burrozabon notiq singari mulohazalarni lo'nda-lo'nda bayon etar, uning sehrli soz kahi maftunkor ovozini tinglayotgan rohiblar lol bo'lishib, entikib-entikib qo'yishar edi...

Fohisha ayol tanasining kishida nafrat va irganish uyg'otuvchi naqs bosgan sehru jodularini tilga olar ekan, sarrohib shaytoni la'inga tavqi la'natlar o'qib, hujrasiga kirib ketdi.

Erta tongda hujrasidan chiqib kelgan sarrohib monastirda o'zidan boshqa bironta ruhoniylar qolmaganini ko'rdi. Hammasi shaharga ketib qolgandi.

1887-yil.

***Rus tilidan
Ilhom Hafizov
tarjimasi***

GO'ZALLAR

I

Esimda bor, gimnaziyaning beshinchi yoki oltinchi sinfida o'qib yurgan kezlarimda Don oblastidagi Bolshaya Kreпка qishlog'idan bobom bilan birga Rostov-Donga ketayotgan edim. Avgust oyining jazirama, tinka-madorni qurituvchi diqqi nafas kunlaridai biri edi. Kun qizig'idan, quruq va issiq garmseldan hamda qarshidan urib turgan chang-to'zondan ko'z ochib bo'lmas, tomoq qaqrardi; yon-veringga qaraging ham, gapirging ham, o'ylaging ham kelmasdi; shuning uchun ham, mudrab borayotgan ukrain aravakash Karpo otlarga «chu» deb qamchi o'ynatgan paytda qamchisi furajkamga tegib ketganda ham norozilik bildirmadim, miq etmadim, faqat mudrashdan ko'zimni ochib, chang-to'zon orasida qishloq ko'rinmasmikan? deb olislarga ma'yuslik bilan qarardim. Otlarga yem berib olish uchun Baxchi-Salax degan bir katta arman qishlog'ida, bobomning boy arman oshnasinikida to'xtadik. Men umrimda bu armandan ko'ra beo'xshov g'alati odamni ko'rmaganman. Shunday bir odamni o'zingiz tasavvur qiling, sochi qirtishlab olingan kichkina bosh, qalin, uzun qoshlari pastga osilib tushgan, to'ti burun, oppoq uzun mo'ylov,

katta og'zida gilos yog'ochidan qilingan uzun trubka cho'chchaygan; mana shu bosh, ajib bir kiyim bilan o'ralgan qotma, bukchaygan tanaga farosatsizlik bilan yopishtirilgan; bu odam egniga kalta qizil kamzil, ko'k keng chalvor kiygan; bu jussa oyoqlarini kerib, tuflilarini shaqirlatib yurardi, gapirganda ham og'zidagi trubkasini olmas, o'zini g'irt armancha qiyofada tutardi: tishining oqini ko'rsatmas, ko'zlarini ola-kula qilib qarab va mehmonlariga mumkin qadar kamroq e'tibor berishga urinardi.

Armanning uyida shamol ham, chang ham yo'q edi-yu, lekin uyi xuddi cho'ldagi, yo'ldagi singari befayz, dim va zerikarli edi. Yodimda bor, chang bosib va jaziramadan madorim qurib, burchakdagi ko'k sandiqda o'tirar edim. Bo'yalmagan taxta devorlar, uy anjomlari va oxra surilgan pollardan oftobda qovjiragan quruq yog'och isi kelib turardi. Qayoqqa qarasang, g'uv-g'uv pashsha... Bobom bilan arman pichirlashib, nuqul mol boqish, yaylov va qo'ylar to'g'risida gapirishardi... Men samovar qaynaguncha bir soat o'tishini, bobom kamida bir soat choy ichishini, keyin ikki soatcha uxlashini, mening chorak kunim kutish hilan o'tishini, undan keyin yana jazirama oftob, chang va yo'l azobi boshlanishini bilar edim. Men ikki odamning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashishini eshitib turaman, keyin shu arman, idish-tovoq turgan shkaf, pashshalar, kun qizig'i urib turgan derazalar uzoq vaqtdan beri ko'z oldimda turganday va ular hali-veri ko'z o'ngimdan yo'qolmaydiganday tuyilar, shundan keyin cho'l, quyosh, pashshaga nafrat bilan qarayman...

Ro'mol o'ragan bir ukrain ayol patnisda idishlarni, keyin samovar olib kirdi. Arman sekin qimirlab dahlizga chiqib chaqirdi:

— Mashya! Bu yoqqa kel, choy quy! Qayoq-dasan? Mashya!

Shoshib-pishib kelayotgan oyoq tovushi eshitildi va uyga yoshi o'n olti yoshli borgan bir qiz kirib keldi; uning egnida oddiy chit ko'ylak, boshida oq durra bor edi. Qiz idishlarni yuvib, choy quyib, menga orqasini o'girib turarkan, beli xipcha, oyoqyalang ekanini payqadim; tovonchalarini uzun lozim berkitib turardi.

Xo'jayin meni choyga taklif qildi. Stol yoniga kelib o'tirayotib, menga stakan uzatayotgan qizning yuziga nazar tashlashim bilan qalbimda to'satdan xuddi shamol turib, kunduzgi butun taassurotlar, zerikishlar, chang-to'zonlarni uchirib ketganday bo'ldi. Men bu qizning chehrasida umrimda va tushumda ko'rgan go'zallarning eng jozibali belgilarini ko'rdim. Ko'z o'ngimda chaqmoqday yarqirab bir go'zal turar edi.

Men Mashaning, yoki otasining tili bilan aytganda Mashyaning haqiqiy go'zal ekanini tasdiqlash uchun qasam ichishga tayyorman, ammo buni isbot qilolmayman. Ba'zan shunday bo'ladi: bulut ufqda betartib uymalashadi va uning orqasiga yashiringan quyosh bulutlarni ham, osmonni ham turli-tuman rangga bo'yaydi: osmonda qizil, to'q sariq, oltinsimon, binafsha, xira pushti ranglar hosil qiladi; bulutlarning biri monaxga, ikkinchisi baliqqa, uchunchisi esa sallali turkka o'xshaydi. Shafaq havoning uchdan bir qismini qoplaydi, cherkov gumbazlari va boylarning deraza oynasida yarqiraydi, daryo va ko'lmak suvlarda aks etadi, daraxtlar uchida jimirlaydi; bir gala yovvoyi o'rdak juda olisda, shafaq qo'ynida, yotgani allaqayoqlarga uchib ketadi... Sigirlarni haydab ketayotgan cho'pon

hola ham, brichkada to'g'ondan o'tib ketayotgan yer o'lchovchi ham, sayr qilib yurgan janoblar ham — hammasi kun botishiga qarab, bu manzaraning go'zalligiga bir og'izdan tan beradi, biroq buning go'zalligi nimadan iboratligini hech kim bilmaydi ham, hech kim aytib berolmaydi ham.

Arman qizining go'zalligini yolg'iz men emas, xotin-qizlarga va tabiiy manzaralarga beparvo saksonga kirgan chol bobom ham payqadi; u Mashaga bir pas mahliyo bo'lib qoldi-da:

— Bu sizning qizingizmi, Avet Nazarich? — deb so'radi.

— Qizim, ha. Mening qizim... — deb javob berdi xo'jaym.

— Yaxshi qiz ekan, — dedi bobom.

Arman qizini ko'rgan rassom juda bejirim, antiqa go'zal deb aytardi. Bu qizning xusniga bir nazar tashlasangiz, xudo bilsin, ko'nglingizga butun soxti to'g'ri, sochi, ko'zi, burni, og'zi, bo'ym, ko'krak hamda yosh badanining barcha xatti-harakatlari bir-biriga monand va uni yaratishda tabiat hech qanday xato qilmagan, degan fikr keladi; negadir eng go'zal xotinlarning burni xuddi Mashaniki singari to'g'ri va xiyol qirra bo'lishi, qop-qora shahlo ko'z, kipriklari shunday uzun, boqishlari xumor bo'lishi kerak; uning qop-qora jingalak sochlari va qoshlari ham muloyim, oppoq manglayi va yuziga xuddi sokim anhor bo'yidagi ko'm-ko'k qamishday yarashib turibdi; Mashaning oppoq bo'yni va yaxshi yetilmagan nozik ko'kragini tasvirlash uchun juda katta ijodiy talantga ega bo'lish kerak. Unga qarab tursangiz yoqimli, samimiy, xuddi uning o'zi singari go'zal bir gap aytishni ko'nglingiz tusab qoladi.

Mashaning menga butunlay e'tibor bermay, yerga qarab turishi dastlab menga alam qildi va xiyla izza bo'ldim. Go'yo allaqanday bir baxtiyor va mag'rur havo uni mendan ajratib turar va rashk bilan uni mening nazarimdan himoya qilardi.

«Hamma yog'im chang bo'lgani, oftobda qorayib ketganim, o'zim ham yosh bo'lganim uchun shunday qilyapti» deb o'yladim.

Ammo, bora-bora men o'z to'g'rimda o'ylashni unutib, bu go'zalga butunlay mahliyo bo'lib qoldim. Endi cho'l azoblari, chang-to'zonlarni ham unuttim, pashshalarning g'uvullashi ham qulog'imga kirmay qoldi, choyning ham mazasini sezmadim, faqat stolning naryog'ida turgan chiroyli qizni sezardim, xolos.

Men go'zallikka g'alati bir tarzda mahliyo edim. Masha menda na orzu, na shavq-zavq va na huzur-halovat qo'zg'adi, aksincha, yoqimli bo'lsa ham, og'ir bir ma'yuslik keltirdi. Bu ma'yuslik xuddi g'alati tush kabi noaniq va betayin edi. Negadir men o'zimga ham, bobomga ham, armanga ham, arman qiziga ham achinib ketdim; qalbidam shunday bir tuyg'u bor ediki, go'yo to'rtalamiz ham hayotimiz uchun muhim va zarur bo'lgan narsani yo'qotib qo'yganmiz-u, endi uni hech qachon topib bo'lmaydi. Bobom ham ma'yus bo'lib qoldi. Endi u o'tloq va qo'ylar to'g'risida gapirmay, indamay, hayolga cho'mib, Mashaga qarab o'tirardi.

Choydan keyim bobom yotdi, men eshik oldidagi zinapoyaga chiqib o'tirdim. Baxchi-Salaxdagi hamma uylar singari bu uy ham kunning tig'ida; bu yerda na daraxt, na pesh ayvon va na soya bor edi. Armanning, olabutalar o'sib, bir-biriga tutashib ketgan katta hovlisi, jazirama oftob bo'lsa ham

gavjum va obod edi. Katta hovlining u yer va bu yeriga tortilgan pastakkina chetan devorlardan biri ichida g'alla yanchilmoqda. Xirmonning o'rtasiga o'rnatilgan xoda atrofida qator bog'langan o'n ikkita ot katta doira olib, to'xtovsiz aylanmoqda. Otlarni uzun nimcha va keng chalvor kiygan bir ukrain haydab yurar, u qamchisini o'ynatib baqirar, go'yo otlarni cho'chitmoqchi va o'zini ko'rsatmoqchi bo'lar edi.

— A-ha-ha, ho ha, la'natilar! A-ha-ha-ho... Ha, joning chuqqurlar! Qo'rqmas ekansanlar?

To'riq, oq va chavkar otlar nega nuqul bir joyda aylantirib, bug'doypoyani payxonlashga majbur qilayotganlarimi tushunmagandek istar-istamas, zo'rg'a yurishar va go'yo ranjib dumlarini silkishar edi. Shamol otlarning tuyog'i ostidan bulut singari ko'tarilayotgan sap-sariq oltinday to'ponlarni havoga uchirib, chetan devordan nariga, olis-olislarga olib ketardi. Baland yangi g'aram oldida qo'liga xaskash ushlagan ayollar g'imirlar va shu yerda kelayotgan aravalar ham ko'rinardi; shu g'aramning nariyog'ida, boshqa hovlida, yana bir to'da ot xoda atrofida aylanmoqda edi; bu otlarni ham boyagidaka bir ukrain qamchilab, ularga o'zini ko'rsatmoqchi bo'lardi...

Men o'tirgan zinapoyalar qaynoq edi; siyrakkina panjaralar va deraza romlarining ba'zi joylaridan issiqdan yog'ochning yelimi chiqib ketibdi; zinapoyalar va darcha eshiklari ostiga tushib turgan soyada qizil qo'ng'izchalar qator tizilib qolibdi. Kuyosh mening boshimni, ko'kragimni, belimni qizdirar, lekin men payqamay, faqat orqamdagi soya joyda va uylardagi taxta polda yalangoyoq yurganlarni sezardim. Masha choynak-piyolalarni

yig'ishtirib, yugurganicha zinadan tushib, o'z shamoli hilan meni yelpib ketdi, u xuddi qushday uchib borib, tutundan sarg'ayib ketgan kichik bir bostirmaga kirdi, u yer oshxona bo'lsa kerakki, qo'y go'shti qovurdog'ining isi anqib, armancha so'zlar qattiq-qattiq eshitilib turardi. Masha g'oyib bo'lishi bilan yuzlari qip-qizil, chalvor kiygan bukchaygan bir arman kampir ko'rindi. Kampir jahli chiqib birovni qarg'ardi. Ko'p o'tmay ostonada Masha ko'rindi, oshxona issig'idan yuzlari qizarib ketgan, yelkasiga katta buxanka qora non qo'yib olgandi; Masha non og'irligidan nozik niholday egilib-bukilib g'irillagancha hovlidan xirmon tomon ketdi, lip etib chetan devordan o'tdi va bulutday ko'tarilgan tilla rang to'ponga sho'ng'ib, aravalar orqasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bug'doy yanchayotgan ukrain qamchisini yerga tushirib, jim bo'lib qoldi va bir pas shu zayilda aravalar tomon tikilib qoldi, keyin arman qizi yana otlar oldidan yo'rg'alab borib, chetan devordan xatlab o'tguncha uni kuzatib, keyin ranjiganday, otlarga:

— Ha, joning chiqqurlar! — deb baqirdi. Shundan keyin men qizning qadam tovushlarini eshitib, jiddiy va tashvishli bir qiyofada hovlida u yoqdan bu yoqqa yugurib yurganini ko'rib o'tirdim. Masha o'z shamoli bilan meni yelpib zinadan yugurib tushar, dam-badam oshxonaga, xirmonga, darvoza tomonga g'irillab o'tar, men bo'lsam olazarak bo'lib uni zo'rg'a kuzatib turardim.

Qiz ko'z oldimda xusnini namoyish qilgan sari mening ma'yusligim orta borardi. Men, o'zimga ham, qizga ham, u har safar bulutday ko'tarilgan g'alla to'poni orasidan arava tomonga yugurib o'tgan paytda tikilib turgan ukrainga ham achinib

ketdim. Men uning xusniga xasad qilyapmanmi, yoki bu qiz meniki bo'lmagani uchun va hech qachon meniki bo'lmasligi uchun va men unga begona bir odam bo'lganim uchun afsus qilyapmanmi, yoki uning nodir go'zalligi tasodifiy va keraksiz bir narsa hamda yer yuzidagi barcha narsalar singari boqiy emas, deb bezovta bo'lyapmanmi, yo bo'lmasa, mening ma'yusligim haqiqiy go'zalni ko'rish bilan kishida paydo bo'ladigan ayrim bir tuyg'umi ekanini bilolmas edim!

Shu zayilda uch soat o'tib ketganini bilmay qoldim. Men Mashani to'yib ko'rolmagandek edim. Karpo anhorga borib, otlarni cho'miltirib kelibdi, mana endi aravani ham qo'shyapti. Cho'miltirilgan ot huzur qilib pishqirar va tuyoqlari bilan shotini taqillatib qo'yardi. Karpo unga «no!» deb baqiradi. Bobom uyqudan turdi. Masha bizga darvozani g'iqillatib ochib berdi, biz aravaga o'tirib, hovlidan chiqib ketdik. Biz xuddi bir-birimizdan arazlaganday indamay borar edik.

Oradan ikki-uch soat o'tgach, uzoqdan Rostov hamda Naxichevan ko'ringandan keyin, g'iq etmay kelayotgan Karpo yarq etib bizga o'girilib:

— Armanning rost qizi bor ekan-da! — dedi-da, otlarga qamchi bosdi.

II

Boshqa bir safar, talabalik vaqtimda, temir yo'ldan janubga qarab ketayotgan edim. May oyi edi. Stantsiyalardan birida, chamasi Belgorod bilan Xarkov o'rtasida bo'lsa kerak, platformani bir aylanib kelay deb, vagondan chiqdim.

Stantsiya bog'chasi, platforma va dalalarga kech ko'lankasi yastangan edi; vokzal binosi

botayotgan kunni to'sib turar, ammo parovozdan chiqayotgan pag'a-pag'a tutun havoga ko'tarilib, nim pushti rangga belanib ko'rinishidan hali kun botib ketmagani bilinar edi.

Platformada u yoq bu yoqqa yurib, bunday qarasam, sayr etib yurgan yo'lovchilarning ko'pchiligi faqat bitta ikkinchi klass vagoni oldiga to'planishardi va ularning chehrasida «bu vagonda allaqanday bir mashhur odam bor» degan ma'no aks etib turardi. Bu vagon oldida turganlar orasida, buni qarangki, mening yo'ldoshim — ziyrak artilleriya ofitseri ham bor ekan; uning yo'lda tasodifan tanishib, tezda ajrashib ketiladigan hamma odamlar singari yoqimtoy va istarasi issiqqina edi.

— Bu yerda nimani tomosha qilyapsiz? — deb so'radim.

U hech qanday javob qaytarmay, ko'zlari bilan bir qizning qomatiga ishora qilib qo'ydi. Bu o'n yetti yo o'n sakkizlarga kirgan yoshgina qiz edi; kiyim-kechaklari ruscha, boshyalang va bir yelkasiga mantilka tashlab qo'yibdi, o'zi yo'lovchi emas, chamamda, stantsiya boshlig'ining qizi yoki singlisi bo'lsa kerak. Qiz vagon darchasi oldida bir yo'lovchi kampir bilan gaplashib turar edi. Men hozir ko'rib turgan qiz to'g'risida biron fikrga kelmasimdanoq, bir vaqtlar arman qishlog'ida duch kelgan go'zalni ko'rganimdagi singari tuyg'u butun vujudimni chulg'ab oldi.

Qiz chindan ham benihoyat go'zal edi, bunga menda ham va men bilan birga qizni tomosha qilib turgan kishilarda ham shak-shubha yo'q edi.

Agar bu qizning sirtqi ko'rinishini odatdagicha qismlarga bo'lib tasvir etish joiz bo'lsa, haqiqatan undagi eng go'zal narsa faqat jingalak, qalin

malli sochi va boshiga hurpaytirib bog'lagan qora lentasi edi; qolganlarining hammasi kelishmagan, yo bo'lmasa juda sodda edi. Noz-karashma uchunmi, yoki uzoqni ilg'amasligi uchunmi ko'zlarini suzib turardi. Burni xiyol cho'chchaygan, og'zi kichkina, yonidan qaraganda ko'rimsizday, yoshiga qaraganda yelkalari xiyol torroq edi, shunday bo'lsa ham bu qiz chinakam go'zalday taassurot qoldirardi; men unga qarab rus qizining chiroyli ko'rinishi uchun yuz tuzilishi to'ppa-to'g'ri bo'lishi shart emas ekan, degan fikrga keldim. Chamamda qizning cho'qqaygan burni o'rniga arman qizniki singari qirra burun qo'yilsa, chehrasidagi go'zallik yo'qolar edi.

Go'zal qiz vagon derazasi oldida kechki shabnamdan junjib gaplashib turib, goh biz tomonga qarab qo'yar, goh ikki qo'lini beliga tirab olar, goh sochlarini to'g'rilash uchun qo'llarini boshiga ko'tarar, gapirar, kular, chehrasida goh hayrat, goh dahshat alomatlari aks etar va men uning badani hamda chehrasi bir on tinch turganini ko'rmadim. Undagi go'zallikning butun siri va sehri mana shu mayda, nihoyatda nozik harakatlar, jilmayish, yuz harakatlari, biz tomonga tez-tez nazar tashlashlar, bu nozik harakatlarning yoshlik, ma'sumlik, sofdillik bilan mos kelishida, kulgan va gapirgan chog'laridagi mayinlikda edi; uning butun qlliqlari, bizga yoqadigan yosh bolalar, parrandalar, yosh kiyiklar va yosh daraxtlar singari nozik edi.

Unda parvona go'zalligi bor ediki, bog'larda guldan gulga uchib-qo'nib, o'ynab-kulib, xursand bo'lib yurishgina yarashar, jiddiy o'y, qayg'u-hasrat va bir yerda jim turish unga munosib emasdi; bu nozik vujudning birdan so'lib qolishi va noz-karashmalarining xuddi gul changiday sochilib

ketishi uchun platformani yaxshigina shamol yelpib o'tishi yoki yomg'ir tomchilashi kifoyadek edi.

Ikkinchi qo'ng'iroqdan keyin biz o'z vagonimizga qarab jo'naganimizda:

— Shunday... — deb g'o'ldiradi ofitser, chuqur nafas olib.

Nega «shunday» deb qo'yganiga tushunolmayman.

Ehtimol, go'zal qizning yonidan, bahor oqshomidan uzoqlashib, dim vagonga kirgisi kelmay uni qayg'u-hasrat bosgandir, ehtimol, u ham menga o'xshab go'zal qizga, o'ziga, menga va oyoqlari tortmasdan, o'z vagonlariga sudralib ketayotgan hamma yo'lovchilarga nihoyatda achinib ketgandir. Ofitser stantsiya derazalari oldidan o'tib ketayotgan paytda, ichkarida bir rangpar, malla soch telegrafist o'z apparati yonida o'tirgan edi; uning jingalak sochi hurpaygan, rangi o'chgan, yonoq suyaklari turib chiqqan edi, ofitser o'shanga qarab turib uh tortdi va:

— Garov o'ynayman, mana shu telegrafist o'sha nozaninni yaxshi ko'radi — dedi. — Dala joydagi yolg'iz uyda shunday parivash bilan birga o'tirib, unga oshiq bo'lmaslik uchun nihoyatda kuchlik iroda kerak. Oh do'stim, qaddi-qomati ko'rimsizgina bo'lsa ham, risoladagi odam bo'la turib, o'zini sariq chaqaga olmaydigan chiroylikkina va yengiltak bir qizga oshiq bo'lish naqadar baxtsizlik, naqadar kulgili! Undan ham yomoni shuki, bu telegrafist qizni yaxshi ko'rib qolgan, buning ustiga xotini ham bor va xotini ham xuddi o'ziga o'xshagan ko'rimsizgina bo'lsa ham risoladagi ayol... Bu holning turgan-bitgani azob!

Bizning vagonimiz oldida maydonchaning panjarasiga suyanib o'sha nozanin tomonga qarab

konduktor turar-di; uning horg'in, salqi, uyqusiz kechalar hamda vagondagi urinishlar tufayli tolgan lo'ppi yuzida g'am-g'ussa va ma'yuslik aks etmoqda ediki, go'yo u o'sha go'zal qiz siymosida yoshligi, baxti, tetikligi, pokizaligi, xotin bola-chaqalarini ko'rayotganday, go'yo bu qiz uniki bo'lmagani uchun o'zi bilan oddiy odamlar, yo'lovchilar baxti orasida, uning barvaqt qarib qolgan, beo'xshov va lo'ppi yuzlari orasida yer bilan osmoncha farq borligiga o'ksinar hamda uni butun vujudi bilan xis etar edi.

Uchinchi zang urildi, hushtak chalindi va poezd asta qo'zg'aldi. Bizning oynadan dastlab konduktor, stantsiya boshlig'i, keyin bog' hamda ajib bir qiyofada boladay iljayib turgan go'zal qiz lip etib o'tdi...

Men vagondan boshimni chiqarib, orqaga qaradim, go'zal qiz poezdni kuzatib, telegrafist o'tirgan xona derazasi oldidan platforma bo'ylab o'tdi-da, sochlarini to'g'rilab, g'irillaganicha bog'ga kirib ketdi. Endi g'arb tomonni vokzal binolari to'sib turmas, sayxonlik ochiq, ammo kun botgan va pag'a-pag'a bo'lib burqirayotgan qop-qora tutun ko'k duxoba singari mavj urib turgan kuzgi ekinlar uzra yopilmoqda edi. Bahor havosi ham, qorayib borayotgan osmon ham, vagon ichi ham g'amgin edi.

Vagonimiz konduktori kirib, shamlarni yoqa boshladi.

***Rus tilidan
A. Aliyev
tarjimasi***

KO'NGILSIZLIK

Zemstvo vrachi Grigoriy Ivanovich Ovchinnikov o'ttiz besh yoshlarga borgan ozg'in va asabiy kishi bo'lib, o'rtoqlari orasida o'zining meditsina statistikasi bobidagi andak ishlari va «maishiy masala» deb atalgan narsaga mukkasidan ketganligi bilan mashhur edi. Bir kuni u ertalab palatalarni obxod qila boshladi. Vrach orqasidan, odatdagidek uning feldsheri, keksayib qolgan, yuzlari lo'ppi, moylangan sochlari silliq taralgan, qulog'iga zirak taqqan Mixail Zaxarovich ergashib borardi.

Doktor kasallarni endi ko'ra boshlagan ediki, bema'ni bir narsa juda shubhali bo'lib ko'rindi, masalan: feldsherning nimchasi qat-qat buklanib qolgan bo'lib, qayta-qayta tortib, silab qo'ysa ham, dikkayib turaverdi. Uning g'ijimlangan sarochkasi ham shunaqa dikkayib tirardi; uzun qora kamzulida, chalvorida va hatto galstugining u yer bu yerida oq par ko'rinib turardi,.. Chamasi feldsher bugun kechasi yechinmasdan yotganu shunday turib, jiletkasini tortib-tortib tekislab, galstugini to'g'rilab kelavergan. Uning harakatidan kiyimi siqib turganga o'xshardi.

Doktor unga tikilib razm soldi-yu, ahvolini tushundi. Feldsher gindiraklamas, savollarga ravon javob berar, lekin uning badqovoq, karaxt yuzi, nursiz ko'zlari, bo'yni va qo'llarining qaltirab

turishi, kiyimining g'ijimlangani, hammadan ham, zo'r berib o'zini tutib turishga urinishi va o'z ahvolini yashirish uchun qilayotgan harakatlari — uning hozirgina o'rnidan turganidan, uyquga to'yman va mast ekanidan, kechadan buyon mast ekanidan darak berardi... U ichkilik «jabrini» tortar, aftidan, qilmishiga juda pushaymon edi.

Feldsherni xush ko'rmaydigan va buning uchun sabab topib qo'ygan doktor: «Ko'rib turibman, siz mastsiz!» demoqchi bo'ldi-yu, biroq feldsherning nimchasi, ro'dapo kamzuli, sergo'sht qulog'ida oslib turgan ziragi juda hunuk ko'rinib ketdi-da, o'zini bosib olib, har qachongiday yumshoq va muloyimlik bilan:

— Gerasimga sut berdinglarmi? — dedi.

— Berdik... — deb javob berdi Mixail Zaxarich ham yumshoqqina.

Doktor bemor Gerasim bilan gaplasha turib harorat varaqasiga nazar soldi-yu, fig'oni chiqib ketdi; keyin qattiq gapirib yubormaslik uchun nafasini ichiga olib turdi, biroq toqati toq bo'lib, bo'g'ilib ketdi va dag'allik bilan so'radi:

— Nega harorati yozilmay qoldi?

— Yo'g'-e, yozilgandir! — dedi muloyimgina qilib Mixail Zaxarich, lekin varaqaga ko'z yugurtirib, chindan ham harorat yozilmaganiga ishonch hosil qilgach, kalovlab, yelkasini qisib, ming'illadi: — bilmadim, buni haligi, Nadejda Osipovka...

— Kecha kechqurungisi ham yozilmagan! — deb so'zida davom etdi doktor. — Nuqul piyanistalik qilish bilan ovorasiz, jin ursin sizni. Hozir ham o'larday mastsiz! Nadejda Osipovna qani?

Akusherka Nadejda Osipovna palatada yo'q, u har kuni ertalab perevyazka vaqtida qatnashar edi.

Doktor atrofiga razm solgan edi, palata yig'ish-tirilmagan, hamma narsa chochilib yotibdi, lozim bo'lgan ishlardan birontasi qilinmagan, hamma narsa xuddi feldsherning jirkanch mimchasiday iflos edi; u ustidagi oq fartugini shartta yechib, baqirib, urishib, tuflab chiqib ketguday bo'ldi-yu, lekin bazo'r o'zini bosib, obxodni davom ettirdi.

Doktor Gerasimdan keyin, o'ng qo'li butun yallig'langan kasalga qaradi. Unga perevyazka qilish kerak edi. Doktor uning oldidagi taburetkaga o'tirib, qo'lini ko'ra boshladi.

«Mana shu, bular kecha imeninada maishat qilishgan... — deb o'yladi u sekin o'rovni ocha turib. — To'xtab turinglar, imeninalaringni chiqarib qo'yaman! Zotan men nima ham qila olardim? Qo'limdan hech narsa kelmaydi».

Doktor qip-qizil, bo'rtib yotgan qo'lning yiringlagan yerini bosib ko'rib:

— Skalpel!⁵ — dedi.

O'zini bardam va bemalol ishga yaraydigan holatda qilib ko'rsatishga urinayotgan Mixail Zaxarich irg'ib o'rnidan turib, darrov skalpelni uzatdi.

— Buni emas! Yangisidan olib bering, — dedi dojtor. Feldsher yo'rg'alab borib, perevyazka anjomlari solingan yashik turgan stulni titkilab qoldi. U, kasal boquvchi ayol bilan allanimalar deb shivir-shivir qildi, stuldagi yashchikni hali u yoqqa, hali bu yoqqa surdi, narsalarini shitirlatdi, ikki marta nimanidir tushirib yubordi. Doktor esa qarab o'tirardi, shivir-shivir va shaqir-shuqurdan asabi qattiq qo'zg'alib ketganimi sezib turardi.

— Qani? — deb so'radi u. — Pastda krlidirib chiqqandirsiz...

⁵ Skalpel — xirurgiya nishtari.

Feldsher yugurib doktorning oldiga keldida, ikkita skalpel uzatarkan, o'zini chetga olmay, doktorga qarab dam urdi.

— Bular emas! — dedi doktor asabiylashib.
— Men sizga rus tilida gapiryapman, yangisidan bering. Ha, boring, bir uxlab, o'zingizga kelih oling, sizdan qovoqxona hidi kelyapti! Esmgizni yeb qo'yibsiz!

— Sizga yana qanaqa pichoq kerak? — deb so'radi feldsher asabiy bir holda va sekin yelkasini qisib qo'ydi.

Unga butun kasallar va kasal boquvchi ayollar tikilib turgani alam qildi va uyalib ketdi, o'zining uyalganini bildirmaslik uchun zo'rma-zo'raki kulib turib, yana takrorladi:

— Sizga yana qanaqa pichoq kerak?

Doktorning ko'zlari yoshlamib, barmoqlari titrab ketdi. U o'zini bazo'r tutib, titroq ovoz bilan so'zladi:

— Boring, bir uxlab oling! Men mast odam bilan gaplashishni istamayman...

— Siz meni ish yuzasida jazolashingiz mumkin, — dedi feldsher, — xo'sh, men, aytaylik, basharti ichgan bo'lsam, buni pisanda qilishga hech kimning haqqi yo'q. Axir men ishlayapmanmi? Sizga yana nima kerak! Ishlayapmanmi, axir?

Doktor irg'ib turdi-da, o'ylamay-netmay kuchining boricha qulochkashdab feldsherning basharasiga tushirib qoldi. U, mima uchun shunday qilayotganini o'zi tushunmas, lekin mushti borib xuddi basharaga tekkani, va tuppa-tuzuk, basavlat, bola-chaqali, taqvodor, o'z qadrini biladigan bir odam gandraklab, koptokday sakrab borib taburetda o'tirib qolganidan juda huzur qildi. U astoydil,

yana bir marta urmoqchi edi-yu, lekin, jirkanch vujud qarshisida rangi quv o'chib qo'rqib o'tirgan kasal boquvchi ayolni ko'rib, bu huzuridan kechdi va qo'l silkib, palatadan yugurib chiqib ketdi.

Hovlida unga Nadejda Osipovna duch kelib qoldi; yigirma yetti yoshlarga borgan, oq sariqdan kelgan, sochlari paxmoq bu qiz kasalxonaga kelayotgan edi. Pushti rang chit ko'ylagining etagi juda tor bo'lganidan qadamini juda mayda bosardi. U ko'ylagini shildiratib, xuddi ichida bir sho'xchan qo'shiqni kuylab ketayotganday har qadam bosganida kiftini qoqib, boshini chayqardi.

«Aha, Rusalka!» deb qo'ydi doktor ichida; kasalxonadagilar bu akusherkaga shu laqabni qo'yib olishgandi. Mana hozir o'ziga zeb bergan bu bedana qadam oliftani uzib olaman, deb xursand bo'lib ketdi.

Doktor uning yoniga borish bilan:

— Qayoqda yo'qolib yuribsiz? — deb baqirdi.

— Nega kasalxonada ko'rinmaysiz? Harorat yozilmagan, hamma yoq betartib, feldsher mast, o'zingiz soat o'n ikkigacha uxlab yotibsiz!.. Marhamat qilib joyingizni toping! Endi sizga bu yerda ish yo'q!

Doktor uyga kelishi bilan ustidagi oq fartukni va belbog' qilib olgan sochiqni jahl bilan yulib olib, burchakka uloqtirdi-da, kabinetda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

— Ye tavba, bular qanaqa odamlar o'zi-a, qanaqa odamlar! — deb qo'yardi u. — Bular yordamchi emas, ishbuzarmonlar! Endi ishga darmon qolmadi! Toqat tugadi! Bu yerdan ketaman!

Uning yuragi dukillar, butun vujudi qaltirar, o'pkasi to'lib, hatto yig'lagisi kelardi, yana shu holatdan qutulish uchun u feldsherni urib juda yaxshi

ish qilganini va bunda tamom haqli ekanini o'ylab, o'ziga-o'zi tasalli bera boshladi. Hammadan hunugi shuki, deb o'ylardi doktor: feldsher kasalxonaga o'zidan-o'zi kelib qolgan emas, uni zemstvo mahkamasi raisinikida enaga bo'lib yurgan xolasi dalolat qilgan edi (bu mu'tabar xolasi davolanish uchun kelib, kasalxonada o'zini xuddi uyidagiday tutishi, yana navbatsiz qabul qilinishlari talab etishi alam qiladi). Feldsherning intizomi buzuk, bilimi kam, bilgan narsasini ham butunlay tushunmaydi. U doim mast, qo'rs, qo'li egri, kasallardan pora oladi, kasalxona dorilarini o'g'rincha sotib yuradi. Yana shunisi ham hammaga ma'lumki, uning o'zi kasallarni boqadi va meshchan yoshlarining maxfiy kasallarini davolaydi, buning ustiga o'zi topgan allaqanday dorilarni ishlatadi. Bu shunchaki muttaham bo'lsa mayliydi, unaqalar ko'p, biroq bu o'ziga ishongan va zimdan kemiradigan muttahamlardan. U, qatnab davolanadigan kasallarga doktordan yashirincha banka qo'yadi, ularga qon quyadi, operatsiyaga qo'lini yuvmasdan keladi, yaralarni hamisha iflos zond⁶ bilan kavlaydi, doktorlik meditsinasidan, ilmidan va e'tibor talabligidan qattiq va taptortmay nafratlanayotganini tushunish uchun shuning o'zi kifoya.

Doktor barmoqlarining qaltirog'i bosilguncha kutib turdi-da, keyin stolga o'tirib, mahkama raisiga xat yozdi: «Hurmatli Lev Trofimovich! Agarda mazkur xatni olish bilan mahkamangiz feldsher Smirnovskiyni bo'shatib va menga o'z yordamchilarimni o'zim tanlash huquqini bermasa, unda meni bundan buyon N kasalxonasining vrachi deb bisoblamasligingizni (pushaymon qilmayman,

⁶ Zond — rezinka ichak.

albatta) va o'rnimga boshqa kishi topish to'g'risida g'amxo'rlik qilishingizni so'rashga majburman. Lyubov Fedorovna va Yusga mendan salom. Hurmat bilan G. Ovchinnikov». Doktor bu xatni o'qib chiqib, uni juda qisqa va bo'sh yozilgan deb topdi. Buning ustiga, ishga taalluqli, rasmiy xatda Lyubov Fedorovna va Yusga (raisning kichik o'g'lini shunday deb erkalatishardi) salom aytish mutlaqo o'rinsiz edi.

«Bu yerda Yusga balo bormi?» deb qo'ydi ichida doktor va xatni mayda-mayda qilib tashlab, yana qaytadan bosh qotirib qoldi. — «Muxtaram janob...» deb o'yladi ochiq deraza oldida o'tirib tashqariga qararkan; shu choq tashqarida bir to'da o'rdaklar bolalarini ergashtirib lapanglashib va qoqila-suqila hovuz tomonga yugurishayotgan edi; bitta o'rdak bolasi yo'lda allaqanday bir ichakni topib oldi-da, yutolmay, qattiq chiyillab yubordi; keyin boshqasi yugurib borib, uning og'zidagi ichakni tortib oldi, u ham yutolmadi... Hu narida, devor oldida, yosh lipa daraxtlari olachalpak soya tashlab turgan o'tloqda oshpaz xotin Darya imirsib yurib, sho'rvaga solish uchun shovil termoqda... Har xil ovozlari eshitilardi... Qo'lida yuganchasini ushlab turgan izvoshchi Zot bilan kir fartuk kiyib olgan kasalxona xizmatchisi Manuylo ikkalasi saroy oldida turib, bir narsalarni gaplashib kulishardi.

«Ular feldsherni urganim to'g'risida gaplash-yapti... — deb o'yladi doktor. — Bu janjalni shu bugunoq butun uezd biladigan bo'ldi... Shunday qilib: «Muhtaram janob! Agar sizning mahkamangiz feldsher Smirnovskiyni...»

Doktorning shunga ishonchi komil ediki, mahkama hech qachon uni feldsherga alishmaydi

va butun uezdda bitta feldsher qolmagan taqdirda ham Ovchinnikovday e'tiborli odamdan ajralishga rozi bo'lmaydi. Ehtimol, Lev Trofimovich bu xatni olishi bilan uch otlik izvoshga o'tiradi-yu, g'irillab doktorning oldiga keladi-da, aytadi: — Ey otaxon, nimalar deyapsiz? O'zi nima gap, azizim? Xudo xayringizni bersin! Xo'sh? Bu qanday bo'ldi? Qani u? Firibgarni bu yoqqa keltiring! Haydang! Albatta haydab yuboring! U iflosning ertagayoq bu yerda nishoni ko'rinmasin!» — keyin u doktor bilan birga obed qiladi, obeddan keyin esa manavi malina rang divanda chalqancha yotadi, yuzini gazeta bilan bekitib, xurrak otadi; uyqidan turgach, choy ichadi-da, keyin doktorni uyiga olib ketib shu kecha olib qoladi. Nihoyat, pirovardida shunday bo'ladiki, feldsher ham kasalxonada qoladi, doktor ham iste'fo bermaydi.

Doktor esa ko'nglida voqianing bunday tamom bo'lishini istamasdi. U, feldsherning xolasi yutib chiqishini va shu bilan mahkama, uning sakkiz yillik halol xizmatiga ham qaramasdan, so'zsiz va hatto jon-dil bilan iste'fosini qabul qilishini istardi. U, o'zi o'rganib qolgan kasalxonasidan qanday ketishini, «Vrach» gazetasiga xat yozishini, uni o'qib o'rtoqlari achinib qanday nomalar yozishini o'ylab ketdi...

Yo'lda Rusalka ko'rinib qoldi. U bedana yurish bilan ko'ylaklarni shildiratib, oyna oldiga keldi-da, so'radi:

— Grigoriy Ivanovich, kasallarni o'zingiz qabul qilasizmi, yoki o'zlari qabul qilishaversinmi?

Qizning ko'zlari go'yo: «Sen qizishib ketgan eding, lekin endi o'zingga kelding, mana hozir uyalib o'tiribsan, ammo men mardlik qilib bunga parvo qilayotganim yo'q» deyayotganday edi.

— Yaxshi, men hozir boraman, — dedi doktor.

U yana fartugini kiydi, belini sochiq bilan bog'ladı-da, kasalxonaga jo'nadi.

«Uni urgandan keyin, chiqib ketganim yomon bo'ldi... — deb o'yladi doktor, yo'l-yo'lakay. — Xuddi men izza bo'lganday, yoki qo'rqqanday bo'lib chiqdi... Yosh boladay bo'lib qoldim... Juda noqulay bo'ldi-da!»

Doktorning nazarida palataga kirganda kasallar unga qarashga hijolat tortadi-yu, o'zi ham uyalib ketadiganday tuyildi; lekin u kasalxonaga kirganda kasallar krovatlarida jimgina yotishaverdi, unga uncha e'tibor ham berishmadi. Sil bo'lib yotgan Gerasimning yuzida butunlay beparvolik aks etar va go'yo: «U seni oyoq osti qilolmadi, sal eshushiga keltirib qo'yding... Busiz iloji yo'q, azizim» deyayotganday bo'lardi.

Doktor, qip-qizil bo'rtib yotgan qo'lning ikki yeridan yiring topdi-da, unga povyazka qo'ydi, keyin xotin-qizlar bo'limiga bordi, u yerda bir xotinning ko'zini operatsiya qildi, Rusalka doktorga ergashib yurib, go'yo orada hech narsa o'tmaganday, bemalol unga yordamlashib turaverdi. Obxoddan so'ng qatnab boqizadigan kasallarni qabul qilish boshlandi. Doktorning kichkinagina qabulxonasida derazalar lang ochiq edi. Deraza tokchasiga o'tirib, xiyol egilib qarasa, bir oz naridagi ko'm-ko'k maysani ko'rish mumkin edi. Kecha kechqurun momoqaldiriq bilan qattiq jala quygani uchun o'tlar bir oz egilib, yaltirab turardi. Xiyol nariroqda soyga boradigan so'qmoq yo'l xuddi yuvilganday va ikki tomonida sochilib yotgan siniq-mertik dori shishalari ham xuddi yuvilganday, quyosh nurida tovlanib, ko'zmi qamashtirguday yaltirab yotardi So'qmoq yo'lning

narirog'ida ko'k libosga o'ralgan yosh archalar tizilishib ketgan, undan narida tanalari qog'ozday oppoq qayinlar turibdi, shamoldan yengilgina silkinib turgan ko'm-ko'k qayin shoxlari orasida esa bepoyon moviy osmon ko'rinib turadi. Qarab tursang, so'qmoq yo'lda dikillab yurgan chug'urchuqlar goh oyna tomonga tumshug'ini burib: qo'rqsakmikan yo yo'qmi? deb o'ylab qolishar va qo'rqib, birm- ketin chug'ullashib, xuddi doktor ucholmayotgani uchun uni yupatayotganday tepasidan o'tib, oq qayinlarning uchiga chiqib ketishardi...

Iodoformning achchiq isi orasidan bahorning sof va xushbo'y hidi sezilib turardi... Havo qanday yaxshi! Nafas olish yengil.

— Anna Spiridonova! — deb chaqirdi doktor. Qabulxonaga qizil ko'ylakli yoshgina juvon kirdi-da, ikonaga qarab cho'qinib qo'ydi.

— Qaeringiz og'riydi? — deb so'radi doktor. Juvon bir oz hadiksirab, o'zi kirib kelgan eshikka ko'z qirini tashlab qo'ydi-da, keyin aptekaga chiqadigan eshik oldiga, doktorga yaqinroq kelib turib:

— Bo'yimda bo'lmayapti! — deb shivirladi.

— Yana kim yozilmay qoldi? — deb qichqirdi aptekadan Rusalka. — Kelib yozilinglar!

Doktor juvonni ko'rayotib o'ylar edi: «u shuning uchun ham hayvonki, umrida birinchi marta meni musht urishga majbur qildi. Men onadan tug'ilib urishmagan edim».

Anna Spiridonova ketdi. Undan keyin bema'ni bir kasal bilan og'rigan chol, so'ngra qo'tir bo'lgan bir xotin uch bolasi bilan kirib keldi, ish boshdan oshib ketdi. Feldsher mutlaqo ko'rinmadi. Eshik orqasidagi aptekada ko'ylagini shildiratib

va idishlarni jaranglatib, bidir-bidir qilib Rusalka yurardi; u operatsiyaga qarashayotganda ham, retsept olish uchui qabulxonaga kirib qolganda ham, o'zini ishlar joyida deganday tutardi.

«Men feldsherni urganimga u juda xursand bo'lsa kerak, — deb o'yladi doktor, akusherkaning ovozigga quloq solib. — Axir feldsher ikkalasi it-mushuk edi-da, agar uni bo'shatib yuborishsa, Rusalkaga bayram bo'ladi. Kasal boquvchi ayollar ham, xursandga o'xshaydi... O'zi ham juda rasvo odam-da!»

Qabul marosimining eng qizg'in paytida doktorning nazarida akusherka ham, kasal boquvchi ayollar ham, hatto kasallar ham o'zlarini jo'rttaga beparvolikka solib, quvnoq ko'rsatishga urunayotganday edi. Ular go'yo doktorning xijolat tortayotganini bilardilar, ammo sipolik qilib o'zlarini bilmaslikka solardilar. Doktor ham o'zini mutlaqo xijolat tortmayotgan qilib ko'rsatmoqchi bo'lib, jabl bilan qichqirib:

— Hoy, kim bor! Eshikni yoping, uy g'urillab ketdi! — dedi.

Aslida doktor hijolat tortar va qiynalar edi. U, qirq beshta kasalni qabul qilib, kasalhrnadan asta-sekin chiqdi. Akusherka bu orada uyga borib, lola rang ro'molchasini yelkasiga solib, og'zida papiros, paxmoq sochiga gul taqib shosha-pisha qayoqqadir jo'namoqda edi; praktikaga yoki mehmonga borayotgan bo'lsa kerak. Kasalxona ostonasida kasallar o'zlarini oftobga solib, jimgina o'tirishardi. Chug'urchiqlar boyagiday chug'urlashib, qo'ng'izlarni quvib yurishardi. Doktor atrofga qarab o'ylab qoldi: mana shu bir zayil, tinchgina hayotda feldsher bilan uning hayoti, xuddi fortopyanoda buzilib qolgan

ikkita klavishday ajralib, hech narsaga yaroqsiz ko'rinar edi. Feldsher hozir uxlagani yotgandir, lekin o'zining aybdorligi, tahqir etilganligi va ish joyidan mahrum qilinganini o'ylayverib, uyqisi kelmayotgan bo'lsa kerak. U qiyin ahvolda. Axir, ilgari hech kimga qo'l tekizmagan doktor hozir o'zini nazokatdan butunlay mahrum bo'lganday sezmoqda-ku. Endi u hozir feldsherni ayblayotgani va o'zini oqlayotgani yo'q, faqat hayron qolyapti: o'zi qanaqa ish bo'ldi bu. Umrida birorta itni ham urmagan, tuppa-tuzuk odam feldsherni ura-ya! O'z kvartirasiga kelgach, kabinetga kirib, divanga yotdi-da, suyanchig'iga o'girilib olib, o'ylab ketdi:

«U-ku, mazasi yo'q, ishga zarar beradigan odam; u ishlayotgandan buyon o'tgan uch yil mobaynida rosa qonim qaynadi, lekin bari bir mening qilmishlarimni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Men kuchli odam huquqidan foydalandim. U menga qarashli odam, gunohkor va buning ustiga mast, men bo'lsam, uning boshlig'i, haqli va hushyorman... Demak men kuchliroqman. Ikkinchidan, men uni, o'zimni e'tiborli deb hisoblaydigan odamlar oldida urdim va shunday qilib, men ularga eng yaramas qilig'imni ko'rsatdim...»

Doktorni obedga chaqirishdi... U shchidan bir necha qoshiq ichdi-da, o'rnidan turib, yana divanga yotdi.

«Endi nima qilish kerak? — deb o'yladi yana u. — Uni iloji boricha tezroq ko'nglini olish kerak... Biroq qanday yo'l bilan? Tadbirli odam bo'lgani uchun duelni u ahmoqlik deb biladi yoki tushunmaydi. Bordi-yu, anavi, o'sha palataming o'zida kasal boquvchi ayollar va bemorlar oldida afv so'rasam, bu narsa uni emas, faqat o'zimni qanoatlantiradi,

u yaramas odam mening afv so'rashimni ustimdan boshliqlarga shikoyat qilmasin deb qo'rquyapti, deb tushunadi. Buning ustiga mening afv so'rashim, pirovardida kasalxona intizomini bo'shashtirib yuboradi. Unga pul taklif qilib ko'rsammikan? Yo'q, bu axloqsizlik bo'ladi va poraga o'xshab qoladi. Agar, hozir, aytaylik, masalani hal qilish uchun o'zimizning bevosita boshlig'imizga, ya'ni mahkamaga murojaat qilsak-chi... Mahkama menga vigovor berishi, yoki ishdan bo'shatib yuborishi mumkin... Biroq u bunday qilmaydi. Ha, undan keyin, kasalxonadagi xususiy ishlarga mahkamaning aralashib yurishi uncha kelishmaydi ham, darvoqi, bunga hech qanday haqi ham yo'q-da, axir...»

Obeddan so'ng uch soatdan keyin doktor cho'milgani hovuzga keta turib o'yladi:

«Shunaqanggi ahvollar ro'y berib qolganda boshqa odamlar mima qilsa, men ham shunday qilaversam-chi? Ya'ni, mayli u meni sudga bersin. Men so'zsiz aybdorman, o'zimni oqlab ham o'tirmayman va sudya meni qamoqqa hukm qiladi. Shunday qilib, tahqirlangan odam qanoatlanadi va meni e'tiborli deb bilgan kishilar oldida men haqsiz bo'lib chiqaman».

Mana shu g'oya unga ma'qul tushdi. U xursand bo'lib ketdi va go'yo hamma ish joyida, masala hal bo'ldi, so'ngra masalaning bundan ko'ra adolatliroq hal bo'lishi mumkin emas, deb o'yladi.

«Xo'sh, juda soz-da! — deb o'yladi doktor suvga tushayotib va undan cho'chib gala-gala qochayotgan mayda tilla tovon baliqlarni tomosha qilib turib. — Bersa beraversin... Qaytaga unga shunisi qulay, chunki bizning xizmat munosabatimiz allaqachon uzilib bo'ldi va shuncha janjaldan

keyin, bari bir, ikkalamizdan birimiz kasalxonadan jo'nashimiz kerak...»

Kechqurun doktor harbiy boshliq oldiga borib qarta o'ynab kelish uchun arava qo'shishga buyruq berdi.

U paltosini, shlyapasini kiyib, yo'lga butunlay taxt bo'lgan va kabinet o'rtasida turib qo'lqopini kiyayotgan edi, ko'cha eshik g'iyq etib ochildi-da, kimdir sekingina dahlizga kirdi.

— Kim bu? — deb so'radi doktor.

— Menman... — deb sekin javob berdi kirgan odam. Doktorning birdan yuragi dukillab, uyalganidan va allaqanday tushunib bo'lmaydigan qo'rquvdan uning etlari uvishib ketdi. Feldsher Mixail Zaxarich (kelgan kishi shu edi) sekingina yo'talib qo'ydi-da, qo'rqa-pusa kabinetga kirdi. Bir oz jim turgandan so'ng u, aybdor kishiday past ovoz bilan dedi:

— Meni kechiring, Grigoriy Ivanich!

Doktor sarosimaga tushib, nima deyishini bilmay qoldi. Feldsher xristianlarga xos bo'ysunish bilan haqorat qiluvchini yakson etish maqsadida oyog'iga bosh urib afv so'ragani kelmaganini doktor bildi. Feldsher: «O'zimni bosib turib, afv so'rayman, shoyad meni haydab, yeb turgan nonimdan mahrum etmasa...» deb kelgan edi. Inson qadri-qimmati uchun bundan ko'ra haqoratliroq narsa bormi?

— Kechiring... — deb takrorladi feldsher.

— Menga qarang... — deb gap boshladi doktor, unga qaramaslikka tirishib va hamon nima deyishini bilmasdan. — Menga qarang... men sizni haqorat qildim, buning uchun... buning uchun jazoimni tortishim, ya'ni sizni qanoatlantirishim kerak... Duelni siz inobatga olmaysiz... Rost,

buni men o'zim ham inobatga olmayman. Men sizni haqoratladim, endi siz... mening ustimdan sudyaga shikoyat qilishingiz mumkin va jazoimni tortaman... Bu yerda ikkimizning qolishimiz mumkin emas... Ikkimizdan birimiz, ketishimiz kerak! («Yo tavba! Men unga bunaqa demoqchimasdim-ku! — xavfsirab ketdi doktor. — Tentaklik bu, tentaklik!») Xullas, arznoma bering! Endi biz bundan buyon birga ishlay olmaymiz!.. Yo men turay yo siz... Ertagayoq bering!

Feldsher doktorga xo'mrayib qaragan edi, uning qop-qora, xira ko'zlarida zo'r nafrat ifodasi chaqnab ketdi. U hamisha doktorni so'zda bor-u, ishda yo'q, injiq bir yosh bola deb hisoblardi, hozir esa uning titrab-qaqshashi va poyintar-soyintar gapirishlari feldsherining nafratini qo'zg'atib yubordi...

— Beramanam-da, — dedi u jahl bilan qovog'ini solib.

— Ha, bering-da!

— Xo'sh, siz nima deb o'ylovdingiz? Bermaydi debmi? Beramanam-da... Sizning urishga haqingiz yo'q. Bunday uyalsangiz ham go'rga edi-ya! Odatda faqat mast mujiklarga mushtlashadi, siz ma'lumotli odamsiz-a, yana...

Doktorning qalbidagi butun g'azabi to'satdan olovlanib ketdi-yu, birdan baqirib yubordi:

— Jo'nang, bu yerdan!

— Feldsher turgan joyidan istar-istamas qo'zg'aldi (u xuddi yana biror nima demoqchiga o'xshardi), dahlizga chiqib ketdi-da, o'sha yerda xayol surib qoldi. Keyin, allanimani o'ylab bo'lgach, keskin qadam bilan chiqib ketdi...

— Qanday tentaklik, qanday tentaklik-a! — deb g'o'ldiradi doktor u ketishi bilan. — Hammasi tentaklik va bema'nigarchilik!

U hozir feldsherga xuddi yosh bolalarcha muomala qilganligini sezdi va shuni ham tushunib qoldiki, uning sud haqidagi o'ylaganlari masalani hal qilish emas, qayta chigallashtirib yubordi.

«Qanday tentaklik qildim-a! — deb o'yladi u sharabanga chiqayotib va undan keyin harbiy boshliq bilan qarta o'ynab turib. — Nahotki men shu qadar kam ma'lumotli bo'lsam va hayotni shu qadar kam bilsam, mana shu oddiygina bir masalani hal qilishga ham qurbim yetmasa? Xo'sh, nima qilish kerak?»

Ertasiga ertalab doktor, feldsherning xotini qayoqqadir bormoqchi bo'lib, aravaga chiqayotganini ko'rib qoldi-da: «Ana, xolajonlariga ketyaptilar. Boraversin!» dedi ichida.

Kasalxona feldshersiz obxod qilindi. Mahkamaga ariza yozish kerak edi-yu, lekin doktor xatning formasini hali ham o'ylab ololmagan edi. Endigi xatning mazmunidan: «Garchi, aybdor u emas, men bo'lsam ham, feldsherni bo'shatib yuborishingizni so'rayman» degan ma'no chiqishi kerak. Axir durustgina odamni uyatga qoldirmay bu mazmunni bayon qilishning iloji yo'q-ku.

Gradan ikki-uch kun o'tgach, feldsherning Lev Trofimovich oldiga borib shikoyat qilgani to'g'risida doktorga xabar berishdi. Rais uni bir og'iz ham gapirtirmasdan, depsinib: «Men seni bilaman! Yo'qol! Gapingni ham eshitmayman!» deb so'kib chiqarib yuboribdi.

Feldsher Lev Trofimovichning oldidan chiqib to'g'ri mahkamaga boradi, va u yerda tarsaki yegani to'g'risida miq etmasdan hamda hech narsa so'ramasdan turib, doktor mening huzurimda mahkamani va raisni bir necha bor so'kdi, kasallarga

ham yaxshi qaramaydi, uchastkalarga borganda ham chalakam-chatti ish qiladi va hokazo deb, ig'vo tarqatadi. Bularni eshitgandan keyin doktor kulib yubordi va «Obbo ahmoq-ey!» deb qo'ydi ichida. Doktor ham xijolat tortar, ham feldsherning tentakligiga achinar edi; kishi o'zmi muhofaza qilish uchun qancha ko'p bema'nigarchilik qilsa, shuncha nochor va zaifligini ko'rsatadi.

Rosa uch haftadan keyin ertalab doktor suddan povestka oldi.

«Bu endi o'taketgan bema'nigarchilik... — deb uyladi u povestkani olishga qo'l qo'ya turib. — Bundan ko'ra bema'niroq narsani o'ylab ham topib bo'lmaydi».

U sudga ketayotgan kuni ertalab havo bulut va osoyishta edi; doktor shu paytda uyalmadi, unga alam qildi va ta'bi juda xira bo'ldi. U, o'zidan ham, feldsherdan ham, butun vaziyatdan ham diqqat bo'lib...

«Sudda to'ppa-to'g'ri shunday deyman, — dedi jig'ibiyroni chiqib, — bu yerdan yo'qollaring, jin ursm sizlarni! Hammangiz eshaksizlar, hech baloga tushunmaysizlar!»

U, sud kamerasi oldiga kelganda ostonada o'zida kasal boquvchi xotinlardan uchtasini va Rusalkani ko'rdi, bular guvoh sifatida chaqirilgan edilar. Xotinlarni va toqati toq bo'lganidan hadeb oyoqlarini chalishtirib turgan akusherkani ko'rgach va hatto akusherka bo'lajak protsessning bosh qahramonini ko'rish bilan huzur qilib kulib yuborgandan keyin, jaxli chiqib ketgan doktor xuddi ularga qirg'iyday chang solib: «Kasalxonadan ketishga sizga kim ruxsat berdi? Shu minutdayoq jo'nang!» deb hammasini dovdiratib qo'ymoqchi

bo'ldi-yu, ammo o'zini bosdi; o'zini bamaylixotir qilib ko'rsatishga tirishib, bir to'da odamlar orasidan o'tib kameraga kirdi. Kamera bo'm-bo'sh va sudning zanjiri kreslo suyanchig'ida yotgan edi. Doktor ish yurituvchining xonasiga bordi. U, bu yerda yuzlari qotma, kolomenka pidjagining cho'ntaklari do'ppayib turgan yosh yigitni ko'rdi, bu ish yurituvchi edi; shu yerda feldsher ham stol yonida o'tirib, bekorchilikdan sudlanuvchilar to'g'risidagi spravkalarni varaqlab o'tirardi. Doktor kirishi bilan ish yurituvchi o'rnidan turdi; feldsher ham xijolat tortib, o'rnidan turdi.

— Aleksandr Arxipovich hali kelgani yo'qmi?

— deb so'radi doktor uyalinqirab.

— Yo'q hali. Ular uyida... — deb javob berdi ish yurituvchi.

Kamera sudya qo'rg'onidagi uylardan biriga joylashgan bo'lib, sudyaning o'zi esa katta uyda turardi. Doktor kameradan chiqdi-da, asta-sekin uyga qarab yo'l oldi. U borganda Aleksandr Arxipovich yemakxonada samovar oldida turgan edi. Sudya syurtuksiz va jiletkasiz ko'ylakchan, ko'krak tugmachalari yechiq, stol oldida ikkala qo'li bilan choynak ushlab turgan edi; o'ziga bir stakan, xuddi kofega o'xshagan quyuq choy quydi; mehmonni ko'rishi bilan u darrov oldiga boshqa bir stakanni surib oldi-da, salomlashmasdan avval choy quyib:

— Sizga qandlimi yo qandsizmi? — deb so'radi. Sudya bir vaqtlar, bunga juda ko'p bo'ldi, kavaleriyada xizmat qilgan edi; hozirda u, ko'p yillik xizmatlari tufayli o'z xohishi bilan haqiqiy grajdanlik mansablaridan birini egallab olgan, ammo hali ham o'zining harbiy mundirini, harbiy urf-odatlarini tashlamagan. Uning mo'ylovi ham

politsmeysterlarniki singari uzun, shimi baxiyali va qiliqlari, gap-so'zlari harbiycha edi. U boshini sal orqaga tashlab nutqini generallarga xos «mneee...» degan ibora bilan to'ldirib, yelkasini uchirib, ko'zlarini o'ynatib gapirardi. Salom-alik qilganda yoki birovga papiros tutganda tovonlarini tapillatib qo'yardi, yurib ketayotgan paytda esa, shporlarini shunday nozik shiqirlatib yurardiki, shporning har bir ovozidan go'yo uning biror joyi qattiq og'riyotganday tuyilardi. Doktorni choyga taklif etib o'tqizgandan keyin, u o'zining chorpaxil ko'kragi va qornini bir silab oldi-da, chuqur bir nafas olib, dedi;

— Qani, xo'sh... Ehtimol, o'zlarining ko'ngillari araq ichib, zakuska qilishni tusab turgandir? Mne-e?

— Yo'q, rahmat, qornim to'q.

Har ikkalasi ham kasalxonadagi janjal to'g'risida gap ochmaslikning iloji yo'qligini sezib turishar va ikkalasi ham noqulay ahvolda qolgan edi. Doktor jim bo'lib qoldi. Sudya qo'llarini nazokat bilan qulochkashlab, ko'kragini chaqib turgan pashshani tutdi, unga har tomondan diqqat bilan qaradi va qo'yib yubordi, keyin chuqur nafas olib doktorga qaradi-da, dona-dona qilib gapirdi:

— Menga qarang, nima uchun siz uni haydab yubormaysiz?

Doktor uning ovozida achinish ohangini tuydi; birdan o'ziga rahmi kelib ketdi, va so'ngra shu haftada boshiga tushgan mushkilotdan ezilib tinkamadori quriganini sezdi. Nihoyat toqati-toq bo'lib, yuragi yorilguday, stoldan irg'ib turdi-yu, titrab-qaqshab, yuzlarini burishtirib, yelkalarini qisib, gapira ketdi:

— Haydab yuborish! Sizlar nima deb o'y-laysizlar o'zi, xudo haqi... juda g'alatisizlar-da!

Axir, xaddim bormi uni haydashga? Sizlar bu yerda o'tirib, meni kasalxonada o'zi xon, ko'lankasi maydon-u, ko'ngilga nima kelsa shuni qiladi, deb o'ylaysizlar-da! Juda g'alatisizlar-a! Uning xolasi Lev Trofimovichnikida hola boqsin va Lev Trofimovichga Zaxarich singari pismiqlik malaylar zarur bo'lib tursinda, yana uni haydab yuborishga xaddim bormi? Zemstvo biz — vrachlarni sariq chaqaga olmay, har qadamda oyoq osti qilib turgandan keyin, mening qo'limdan nima keladi? Jin ursin hammasiniyam, endi men ishlamayman, mana bo'lgan turgani shu! Ishlamayman!

— Yo', yo', yo'... Siz, jonim, juda vahima qilyapsiz, unday deganda...

— Boshlig'ingiz jon-jahdi bilan bizning hamma-mizni niglistlar deb isbotlashga urinadi, josuslik qiladi va bizdan xuddi o'z kotibiday xizmat qilishni talab etadi. Men yo'q paytimda kasalxonaga kelib, u yerda bemorlar va kasal boquvchi xotinlarni so'roq qilishga qanday haqi bor? Axir, bu haqoratlash emasmi? Xo'sh, anavi telba Semyon Alekseichingizchi, o'zi doim gerdayib yuradi. Qorni to'q va ho'kizday baquvvat bo'lgani uchun meditsinaga mutlaqo ishonmaydi, yana hammaga eshittirib, ko'z oldimizda bizni tekinxo'r deb, ta'na qiladi, bir burda nonni ravo ko'rmaydi! Ha, jin ursin uni! Men ertalabdan kechgacha ishlayman, dam olish degan narsani bilmayman, hamma telba-tezik, taqvodor, islohchilar va shu singari masxarabozlardan ko'ra bu yerda men zarurroqman, axir! Men ish deb sog'lig'imdan ajraldim, lekin mendan minnatdorchilik qilish o'rniga, bir burda nonni ta'na qilishadi! Sizga tashakkurlarimni izhor etaman! Yana har kim birovlarining ishiga tumshug'ini suqishga,

nasihatgo'ylik va nazorat qilishga o'zini haqli deb hisoblaydi! Anavi, sizning maxkamangizning a'zosi Kamchatskiy bo'lsa, Zemstvo majlisida, bizda kaliy aralashmasining ko'p ishlatib qo'yilganligi uchun vrachlarga tanbeh berdi va bizga bundan buyon kokammi ehtiyot qilib ishlatishni tavsiya qildi! Uning o'zi nimani biladi, qani men sizdan so'raychi? Uning nima ishi bor? Nega u sizlarga sud qilishni o'rgatmaydi?

— Be... axir u bezbet xushomadgo'y odam-da, joniginam... Unga parvo qilishning keragi yo'q...

— Xo'p, bezbet, xushomadgo'y odam, lekin sizlar bu vag'vag'ni a'zolikka saylagansiz va unga hamma yoqqa tumshuq suqishga yo'l berib qo'ygansiz-da! Siz bo'lsangiz, iljayasiz! Sizningcha bularning hammasi mayda-chuyda, arzimagan narsalar, lekin, o'ylab ko'ring, axir, bunaqanggi mayda-chuydalar shu qadar ko'pki, xuddi shag'allar yig'ilib tog' bo'lganday butun hayot ham mana shu mayda-chuydalardan tashkil topgan! Endi chiday olmayman! Madorim quridi, Aleksandr Arxipich! Yana bir oz tursam shu yerda, sizni ishontirib aytamanki, og'zi-burniga tushirish emas, hatto birortasini otib qo'yaman! Siz tushuning, axir, mening asablarim, simdan emas, men ham xuddi sizga o'xshagan odamman...

Doktorning ko'zlariga jiqqa yosh to'lib, ovozi ham titrab ketdi; u teskari o'girilib, derazaga qarab oldi. Oraga jimlik cho'kdi.

— Ha, hm, muhtaram... — g'o'ldiradi sudya taraddudlanib. — Ikkinchi tomondan, agar bunday vazminlik bilan o'ylab qaralsa unda... (sudya chivin tutib, ko'zlarini qisib, unga har tomondan qaradi-da, ezib, cbayindi idishga tashladi)... Unda, bilasizmi,

feldsherni haydashdan ham ma'ni chiqmaydi. Haydab yuboring-chi, bari bir o'rniga yana bitta shunaqasi, balki undan badtarrog'i o'tirib oladi. Yuzta odamni almashtirganingiz bilan yaxshisini topolmaysiz... Hammasi ablah (sudya qo'ltig'i tagiga qarab qo'yib, sekin papiros cheka boshladi). Bu yovuz bilan murosa qilish kerak. Men sizga aytib qo'yishim kerakki, hozirgi zamonda siz ishonishingiz mumkin bo'lgan sofdil, idrokli odamni faqat ziyolllar va mujiklar orasidan, ya'ni masalan faqat shu ikki qatlam orasidagina topishingiz mumkin. Siz, aytayllk, pokiza vrachni, olijanob pedagogni, pokiza qo'shchi yoki temirchini topa olasiz, biroq o'rta darajadagi odamlar, ya'ni shunday deb ta'riflash joiz bo'lsa, xalq ichidan chiqib va hali ziyolilargacha borib yetmagan kishilar ishonchsizlik elementlarini hosil qiladi. Shuning uchun ham sofdil va idrokli feldsher, kotib, gumashta va shu kabilarni topish g'oyat og'ir. Favqulodda og'ir! Men Gorox shohi zamonidan buyon adliya sohasida xizmat qilaman va butun xizmatim mobaynida, garchi son-sanoqsiz kotiblarni haydab yuborgan bo'lsam-da, birorta sofdil va idrokli kotibni ko'rganim yo'q. Xalqda axloq intizomi yo'q, printsip ha-a-a-qida gapirmayoq qo'yaqolaylik, men sizga aytsam...

«Nega bularni gapiradi? — deb o'ylab qoldi doktor. — Biz u bilan kerakli narsani gaplashayotganimiz yo'q-ku».

— Mana uzoqqa bormaylik, o'tgan jumada, — deb so'zida davom etdi sudya, — mening Dyujinskiyim, o'zingiz tasavvur eting, shunday bir qiliq qilipti. Kechqurun oldiga allaqanday piyanistalarni chaqiripti, kim blladi deysiz, ular kim ekan, tuniminam o'shalar bilan kamerada

ichkilikbozlik qilib chiqipti. Xushingizga keladimi? Men-ku, ichkilikka hech qarshi emasman-a. Jin ursin seni, ichsang ichaver, ammo nega noma'lum kishilarni kameraga kiritasan? Axir, o'zingiz o'ylang, ishlardan birorta hujjatni, veksels va shu singari qog'ozlarni birpasda o'g'irlab qo'yish mumkin! Bunga nima deysan? O'sha ayshi-ishratdan keyin men, biror narsa yo'qolib qolmadimi deb ikki kungacha hamma ishni ko'zdan kecbirib chiqdim... Xo'sh, bu ablahlarni nima qilardingiz? Haydashmi? Yaxshi — xm... Yana boshqasi bundan battar bo'lmaydi deb, qanday ishontira olasiz?

— Rost, uni qanday qilib haydayman? — dedi doktor. — Odamni haydash faqat gapda onson... Men uning bola-chaqaliligini, och-yalang'ochligini bilib turganimdan keyin, qanday haydab, bir burda nondan benasib qilaman? Bola-chaqasi bilan u qayoqqa boradi?

«Iye, nima balo bo'ldi, o'zi, munaqa demoq-chimasdim-ku!» deb o'ylab qoldi u, o'z xayolini biror aniq fikr yoki biror hissiyot ustida jamlay olmayotganiga hayron bo'ladi. «Buning sababi shuki, men puxta emasman va fikrlashni bilmayman» deb qo'ydi ichida.

— O'rta darajadagi odamga, xaligi siz aytganday ishonib bo'lmaydi, — deb davom etdi. — Biz uni haydaymiz, so'kamiz, afti-basharasiga qarab uramiz, ammo lekin, uning ahvoliga ham qarash kerak-da, axir. U na mujik, na barin, bir dardisar; uning o'tmishi rasvo, hozirda esa oyiga faqat yigirma besh so'm oladi, bola-chaqasi och va birovga qaram, kelajakda ham uniki yana o'sha yigirma besh so'm pul-u, birovga boqim, yuz yil xizmat qilganda ham ahvoli shu-da. Unda na

ma'lumot bor va na mol-mulk; o'qishga va cherkovga borishga vaqti yo'q, bizdan hech narsa eshitmaydi, chunki biz uni yaqinimizga yo'latmaymiz. Shunday qilib u, o'la-o'lguncha durustroq bir turmushdan umid qilmay, chala-yarim ovqat yeb, «mana hozir davlat kvartirasidan haydab yuboradi» deb qo'rqib, bola-chaqasini qaerga qo'yishini bilmay yuraveradi. Shundan keyin ayting-chi, qalay piyanistalik, o'g'irlik qilmasin? Bu yerda printsipga o'rin qoldimi, endi!

«Biz, chamas, ijtimoiy masalalarni hal qilishga o'tib ketdik, shekilli, — deb o'yladi u. — Juda chetga chiqib ketdik, tavbal Bular nimaga kerak o'zi?»

Shu orada jarang-jurung ovoz eshilib qoldi. Kimdir izvosh bilan hovliga kirdi, oldin kamera oldiga bordi, keyin katta uyga kiraverishdagi zina yoniga keldi.

— O'zi keldi, — dedi sudya, derazadan qarab.

— Ana endi ta'ziringizni beradi!

— A, siz, marhamat qilib, meni tezroq jo'nating... — iltimos qildi doktor. — Agar iloji bo'lsa, mening ishimni benavbat ko'rsangiz. Xudo haqi, vaqtim yo'q.

— Yaxshi-yaxshi... Faqat, hali o'zim bilmayman, taqsir, bu ishni men sud qilib o'tirishim kerakmikan. Feldsher bilan sizning munosabatingiz, aytaylik, xizmat yuzasidan bo'lgan, buning ustiga siz uni xizmat vazifasini o'tayotgan paytda tuzlagansiz. Ammo durustgina bilmayman ham. Hozir Lev Trofimovichdan so'raymiz.

Shosha-pisha kelayotgan qadam tovushi va og'ir harsillagan ovoz eshitildi va shu on eshikdan rais — soch-soqoli oppoq, tepakal, soqollari uzun va qovoqlari qip-qizil Lev Trofimovich ko'rinib qoldi.

— Salom berdik... — dedi u harsillab turib. Uf, tavba! Muhtaram sudya, menga kvas bering! O'lganim yaxshi...

U kresloga o'zini tashladi, lekin shu zahoti darrov irg'ib turib, doktorning oldiga bordi va jahl bilan unga o'qrayib, chiyildoq ovoz bilan gapira ketdi:

— Sizdan juda va benihoyat minnatdorman. Grigoriy Ivanich! Xudo haqi hech qachon unutmayman! Do'st kishi bunday qilmaydi! Ko'nglingizga kelmasin-u, lekin sizning tomoningizdan hatto insofsizlik qilingan! Nima sababdan siz menga ma'lum qilmadingiz? Xo'sh, men nima? Kimman, axir? Dushman yoki begona odammi? Sizga dushmanmanmi? Biron vaqt so'zingizni yerda qoldirganmidim? A?

Rais ko'zlarini olaytirib va barmoqlarini silkib, kvas ichdi-da, darrov lablarini artib, davom etdi:

— G'oyat, g'oyat minnatdorman sizdan! Nima sababdan menga ma'lum qilmadingiz? Agarda sizda menga nisbatan qittak ko'ngil bo'lganda, oldimga kelib, do'stlarcha: — «Jonginam, Lev Trofimovich, shunday, shunday vassalom... Ana shunday hodisa ro'y berib qoldi va hokazo...» derdingiz. Men sizga bir zumda hammasini to'g'rilab bergan bo'lardim va bunday janjalga o'rin ham qolmas edi... Anavi ahmoq, xuddi devonaday butun uezdda sandiroqlab, g'iybat qilib, xotinlar orasida chaqimchilik qilib yuripti; siz bo'lsangiz sharmanda bo'lib, ko'ngligizga kelmasin-u, kim biladi nima balolarni qo'zg'ab yuribsiz, sudga berishga o'sha ahmoqni majbur qilgansiz! Sharmandalik, g'irt sharmandalik! Hamma mendan nima gap o'zi, nima asti, deb so'raydi, xo'sh, men-chi, raisman, ammo u yoqda

nimalar bo'lyapti, hech narsani bilmayman, mening sizga aslo keragim ham yo'q-da! G'oyat, g'oyat minnatdorman sizdan, Grigoriy Ivanich!

Rais shunday past egilib ta'zim qildiki, hatto a'zoyi-badani qip-qizarib ketdi, keyin derazaga kelib baqirdi:

— Jigalov, Mixail Zaxarichni bu yoqqa chaqir! Ayt, shu topdayoq kelsin! Yaxshi emas-s! — dedi u, derazadan nari borib. — Hatto mening xotinim ham ranjidi, xo'sh, nima sababdan, chamasi, sizga muruvvat qilsa kerak-da! Siz, afandim, juda bilarmonlik qilib yuboribsiz! Oqilona bo'lsin deb har xil printsiplar va turli qiliqlar qilasiz, lekin chalg'itasiz, xolos.

— Siz nuqul tavakkal qilaverasiz, xo'sh nima chiqyapti? — deb so'radi doktor.

— Nima chiqyaptimi? Shu narsa chiqyaptiki, agar men hozir bu yoqqa kelmaganimda, siz o'zingizni ham sharmanda qilardingiz, bizni ham... baxtingizga men kelib qoldim!

Feldsher kirib, ostonada to'xtadi. Rais unga yondamasiga turib, qo'llarini cho'ntagiga tiqib oldida, bir yo'talib, dedi:

— Hozir doktordan uzr so'ra!

Doktor qip-qizarib, boshqa uyga kirib ketdi.

— Mana, ko'rdingmi, doktor sening uzringni qabul qilgusi kelmayapti! — deb davom etdi rais.

— U seni, tovbangni so'zda emas, balki ishda ko'rsatishlngni istayapti. Bugundan boshlab itoat qilishga va doim hushyor bo'lishga so'z berasanmi?

— Beraman... — deb qovog'ini osiltirib to'ng'illadi feldsher.

— Ko'zingmi och! Xudo ko'rsatmasin! Bir mo'ylov qilsammi, joydan ajralasan qolasan! Endi

biror gap bo'lsa, mendan yaxshilik kutib o'tirma... Qani, jo'na uyingga...

Ishning bu yo'sinda hal bo'lishi o'z xo'jasi bilan yarashib olgan feldsher uchun hech kutilmagan baxt bo'ldi. U sevinganidan hatto rangi oqarib ketdi. Feldsher biror narsa demoqchi bo'lib, qo'lini cho'zdi-yu, lekin hech narsa demadi, faqat ma'nosizgina iljayib chiqib ketdi.

— Ana, ish tamom! — dedi rais. — Endi hech qanday sudning ham keragi yo'q.

U yengil tortib nafas oldi-da, shu topda xuddi juda og'ir va muhim bir ish qilib yuborganday samovar va stakanlarga qarab qo'ydi va qo'llarini ishqalab turib dedi:

— Xudo halloq... Menga bir qultum quy-chi, Sasha. Ha, aytganday, avval zakuskaga biror narsa olib kelgin... Keyin, oqidan...

— Bu mumkin emas, janoblar! — dedi doktor oshxonaga kirayotib; u hamon qizarib-bo'rtib injiqlik qilar edi. — Bu... bu komediya-ku! Bu qabihlik! Men chiday olmayman! Masalani bunaqanggi masqarabozlik bilan hal qilgandan ko'ra yigirma marta sudlashgan yaxshi, yo'q, men chiday olmayman!

— Sizga nima kerak, axir? — dedi rais unga g'ijinib. — Haydashmi? Mayli, haydab qo'ya qolay...

— Yo'q, haydash emas... Menga nima kerakligini o'zim ham bilmayman, lekin, janoblar, hayotga bunday munosabatda bo'lish... Ey, xudoyim-ey!

Doktorning asabi qaynab besaranjom bo'lib qoldi, shlyapasini qidirdi, topolmadi va darmoni qurib kresloga o'zini tashladi.

— Qabihlik! — deb yana takrorladi u.

— Jonginam, — dedi pichirlab sudya, — ba'zan sizga ham tushunolmayman, bunday qaraganda... Axir bu ishda siz aybdorsiz-ku! Un to'qqizinchi

asrning oxirida birovning basharasiga qarab tushirish — bu, men sizga aytsam, nima desangiz deyavering-ku, bo'lmaydi-da... To'g'ri, u ablah, biro-o-oq, xo'p deyavering, siz ham ehtiyotsizlik qilib yuborgansiz...

— Albatta-da! — dedi rais.

Araq va zakuska keltirishdi. Xayrlashuv oldidan doktor ham beixtiyor bir ryumka ichib yuborib, rediska bilan zakuska qildi. U kasalxonaga qaytib kelgan paytda uning fikrini xuddi kuz ertasidagi mayسادay tuman qoplagan edi.

«Nahotki, — deb o'yladi u, — so'nggi haftada tortgan shuncha azob-uqubatlار, bosh qotirishlar va aytilgach gaplar — oqibat shu qadar bema'migarchilik bilan tugasa! Qanday tentaklik! Qanday tentaklik!»

U o'zining shaxsiy masalalariga yot kishilarni aralashtirib qo'ygani uchun uyaldi, bu kishilarga aytgan gaplari va odati bo'yicha o'ylab o'tirmay aroq ichib yuborgani uchun uyaldi, o'zining tushunib yetmagan, sayoz aqlidan hijolat tortdi... U kasalxonaga kelishi bilan shu zahoti obxod qila boshladi. Yonida feldsher, xuddi muloyim mushukday iymānib, savollarga yumshoq javob berib yurardi... Feldsher ham, Rusalka ham, kasal boquvchi ayollar ham o'zlarini, go'yo hech narsa bilmaganday va hamma ish joyida deganday bir qiyofada tutar edilar. Doktor ham kuchining boricha o'zini beparvo qilib ko'rsatishga urunardi. U buyruq berar, jahl qilar, kasallar bilan hazil-huzil gap qilib qo'yardi-yu, ammo miyasidan:

— Tentaklik, tentaklik, tentaklik... — degan gap nari ketmas edi.

Rus tilidan
A. Aliyev
tarjimasi

CHIROQLAR

Tashqarida itning vovullagani eshitildi. Men bilan injener Ananev va uning yordamchisi talaba fon Shtenberg it kimga vovullayotganini ko'rish uchun barakdan tashqariga chiqdik. Men mehmon bo'lganimdan barakdan chiqmasligim ham mumkin edi. Iqror bo'layki, ichilgan vinodan boshim aylanib turgani uchun tashqari chiqib, sof havoda nafas olishni orzu qilib turardim.

— Hech kim yo'q-ku... — dedi Ananev, biz tashqariga chiqqanda. — Nega bekorga vovullaysan Azorka? Ahmoq!

Tevarak-atrofdagi hech kimsa ko'rinmaydi. Xonaki qora it—ahmoq Azorka bekorga vovullagani uchun uzur so'raganday cho'chibroq yonimizga keldi-da, dumini likillatdi. Injener engashib, uning ikki kulog'i orasini siladi.

— Hay jonivor, nega bekorga vovullaysan? — dedi Ananev, bolalarga va itlarga xushfe'l odam gapirganday. — Xo'sh, yomon tush ko'rdingmi? Doktor, ko'ring-a, — deb, u menga murojaat qildi. — Bu juda asabiy jonivor. Yolg'izlikka toqat qilolmaydi, hamisha yomon tushlar ko'radi, bosinqirab, ko'zlariga har nima ko'rinaveradi. Baqirib bersang, jazavasi tutadi-yu, o'zini yo'qotib qo'yadi.

— Ha, juda nozik it... — dedi talaba, uning so'zini ma'qullab.

Azorka o'zi to'g'risida gap borayotganini sezib, tumshug'ini yuqori ko'tarib, g'inshidi, go'yo: «Ha, ba'zida qattiq azoblanaman, lekin sizlar, marhamat qilib, meni kechiringlar!» dedi.

Avgust oyi, tun seryulduz bo'lsa ham xiyla qorong'i. Umrimda bugungiday favqulodda vaziyatga tushmaganimdan seryulduz tun ham sokin, ko'ngilsiz va aslidagidan qorong'iroq bo'lib ko'rindi. Men endigina qurilayotgan temir yo'l liniyasida edim. Tayyor bo'lay deb qolgan temir yo'l ko'tarmalari, qum uyumlari, tuproq va shag'allar, baraklar, chuqurlar, har joy-har joyda yotgan zambil g'altaklar, ishchilar yashayotgan yerto'lalar tepasidagi tuproqlar — qop-qora tun o'z bo'yog'iga bo'yagan ana shu barcha narsalar aralash-quralash bo'lib, yer ustida qadimiy tartibsiz bir manzara hosil qilgan edi. Bu barcha buyumlar ko'z oldimda shu qadar betartib yastamb yotardiki, kavlab tashlangan, hech nimaga o'xshamagan, badburush yerda odamlarning va tik simyog'ochning qorasini ko'rish g'alati tuyilardi; har ikkisi ham manzarani buzib turar, osmondan tushganga o'xshardi. Jimlik, faqat simyog'och ustida allaqanday g'ingillash eshitilar edi.

Biz ko'tarma tepasiga chiqib, pastga qaradik. Bizdan taxminan ellik sajin narida, tun qo'ynida chuqurlar, baland-pastlik va tepalar yaxlit narsadek qorayib ko'ringan yerda xira chiroq miltillardi. Undan narida ikkinchisi, keyin uchinchisi ko'rindi. U chiroqlardan yuz qadamcha narida yonma-yon turgan ikki qizil ko'z — ehtimol, biror barakning derazasi yiltiraydi. Marjondek tizilib ketgan chiroqlar tobora g'uj bo'lib, uzoqlashib, xiralashib shu ko'yi ufqqacha borib tutashib, yarim doira yasaydi-da, chapgga qayrilib ketadi va uzoqda, qorong'ilik

qo'ynida ko'zdan g'oyib bo'ladi. Chiroqlar qimirlamasdi. Tun sukutida va telegraf simlarining g'ingillashida qandaydir umumiylik borligi sezilib turardi. Ana shu ko'tarma ostiga allaqanday muhim sir ko'mib yuborilganu, bu sirdan faqat chiroqlar, tun va telegraf simlarigina xabardorga o'xshaydi...

— Eh, qanday rohati jon-a! — deb chuqur nafas oldi Ananev. — Bu yerlarning kengligi va go'zalligidan ko'z uzging kelmaydi! Manavi ko'tarmani ko'ring! Bu ko'tarma emas, Monblanning o'zginasi! Uning bahosi bir qancha million...

Chiroqlar va bahosi bir qancha millionli ko'tarmadan zavqlangan, vinodan kayfi chog', va nozik hislarga berilgan injener, talaba fon Shtenberg yelkasiga qoqarkan, hazillashgan ohangda so'zida davom etdi:

— Xo'sh, Mixaylo Mixaylich, nega o'ylab qoldingiz? O'z qo'ling bilan bunyod qilgan narsaga qarash zavqli ekanmi? O'tgan yill, xuddi mana shu biz turgan yer qup-quruq cho'l edi, inson oyog'i tegmagandi. Mana endi ko'rasizki, hayot, tsivilizatsiya kirib keldi! Xudo haqi, bular qanday yaxshi! Siz bilan biz temir yo'l qurayotibmiz, bizdan keyin, aytaylik yuz yoki ikki yuz yil o'tgach, yaxshi odamlar fabrikalar, maktablar, kasalxonalar quradilar — qarabsizki, bu yerlar yashnab ketibdi! A?

Talaba qo'llarini cho'ntagiga tiqqanicha ko'zini chiroqlardan uzmay, qimirlamay turardi. U, injenerning gapiga quloq solmas, nimanidir o'ylardi. Shu topda u, ba'zan kishida bo'ladigan vaziyatni boshidan kechirar — na gapirgisi, na eshitgisi, kelardi. Uzoq jim turganidan keyin, men tomon o'girilib, sekingina:

— Shu oxiri ko‘rinmas chiroqlar nimaga o‘xshaydi? — deb so‘radi. — Ular menda, ming yillar ilgari yashab, allaqachon qirilib ketgan, qandaydir amalekityanlar yoki filistimlyanlar lagerlari singar o‘tmish xotirasini uyg‘otdi. Nazarimda, allaqanday qadimiy xalq shu yerga manzil qurib, joylashgan-da tong otishini kutmoqda, tong otishi bilan u Sau yoki Dovud bilan jangga kiradi. Tasavvurimning to‘la bo‘lishi uchun yolg‘iz karnaylar ovozi-yu soqchilarning bir-birlari bilan allaqanday efiofiya tilida gaplashishlarigina yetmaydi.

— Ha, shunday... — deb uning fikriga qo‘shild injener.

Shu lahzada go‘yo jo‘rttaga temir yo‘l bo‘ylat shamol esdi va qurol-aslaha jaranglashiga o‘xshagan ovoz keldi. O‘rtaga jimlik cho‘kdi. Injener va talabaning hozir nima to‘g‘rida o‘ylayotganini bilmayman, ammo allaqachon o‘lib ketganlar ko‘z oldimda ko‘rinib, soqchilar ham notanish tilda gaplashayotganga o‘xshab ketdi. Tasavvurini chodirlar, g‘alati odamlar va ularning kiyimlari qurol-aslahalarini darrov ko‘z oldimga keltirdi...

— Shunday, — deb g‘o‘ldiradi xayol suril turgan talaba. — Bir vaqtlari, mana shu dunyoda filistimlyanlar va amalekityanlar yashagan, urushla qilgan, hayotda ma‘lum rol o‘ynagan edi, mana endi ulardan nishon ham qolmadi. Biz ham shunday bo‘lamiz. Hozir temir yo‘l qurayotirmiz, mana shu yerda turib, falsafa sotayotirmiz, oradan ikk mingcha yil o‘tgach, bu tepalikdan, og‘ir mehnatdan keyin uxlab yotgan barcha kishilardan asar han qolmaydi. Aslida bu dahshat!

— Yaxshisi, siz bu fikrlarni tashlang... — ded injener jiddiy va o‘git berganday.

— Nima uchun?

— Shuning uchun... Bu fikrlar hayotni boshlash emas, uni tugatish kerak degan bo'ladi. Bunday fikrlarni aytishga siz hali yoshlik qilasiz.

— Nimaga axir? — dedi talaba yana.

— Hayotning chirikligi va arziyasligi, uning ma'nosizligi, o'limning muqarrarligi, narigi dunyo va boshqa to'g'ridagi gaplar, chirog'im, qarigan chog'ingda, uzoq ichki tuyg'ularni boshingdan kechirganingdagina yaxshi va tabiiy, chinakam aqliy boylik bo'ladi; mustaqil hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yosh yigitning aql-idroki uchun bu narsa baxtsizlikdan o'zga narsa emas! Ha, baxtsizlikning xuddi o'zi! — dedi Ananov va qo'l siltadi. — Menimcha, sizdek yosh yigitning bunday fikrlar bilan yashaganidan ko'ra boshsiz yurgani afzal! Baron, men bu so'zlarini sizga jiddiy ravishda aytyapman. Bu haqda ko'pdan beri siz bilan gaplashmoqchi bo'lib yurgandim, chunki, tanishgan vaqtimdayoq sizning ana shu la'nati fikrlarga ishtiyoqingiz borligini sezgan edim!

— Xudoyo tavba, nega endi la'nati bo'ladi? — dedi jilmayib talaba. Uning yuzidan ham, so'z ohangidan ham injener boshlagan baxs o'zini mutlaqo qiziqitirmayotgani, faqat odob yuzasidan, injener so'zi yerda qolmasin deb javob qilayotgani ko'rinib turardi.

Uyqum kelib, ko'zim yumilib borardi. Men, hozir qaytib kiramiz-u, bir-birimizga xayrli kech tilab, darhol yotamiz deb o'ylagan edim, lekin, mening bu istagim tezda amalga oshmadi. Barakka qaytib kirgach injener bo'sh shishalarni yig'ishtirib, krovat ostiga qo'ydidan, kattakon savat yashchikdan yana ikki shisha oldi. Shishalarni ochib, doimiy

ish joyiga kelib o'tirdi. U, ichishni, gaplashishni va ishlashni ko'zda tutganga o'xshardi. Injener stakanidan vino ho'plab qo'yib, qalam bilan allaqanday chertyojlarga belgi qo'yarkan, talabaning nojo'ya fikrlar bilan boshi band ekanini isbotlashni davom etdirdi. Talaba uning yonida allaqanday hisobotni ko'zdan kechirib, indamay o'tirardi. Uning menga o'xshab na gapirgisi, na eshitgisi kelardi. O'zim esa ishlayotganlarga xalaqit bermaslik uchun va har onda yotishimni taklif qilishlarini kutib, bir chetda, stoldan ancha narida, injenerning qiyshiq oyoq safar krovatida zerikib o'tirardim. Soat o'n ikkidan oshgan edi.

Qiladigan ishim bo'lmaganidan yangi tanishlarimni kuzatib o'tirdim. Ananevni ham, talabani ham ilgari ko'rmagan edim. Ular bilan shu kechasi tanishgan edim. Men, o'zim mehmon bo'lib turgan pomeschchik uyiga yarmarkadan kechqurun otda qaytib kelayotib, qorong'ida adashib, boshqa yo'lga tushib ketibman. Temir yo'l yoqasida adashib yurarkanman, qorong'i tobora quyuqlashib borayotganini ko'rib, piyodaning ham, otliqning ham yo'lini to'suvchi «oyoqyalanglar»dan vahima olib, yo'l bosishga yuragim dov bermay, duch kelgan baraklardan birining eshigini qoqdim. Meni Ananev va talaba xushnud kutib oldi. Mutlaqo bir-birini tanimagan va tasodifan uchrashib qolgan odamlar o'rtasida bo'lgani kabi biz ham tez orada tanishib oldik, avval birgalashib choy ichdik, keyin vino ichishga o'tganda bir-birini uzoq yillardan beri bilgan odamdek apoq-chapoq bo'lib ketdik. Oradan bir soat o'tar o'tmas men ularning kimligi, bu uzoq cho'lga poytaxtdan nega kelib qolganlarini bildim. Ular ham mening kimligim, fikrlarim va

nima yumush bilan yurganimni bilib olishdi.

Injener Ananev, Nikolay Anastasevich, to'ladan kelgan, keng yelkali, tashqi qiyofasidan Otello singari «keksalik vodisiga tushib borayotgan», hatto keragidan ko'ra semizroq odam edi. Sovchilar tili bilan aytganda uning «ilig-iltigi to'lgan», ya'ni yosh ham emas, qari ham, yaxshi yeyishni, ichishni, o'tmishni maqtashni sevadigan, yurganda sal nafasi qisilib, uyqusida qattiq xurrak otadigan payti edi. Kishilar bilan muomalada esa shtab ofitser lavozimiga erishib, endi semira boshlagan oqko'ngil odamlar singari salmoqli va muloyim gaplashardi. Soch soqoliga hali oq oralamaganiga qaramay, o'zi ham sezmay, yoshlarni muruvvat bilan beixtiyor «azizim» deb atashga o'rganib ketgandi. Shu tufayli ularning fikrini muloyimlik bilan tergap qo'yishga o'zini haqli deb bilardi. Uning harakati, ovozi ohista va bir maromda, o'zining katta hayot yo'liga chiqib olganini, qo'lidan ish kelishini va noni butun bo'lib qolganini, har narsaga o'z nuqtai nazari bilan qaray olishini yaxshi bilgan odamdek ishonch bilan gapirardi... Oftobda qoraygan, katta burunli yuzi va tomirlari bo'rtib chiqqan bo'yni go'yo sizga: «Men to'q va sog'lomman, o'zimdan mamnunman, vaqti kelib, siz yoshlar ham to'q, sog'lom va o'zingizdan mamnun bo'lasiz...» deb turardi. Uning ustida qiyiq yoqa chit ko'ylak, keng surup cholvorini ulkan etiklari qo'njiga tiqib olgandi. Ba'zi maydachuydalarga qarab, jumladan jun ipdan to'qilgan rangdor belbog'chasi, ko'ylagiga yoqa tutilgani va tirsagidagi yamoqqacha qarab, uning uylanganini va xotini yaxshi ko'rishini fahmladim.

Yo'l ishlari institutining talabai, Mixail Mixaylovich, baron fon Shtenberg yosh bo'lib,

yigirma uch-yigirma to'rtlarga kirgan edi. Yolg'iz malla sochlari bilan siyrak soqoligina, yuz bichimining sal beso'naqay va ko'rimsizligi uning ostzey baronlari avlodidan kelib chiqqanini eslatib turadi, boshqa jihatlari — ismi, e'tiqodi, fikri, o'zini tutishi, yuzi va qiliqlari rusga o'xshardi. U ham Ananev singari keng chit ko'ylak kiygan, oyog'ida katta etik. Sal bukchaygan, sochlarini ko'pdan beri tekislatmagan, oftobda qoraygan bu yigit talabaga ham, baronga ham o'xshamas, ko'proq oddiy rus masteri yordamchisiga o'xshardi. O'zi kam gap, kam harakat, vinoni istar-istamas ichadi, hisobotni bee'tibor tekshirar va hamisha allanimani o'ylayotganga o'xshardi. Uning ham harakati va gapirishi ohista va bir maromda bo'lib, lekin undagi ohista harakat injenernikiga butunlay o'xshamasdi. Oftobda qoraygan, o'ychan va jilmayib turadigan yuzlari, salgina o'qrayib qarovchi ko'zlari va butun vujudi hafsalasizligini va g'ayratsizligini ko'rsatib turardi... uning qarashidan, chiroq yonyaptimi, yonmayaptimi, vino shirinmi, bemazami, tekshirgan hisobi to'g'rimi, noto'g'ri — unga baribirga o'xshardi... Men uning ochiq va xotirjam chehrasiga qarab: «Hozircha men ma'lum ish qo'ldan kelishdan ham, noni butun bo'lishdan ham, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishdan biron yaxshi narsani ko'rmadim. Bularning hammasi bo'lmag'ur gaplar. Ilgari Peterburgda edim, hozir barakda o'tiribman, kuzda yana Peterburgga qaytib ketaman. Keyin bahorda yana bu yoqqa kelaman... Bulardan nima foyda, bilmayman, buni hech kim ham bilmaydi... Shunday bo'lgach, bu haqda gapirishdan hech qanday foyda yo'q...» degan ifodani o'qidim.

Injenerning so'zlarini u qiziqmay, gapga tushib ketgan oqko'ngil o'qituvchining so'zini yuqori sinfdagi kadetlarga o'xshab beparvo eshitadi. Menga injenerning aytganlari baron uchun yangilik emas, gapirishga erinmaganida uning o'zi yangi va ma'niliroq fikrlar ayta oladigandek tuyildi. Ananev hamon qo'ymasdi: u, endi oq ko'ngillik bilan, hazillashgan ohangda emas, jiddiy ravishda, hatto o'zining odatdagi ohista so'zlashiga zid bo'lgan qizg'inlik bilan tushuntirardi. Menimcha u, umumiy tarzda muhokama yuritishga qiziqadigan, hatto uni sevadigan ko'rinadi. Lekin, talqin qilmaydi, bunga o'rgangan ham emas. Bu narsa uning har bir so'zidan sezilib turadi. Shuning uchun men uning nima demoqchi bo'lganiga darhol tushunolmadim.

— Bu fikrlarni butun vujudim bilan yomon ko'raman! — dedi u. — Yoshligimda men ham shu dardga uchragan edim, hozir ham balki undan butunlay xalos bo'lmagandirman. Balki laqillab, baland dorga osilgandirman, ish qilib ular menga faqat yomonlik keltirdi. Bu ma'lum gap! Hayotning behudaligi, ma'nisizligi, biz yashab turgan dunyoning chiriganligi, «hayotning puchligi» to'g'risidagi Sulaymon zamonidan qolgan fikrlar inson tafakkurining hozirgacha eng oliy va so'nggi bosqichini tashkil qilib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Mutaffakir shu bosqichga yetdimi, bo'ldi — shu yerda to'xtaydi! Undan nari o'tolmaydi! Shu yerda mo'tadil miya o'z faoliyatini yakunlaydi, bu tabiiy bir narsa. Bizning baxtsizligimiz fikrlashni xuddi shu chekkadan boshlashimizda. Odatda mo'tadil odamlar tamom qilgan joydan biz boshlaymiz. Biz birinchi qadamdanoq, miya mustaqil ishlay boshlashidanoq darhol eng oliy va

so'nggi bosqichga chiqib olamiz-da, quyi bosqichlar borligini bilgimiz ham kelmaydi.

— Buning nimasi yomon? — deb so'radi talaba.

— Axir tushunsangizchi, bu buzuqlik-ku! — deb qichqirdi Ananev g'azab hilan unga tikilib. — Agar biz pastki bosqichlarni bosib o'tmay turib, yuqoriga chiqib olish yo'lini topgan bo'lsak, u taqdirda, turli bo'yoqlar, ovozlari va fikrlar bilan to'la hayot deb atalgan uzun zinaning bizga qimmatini qolmaydi. Sizning shu yoshdayoq bunday fikr yuritisbingiz behuda va ahamiyatsiz ekanini mustaqil va ongli hayotingizda har bir qadamda tushuntirishingiz mumkin. Masalan, siz, hozir Darvin yoki Shekspir kitobini o'qigani o'tirdingiz deylik. Bir sahifani o'qib bo'lmay turib, sizning uzoq hayotingiz ham, Shekspir ham, Darvin ham ko'zingizga behuda, bo'lmag'ur bo'lib ko'rinadi. Chunki, siz o'zingizni vafot qilishingizni, Shekspir bilan Darvinlar ham allaqachon o'lib ketganini bilasiz, ularning fikrlari na o'zlarini, na yerni, na sizni o'limdan saqlab qololmaydi, demak, hayot ma'nosiz va behuda ekan, u taqdirda barcha bilimlar, she'riyat va oliy fikrlar keraksiz ovunchoq — kattalar o'yinchig'i bo'lib qoladi. Shunday qilib siz ikkinchi sahifaga o'tmayoq o'qishni yig'ishtirib qo'yasiz. Endi boshqa bir misolni olaylik, aqlli odam deb oldingizga kisbilar kelib, jumladan, urush kerakmi, axloqqa to'g'ri keladimi deb, so'radi. Bu dahshatli savolga yelkangizni qisib, bu haqdagi mavhum umumiy gaplardan birini aytgan bo'lardingiz, chunki, bunday fikrda bo'lgan siz uchun, yuz minglab kishilar majburan o'ldiriladimi yoki ular o'z ajali bilan o'ladimi — baribir: u holda ham, bu holda ham natija bir — ular tuproqqa

aylanadi va unutiladi. Biz siz bilan birga temir yo'l qurayotirmiz. Endi, shunday bir savol tug'iladi, biz qurayotgan yo'l baribir ikki ming yildan keyin tuproqqa aylansa, hozir bosh qotirishimizning, yangilik o'ylab topishimizning, shablondan qochishimizning, ishchilarni ayashimizning, o'g'irlik qilish yo qilmasligimizning nima keragi bor? Hokazo va hokazolar... Endi o'zingiz ham rozi bo'ling, agar shunday bemaza fikr yuritsak na fanda, na san'atda, va na ana shu fikrlashning o'zida hech qanday progressning bo'lishi mumkin emas. Biz o'zimizni xalqdan ham, Shekspirdan ham aqlli deb o'ylaymiz, aslida esa bizning fikrlash faoliyatimiz, pastki bosqichga tushishga istagimiz yo'qligidan, balandga chiqishga yuqori bosqichning bo'lmaganidan behuda bo'lib qoladi. Miyamiz bir joyida to'xtab, bir yerdan jilmay qoladi... Men ana shu fikrlarning og'ir yuki ostida olti yilga yaqin adashib yurdim, xudo ursinki, ana shu vaqt ichida bironta bama'ni kitob o'qimadim, aqlim bir paqirlik oshmadi, axloq maromim hatto bir harf ham boyimadi. Bundan ortiq baxtsizlik bo'ladimi? Yana o'zimizning mana shunday zaharlanganimiz ustiga, atrofimizni o'ragan kishilar hayotini ham zaharlaymiz. O'zimizning ana shu tushkunligimiz bilan hayotdan voz kechsak, g'orlarda umr o'tkazsak yoki o'lishga shoshilsak mayli edi-ya, biz buning teskarisini qilib, umumiy qonunga itoat qilgan holda, yashaymiz, his qilamiz, xotinlarni sevamiz, bolalarni tarbiya qilamiz, yo'llar quramiz!

— Bizning fikrlarimizdan birovga foyda ham, ziyon ham yo'q-da... — dedi talaba, istar-istamas.

— Yo'q, siz axir, qo'ysangiz-chi. Siz hali hayotning a-chiq-chuchugini totganingiz yo'q,

otaxonim, mening yoshimga yeting, ana o'shanda bilasiz! Bizning fikrlashimiz siz o'ylagandek zararsiz emas. Amaliy hayotda, kishilar hilan to'qnashganda ular bizni dahshatli voqialarga va bemaza hollarga duch keltiradi. Men shunday voqialarni boshdan kechirganman, men uni dushmanimga ham ravo ko'rmayman.

— Masalan? — deb so'radim.

— Masalan? — deb savolimni takrorladi injener; u, o'ylab oldi, iljaydi keyin yana so'zlab ketdi: — Masalan, mana shunday hir voqiani olaylik. Aniqrog'i voqia emas, boshi va keti bo'lgan butun bir sarguzasht! Ajoyib saboq bo'lgan edi! Eh, shunday saboqki!

U, bizga va o'ziga vino quydi, o'z tegishini ichgach, keng ko'kragini kafti bilan siladi va ko'proq menga qarab hikoyasini boshladi:

— Bu voqia urush tugab, men kursni tamomlaganimdan sal keyin, 187... yilning yoz oylarida bo'lgan edi. Men Kavkazga ketayotib, yo'lda dengiz bo'yiga joylashgan N... shaharida besh kun yashadim. O'zim ana shu shaharda tug'ilib, o'sganman, shu tufayli, poytaxtdan kelgan kishiga har qanaqanggi Chuxloma yoki Kashiradagi singari N. shaharida yashash ham zerikarli va ko'ngilsiz bo'lishiga qaramay, mening ko'zimga u odatdan tashqari ko'ngilli, rohatbaxsh, iliq va ko'rkam bo'lib ko'rindi. Bir vaqtlari o'zim o'qigan gimnaziya yonidan o'tarkanman qalbimni g'amgin kayfiyat qoplab oldi, tanish shaharning istirohat bog'ida ham g'amgin holda sayr qilib yurdim, ko'pdan beri ko'rmagan, ammo o'zim bilgan kishilarni g'amginlik bilan yaqindan ko'rishga tirishdim... Hammasi mana shunday g'amgin suratda bo'ldi...

Ha, darvoqe, bir kuni kechqurun Karantin deb ataluvchi joyga bordim. Bir vaqtlari vabo kasali tarqalgan mahalda bu yer chindan ham karantin bo'lgan edi, hozir esa bu chorbog'chilar yashaydigan miyonagina, siyrak daraxtzor. Unga shahardan chiqqan to'rt chaqirimli yaxshi, yumshoq yo'l bilan kellnadi. Yo'lda ketayotib, chap qo'lda ko'm-ko'k dengizni, o'ng qo'lda chegarasi yo'q, ko'rimsiz cho'lni tomosha qilib bordim; nafas olish yengil, ko'z qarab to'ymaydi. Daraxtzor shundaygina dengiz yoqasida. Men izvozchiga javob berib yuborib, tanish darvozadan to'g'ri ichkari kirib bordim va birinchi navbatda yoshlikdan sevgan joyim — kichkinagina g'ishtin shiyponchaga qarab bordim. Ana shu qo'pol ustunli qadimiy mozor yodgorligi bilan Sobakevich dag'alligini o'zida mujassamlantirgan yumaloq shiyponcha nazarimda butun shaharda eng ilhombaxsh burchakdan biri edi. U, dengiz bo'yida, tik qirg'oqqa joylashgan bo'lib, undan dengiz yaxlit ko'rinib turadi.

Men skameykaga o'tirib, panjaradan engashib, pastga qaradim. Shiyponchadan tikka qirg'oq bo'ylab yolg'iz oyoq yo'l ketgan, u, tuproq tepa va yovvoyi o'tlar yonidan o'tib, dengizga borib tutashgan, xuddi ana shu yerda, qum bilan qoplangan past qirg'oqda nozik shildirab, ohista chayqalgancha to'lqin o'ynaydi. Dengiz hozir ham, bundan yetti yil ilgari, men gimnaziyani tamomlab, poytaxtga ketgan palladagi singari ulug'vor, cheksiz va beiltifot boqadi; uzoqda bir to'p tutun ko'rindi — paroxod o'tib bormoqda edi, ana shu bir joydan jilmay g'ira-shira ko'rinuvchi tutun va suv yuzida

ora-sira ko'zga chalinib qoluvchi martishka'lardan bo'lak hech nima dengiz bilan osmonning bir xil manzarasini bezamaydi. Shiyponchadan o'ng tomonga ham, chap tomonga ham — har ikki tomonga egri-bugri tuproqli sohil cho'zilib ketgan...

O'zingizga ham ma'lumki, g'amgin kishi dengiz yoki bahaybat manzarami yolg'iz o'zi ko'rarkan, uning g'amginligi ustiga o'zining bekorga yashab, benom-nishonsiz o'lib ketish hissi qo'shiladi-da, u, beixtiyor qo'lga qalam olib, duch kelgan yerga ismini yozib qo'yishga oshiqadi. Shuning uchun ham men o'tirgan shiyponchaga o'xshagan barcha ko'zdan nari, pasqam burchaklarga hamma vaqt ismlar qalam bilan yozilgan yoki qalamtarash bilan o'yilgan bo'ladi. Hozir ham yodimda: panjaraning u yoq bu yog'iga qarab «X. Q. (ya'ni xotira qoldirdim) Ivan Korolkov. 16 may 1876 yil» degan so'zlarni o'qidim. Xuddi ana shu Korolkov yomiga allaqanday mahalliy xayolparast o'z ismini yozib: «Quruq to'lqinli qirg'oqda u, turar buyuk o'ylarga to'liq» deb qo'shib qo'yibdi. Bu yozuv bo'sh, chochiq, xuddi ho'l shohidek mayin edi. Allaqanday Kross degan bittasi, chamasi o'larday notavon va befarosat odam bo'lsa kerak, o'zining pastarinllgini juda yaxshi his etib, qalamtarashda otini bir vershokli chuqur harflar bilan yozib chiqibdi. Men ham beixtiyor cho'ntagimdan qalamimni olib, ustunlardan biriga ismimni yozib qo'ydim. Ha, buni aytilayotgan voqiaga dahll yo'q... Kechirasiz, men qisqagina qilib so'zlab berishni bilmayman.

Men g'amgin va biroz zerikkan edim. Zerikish, jimlik va to'lqimlarning shuvirlashi meni

⁷ Martishka (yoki martin) — chaykalar toifasidan kichik bir qush. *Tarj.*

hozirgina siz bilan gaplashgan fikrlarga olib keldi. U mahalda, yetmishinchi yillarning oxirida bu narsa xaloyiq o'rtasida tarqalgandi. Saksoninchi yillarning boshiga kelib, asta-sekin adabiyotga, fan va siyosatga ham o'tdi. U mahalda men endi yigirma olti yoshga kirgandim, lekin men hayotning behuda va bema'niligini, hamma narsa aldash va xomxayoldan iborat ekanini, Saxalin orolidā katorgada yashovchilar hayoti bilan Nitstsada o'tkazilgan umrning farqi yo'qligini, Kant miyasi bilan pashsha miyasi o'rtasida hech qanday tafovut yo'qligini, bu olamda hech kim haq va aybdor emasligini — hammasi bekorchi safsataligini, shuning uchun ularni uloqtirib tashlash kerakligini yaxshi bilib olgandim! O'zimning yashamoqda ekanim bilan go'yo meni yashashga majbur qilayotgan allaqanday noma'lum kuchga iltifot ko'rsatayotganga o'xshardim: go'yo mana, ko'rib qo'y, hoy kuch, yashayapman, lekin men o'z hayotimni bir paqirga ham olmayman deyardim! Men faqat ma'lum bir yo'nalishda, lekin turli tusda fikr yuritardim, bu jihatdan o'z ishini yaxshi bilgan, atigi birgina kartoshkadan yuz xil mazali ovqat pishiradigan pazanda oshpazga o'xshardim. Ochiq gap, men bir tomonlama, hatto ma'lum darajada tor doirada fikr yuritardim. Lekin o'zimga, fikrlash doiramning boshi ham, oxiri ham yo'qdek, fikrim go'yo dengizdek keng bo'lib ko'rinardi. Endi, o'zimdā qiyos qilib aytsam, hozir biz so'zlayotgan fikr yuritish ham aslida giyoh singari, ya'ni tomoki yoki morfiy kabi o'ziga tortadi, kishi unga odatlanib, tusab turadi. Shu tufayli yolg'iz qolgan har bir minutda va har bir qulay fursatda kishi hayotning bema'niligi va

narigi dunyo to'g'risidagi fikrlarga berilib, shu bilan lazzatlanadi. Men shiyponchada o'tirgan paytimda, uzun burunli grek bolalari sipolik bilan xiyobonda sayr qilib yurishardi. Men ana shu qulay fursatdan foydalanib, bolalardan ko'z olmay:

«Xo'sh, manavi bolalar nega tug'ildi-yu, nega yashamoqdalar? Ularning yashashida biron ma'no bormi? O'zlari ham nima uchun ekanini bilmay katta bo'lishadi, hech kerak bo'lmagan holda, mana shu uzoq burchakda yashashadi-da, o'lib ketishadi...» degan fikrni ko'nglimdan o'tkazdim.

Ochig'ini aytsam, bolalarning mana shunday sipolik bilan yurishlari, o'zlarining kichkina bo'lmag'ur hayotlarini qimmat ko'rib, dunyoda nima uchun yashayogganlarini go'yo yaxshi bilganday bir-birlari bilan jiddiy ravishda gaplashayotganlari alam qildi... Xiyobonning narigi boshida, uzoqdan uch ayolning qorasi ko'ringani hali ham esimda. Allaqanday oyimqizlar — biri pushtirang ko'ylakli, ikkitasi oq ko'ylakli — allanimani gaplashib, kulib, qo'ltiqlashgan holda yonma-yon kelishardi. Ularni kuzatib turarkanman, o'zimcha:

«Zerikib qolmaslik uchun bironta xotin bilan bu yerda ikki kungina don olishsak yomon bo'lmas edi!» deb o'yladim.

Xuddi shu lahza Peterburgdagi oyimcha oldida bundan uch hafta ilgari so'nggi marta bo'lganim esimga keldi, shu tufayli biron ayol bilan sal vaqtda bo'lsa qam tanishish xo'p ma'qul gap bo'lishini ko'nglimga tugdim. O'rtadagi, oq ko'ylakli oyimqiz dugonalariga nisbatan yoshroq va go'zalroq edi, o'zini tutishiga, kulishiga qaraganda gimnaziyaning yuqori sinfida o'qisa kerak. Ko'nglimga kelgan

ana shu nojo'ya o'yni yashirmay, uning ko'kragiga qaradim-da:

«Muzika chalishni, o'zini tutishni o'rganadi, allaqanday, xudo o'zing kechir, grekka erga tegadi, bir xilda ahmoqona hayot kechiradi. Hech qanday keragi bo'lmagan holda, nimaligini o'zi ham bilmay, birtalay bolalarni tug'ib beradi, keyin o'lib ketadi. Hayot qanday bema'ni narsa-ya!» deb uning to'g'risida o'yladim.

Umuman, shuni aytayki, men o'zimning eng olijanob fikrlarimni har qanday arzimagan va sodda narsalar bilan uyg'unlab, qo'shib yuborishga usta edim. Narigi dunyo haqidagi fikrlarim xotin-qizlarning ko'kragi va oyoqlariga ixlos bilan qarashimga xalaqit bermasdi. Bizning hurmatli baronga ham, uning balandparvoz fikrlari har shanba kuni Vukolovka qishlog'iga borib donjuanlik qilib kelishga sira xalal bermaydi. Vijdonan aytganda, esimni tanibmanki, xotinlarga nisbatan munosabatim g'oyat tahqirli edi. Hozir gimnazist qizni eslab, o'sha mahaldagi fikrlarim uchun, uyalganimdan qizarib ketdim, u mahalda hech bir uyalmas edim.

O'zim olijanob bir oilaning bolasi, xristianman, oliy ma'lumotim bor. Tabiatan yovuz va tentak bo'lmagan mendek odam, xotinlar bilan nemislar atagandek blutgeld usulida to'laganimda yoki gimnazist qizlarga haqorat nazari bilan tikilganimda hech qanday vijdon azobi sezmasdim... Hamma balo shundaki, yoshlikning o'z huquqlari bor, bizning fikr yuritishimiz esa, bu huquqlar yaxshimi yo jirkanchmi ekaniga hech bir qarshi emas. Kimki, hayotning bema'niligini va o'lim muqarrar ekanini bilsa, unday odam tabiat bilan bo'ladigan kurashga,

gunoh to'g'risidagi tushunchaga butunlay beparvo qaraydi: kurashsang ham, kurashsang ham, bari bir o'lasan va chirib ketasan deydi... Ikkinchidan, afandilar, mening, bizning fikrlashimiz hatto yosh yigitlarni ham o'y suradigan qilib qo'yadi. Ko'p hollarda bizning mulohazalarimiz yurakdan ustun keladi. Bevosita his-tuyg'ular, ilhomlanishlar mayda tahlillar bilan ko'mib tashlanadi. Qaerdaki o'y surish bo'lsa, u yerda beparvolik mavjuddir. Beparvo odamlar esa — yashirishga sira hojat yo'q — soflik, iffatni bilmaydilar. Bu fazilatlar faqat samimiy, oqko'ngil va muhabbatga layoqatli odamlardagina bo'ladi. Uchinchidan, bizning fikr yuritishimiz, xayotning ma'nosini inkor etish bilan, har bir shaxsning ham ma'nosini inkor etadi. Ravshanki, agar men qandaydir Natalya Stepanovnani shaxs sifatida inkor etarkanman, bu holda u haqoratlandimi yo yo'qmi, mening uchun bari bir: Bugun unga blutgeld usulida haq to'lab, insonlik fazilatini haqoratlagan bo'lsam, ertaga uni butunlay unutib yuborishim hech gap emas.

Shunday qilib, shiyponchada o'tirib, qizlarni kuzatardim. Xiyobonda bosh yalang, yelkasiga oq jun ro'mol tashlab olgan, malla sochli yana bir ayol ko'rindi. U, sayr qilib yurdi-da, so'ng shiyponga chiqdi. Panjarani ushlab, beparvolik bilan pastga, keyin uzoq dengiz sathiga qaradi. O'zi shiyponchada turgan bo'lsa-da, go'yo o'tirganimni ko'rmagandek, mutlaqo menga e'tibor bermadi. Men uning oyog'idan-boshiga razm solib chiqdim (odatda erkaklar xotinlarning boshidan-oyog'iga qaraydilar). U yosh, yigirma beshdan oshmagan, yoqimtoy, qaddi-qomati kelishgan, ko'rinishidan

erga yaqinda tekkanga o'xshardi, barno bir xotin edi. Ustida uyda kiyiladigan libos, umuman N... shaharidagi barcha ziyoli ayollar singari modaga yarasha kiyingan edi.

«Qani endi shu rozi bo'lsa,.. — deb o'yladim men ayolning kelishgan xipcha beliga, qo'llariga tikilib, — chakki emas ekan... O'zi biron hakim-tabib yoki gimnaziya o'qituvchisining xotini bo'lsa kerak...»

U bilan tanishmoq, yoki turistlar ishqivoz bo'lgan kichik bir oshiq-mashuqlik sarguzashtiga uni tortmoq oson gap emas, ehtimol, butunlay mumkin ham emasdir. Uning yuzlariga qarab, fikrim to'g'ri ekanligini fahmladim. U, atrofga shunday qarardiki, go'yo dengiz ham, uzoqdagi tutun ham, osmon ham allaqachon uning me'dasiga tekkan edi; aftidan u juda charchagan, zerikkan va allaqanday ko'ngilsiz fikrni o'ylardi, shunisi g'alati ediki, unda hatto notanish erkak huzurida har qanday ayolda yuz beradigan yasama befarqlik yoki taraddudlanish ham paydo bo'lmadi.

U, zerikkanligi ko'rinib turgan bir nigoh bilan men tomon ko'z tashladi-da, skameykaga o'tirdi va nima haqdadir yana o'ylay boshladi. Uning ana shu qarashidan bildimki, hozir xotinning men bilan bir chaqalik ham ishi yo'q, hatto mening poytaxtli ekanim ham uni qiziqdirmadi. Lekin, shunga haramay u bilan gaplashishga jazm qilib:

— Xonim, uzur, bir savol so'rashga ruxsat etsangiz, bu yerdan shaharga lineyka⁸ soat nechalarda jo'naydi, shuni aytolmaysizmi? — deb so'radim.

— Soat o'n, o'n birlarda jo'nasa kerak...

8 Lineyka — ko'p odam o'tiradigan uzun arava.

Men minnatdorlik bildirdim. U menga bir-ikki qarab oldi-da, birdan beparvo yuzida qiziqish belgisi ko'rindi. Keyin unda allaqanday taajjub, hayronlik ifodasi paydo bo'ldi... Men darhol o'zimni hech nima bilmaganga solib, beparvo qiyofaga kirdim va donlashyapti, deb o'yladim! Allanima uni qattiq chaqib olganday, u irg'ib o'rnidan turib ketdi va muloyimgina jilmayib, meni ko'zdan kechirarkan, botinqiramay:

— Menga qarang, goho odam yanglishadi, siz Ananev emasmisiz? — deb so'radi.

— Ha, Ananevman... — deb javob berdim.

— Meni tanidingizmi? Yo'qmi?

Men xijolat tortib, unga sinchiklab qaradim. Ko'z oldingizga keltiring, uni yuzi-ko'zidan, yo qaddi-qomatidan emas, yoqimli, horg'in jilmayishidan tanidim. U, Natalya Stepanovna, bu yerdagilar aytganday, Kisochka edi. Ha, bundan yetti-sakkiz yil oldin, gimnaziya o'qib yurgan yillarimda, men oh, desam o'pkam ko'rinadigan darajada sevib qolgan qiz shu edi. Bu allaqachon bo'lgan yurak sirlari edi... Men Kisochkami jajjigina, o'n besh-o'n olti yoshli gimnaziya o'quvchisi ekanini bilaman, u mahalda Kisochka gimnaziya o'quvchilari ta'biga juda yoqadigan, tabiatning o'zi go'yo ataylab Aflotin muhabbati uchun yaratganday bir nozan edi. Qanday malohatli qiz edi-ya! Oppoqqina, momiqday yengil va nozik, nazarimda puflasa, pardek osmonga uchib ketadiganga o'xshardi. Yuzi hamisha yoqimtoy, hayrat ifodasi kezar, qo'llari kichkina, uzun mayin sochlari xipcha belga tushib turardi, — qisqasi oy nuridek musaffo, nozik bir jonon edi, gimnazist ko'zi bilan qaraganda ta'rifi

yo'q bir go'zal edi... Men esimni yo'qotish darajasida uni sevib qolgandim! Tunlari uxlamay, unga atab she'rlar yozardim... Shunday ham bo'lardiki, u shahar istirohat bog'ida kechasi skameykada o'tirar, biz gimnaziya o'quvchilari uning oldida uymalashib, izzat-ikrom bilan qarardik... Bizning oh-vohlarimizga, xushomadlarimizga kechki salqindan junjib, ko'zlarini yumar va beozor, yoqimtoygina jilmayish bilan javob qilardi. Shu mahalda u jajjigina, yoqimtoy mushuk bolasiga o'xshab ketardi; uni har birimiz erkalatgimiz, boshini silagimiz kelardi. Unga Kisochnka deb mushuk nomi qo'yilishi ham shundan edi.

Biz bir-birimizni ko'rmagan mana shu yetti-sakkiz yil ichida Kisochnka juda o'zgacha bo'lib ketibdi. U, ancha to'lishgan, endi avvalgidek yumshoq va seryung mushuk bolasiga o'xshamas edi. Yuzi o'zgarmagan va so'lmagan, sal tusi o'zgarib, jiddiy tusga kirgandi. Sochi kaltaroq, bo'yi uzunroq, yelkalari avvalgidan deyarli ikki baravar keng bo'lgan edi: eng muhimi, uning yoshiga borgan har qanday ayolda bo'ladigan kabi, yuzida onalik va tobelik ifodasi yorqin sezilardi. Avval albatta, men uning yuzida bunday ifodani ko'rmagan edim... Qisqasi, ilgarigi biz Aflotinchka muhabbat qo'ygan nozik paridan, avvalgidek yoqimtoy jilmayishini hisobga olmaganda, hech vaqo qolmagandi...

Biz gaplasha boshladik. Mening injener ekanimni eshitib Kisochnka nihoyatda xursand bo'ldi.

— Qanday yaxshi-ya! — dedi u, quvonch bilan mening ko'zlarimga boqib, — Oh, qanday yaxshi-ya! Hammanglar ham juda azamat chiqdinglar-da! Siz bilan birga bitirganlarning birontasi ham

muvaaffaqiyatsizlikka uchragani yo'q, hammangiz yaxshi odamlar bo'lib yetishdinglar: biri injener, biri doktor, yana biri o'qituvchi, to'rtinchisi hozir Peterburgda atoqli artist deyishadi... Hammangiz ana shunday azamatsizlar! Oh, qanday yaxshi-ya!

Kisochkaning ko'zlarida samimiy quvonch va xayrixohlik alangalandi. U, menga mehribonlik bilan, ukasiga bog'gan opadek, o'z o'quvchisini ko'rib qolgan o'qituvchidek zavq bilan qaradi. Men bo'lsam uning yoqimli yuziga qarab: «Shu bugun u bilan birga bo'lsam yomon bo'lmas edi!» deb o'yladim.

— Natalya Stepanovna, esingizdami, — deb so'radim, — bir safar bog'da, dasta gulga maktub qo'shib sizga berganim? Siz, xatni o'qib, hayron bo'lib qolgandingiz...

— Yo'q, bu narsa esimdan chiqibdi, — dedi miyig'ida kulib u. — Lekin, bir marta meni deb Florensni duelga chaqirmoqchi bo'lganingiz esimda...

— Rostdan-a, buni qarang, mening esimda yo'q...

— Ha, bo'lgan narsa, o'tib ketdi... — deb Kisochka uh tortdi. — Bir vaqtlar hammangiz menga sig'inardingiz, endi men sizlarga sig'inaman...

Keyingi gaplardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Kisochka gimnaziya o'qishni tamom qilgach, oradan ikki yilcha o'tib, shu yerlik bir kishiga, bankdami, sug'urta jamiyatidami, allaqaerda ishlaydigan, ayni mahalda g'alla savdosi bilan mashg'ul yarim rus, yarim grek erga tegibdi. U allaqanaqa Populakimi yo Skarandopulomi, shunga o'xshagan g'alati familiyali odam ekan... Qurg'urning oti xotiramdan ko'tarilibdi... Kisochka o'zi to'g'risida oz va istar-istamas gapirdi. Gapso'z asosan mening to'g'rimda

bo'ldi. U, institut, o'rtoqlarim, Peterburg, kelajak rejalarim to'g'risida so'radi. Men nima to'g'rida gapirsam ham u quvonar, jonlanib ketar va: «Oh, qanday yaxshi-ya!» — deb takrorlardi.

Biz dengiz sohiliga tushdik, qumda sayr qilib yurib, dengizdan kechki nam havo esganda shiypongacha qaytib keldik. Gap hamon mening to'g'rimda va o'tmish to'g'risida bo'ldi. Biz uylarda chiroq o'chguncha sayr qilib yurdik.

— Biznikiga yuring, choy ichamiz, — deb taklif qildi, Kisochnka. — Samovar allaqachon qaynatilib, dasturxon yozilgan bo'lsa kerak... Men uyda yolg'izman, — dedi u, yam-yashil akatsiyalar orasidan o'zining shinamgina uyi ko'zga ko'ringan paytda. — Erim hamisha shaharda bo'ladi, faqat tunda uyga keladi, shunda ham har kuni kelmaydi, biram zerikamanki, o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim.

Men uning ketidan borarkanman suqlanib yelkasiga qarardim. Uning erga tekkanligi menga ma'qul tushdi. Kichkinagina ishqiy sarguzasht uchun oyimqizlardan ko'ra juvonlar durust. Yana, uyda eri yo'qligini aytmay sizmi. Lekin, shu ondayoq oramizda bunday sarguzashtning bo'lmasligiga ko'zim yetdi...

Biz uyga kirdik. Kisochnkaning xonalari chog'roq va shiftlari pastroq, qishloqqa xos mebellar bilan (ruslar shahardan chetdagi uyiga qo'pol, og'ir, rangi o'chgan, tashlay desa ko'zi qiymaydigan mebellar qo'yadi) jihozlangan edi, lekin, ba'zi maydachuydalarga qarab, ularning qashshoq emasligini, bir yilda besh-olti ming xarjlab kun ko'rishlarini tushunish oson edi. Esimda turibdi, Kisochnka oshxona deb atagan uyi o'rtasiga negadir olti oyoqli yumaloq stol qo'yilgan edi, unda samovar va piyolalar, bir

chetida sahifalari ochiq kitob, qalam va daftar yotardi. Men ko'z tashlab, Malinin va Bureninning hisob masalalari kitobi ekanini bildim. Kitobning «sherikat qoidalar» sahifasi ochiq turgan edi.

— Siz kimni o'qityapsiz? — deb so'radim Kistochkadan.

— Hech kimni... — deb javob berdi u. — O'zim, shunchaki... zerikkanimdan va qiladigan ishim bo'lmaganidan, eskilarni xotirlab, masalalar yechib o'tiraman.

— Bolalaringiz bormi?

— Bir o'g'il ko'rgan edim, bir hafta umr ko'rib o'ldi. Choy ichgani o'tirdik. Kisochka zavq bilan menga qarar, injener bo'lib chiqqamimdan, muvaffaqiyatlarimdan behad quvonganini aytardi. U, qancha ochilib gapirmasin, samimiy ravishda qancha kulmasin, bu uydan quruq chiqib ketishimga ishonchim komil bo'la bordi. U mahalda xotinlar bilan bunday sarguzashtlarni o'rniga qo'yishga usta edim, ish chiqadimi, yo'qmi menda bunga qanday imkonlar borligini darhol bilib olar edim. Agar siz, biron laqma xotinni, yoki xuddi o'zingizga o'xshab sarguzasht va yengil-elpi quvonch izlovchi ayolni, yo bo'lmasa sizga butunlay yot bo'lgan bema'ni xotinni qo'lga tushirmoqchi bo'lsangiz, hech shubhasiz, ish chiqishiga ishonavering. Bordi-yu, aqlli-hushli, o'zi jiddiy, yuzlari horg'inlik bilan xayrixohlikni ifoda etsa, siz bilan o'tirganiga chin qalbidan xursand bo'lsa, eng muhimi — sizni hurmat qilsa, bunday ayolga ovora bo'lmay, indamay qaytib ketaverishingiz mumkin. Bunday kezda ish chiqarish uchun bir kun kamlik qiladi, bunga uzoqroq fursat lozim.

Chiroq yorug'ida Kisochka kunduz kundagidan ko'ra yana ham xushro'y ko'rindi. U tobora menga yoqib bormoqda edi. Aftidan o'zim ham unga yoqib borayotgan edim. Vaziyatning o'zi ham ishqiy sarguzasht uchun qulay edi-da: uyda er yo'q, malaylar ko'rinmaydi, atrof jimlik... Biron ish chiqishiga ishonmaganim holda uni gapga solishga jazm qildim. Avvalo, Kisochka bilan rasmiy ravishda gaplashishga o'tmoq kerak edi, uning samimiy-jiddiy o'tirishini, o'ynoqiroq holatga ko'chirmoq zarur...

— Natalya Stepanovna, endi boshqa to'g'rilarda gaplashsak bo'lardi, — deb so'z boshladim. — Biron qiziqarli gap topaylik. Avvalo, qadimiy xotiramiz hurmati, sizni yana Kisochka deb atashga ruxsat eting.

U, rozi bo'ldi.

— Kisochka, marhamat qilib ayting, — deb davom etdim, — bu yerdagi barcha go'zallarning nima sho'ri quridi. Nima gap o'zi? Ilgari ularning bari odob-axloqli, yaxshi fazilatli odamlar edi, endi bo'lsa, kim to'g'risida so'ramay, shunday narsalarni aytishadiki, eshitib yuragim orqamga tortib ketdi... Bir oyimqiz ofitser bilan qochib ketibdi, ikkinchisi o'zi qochib, bir gimnazistni ergashtirib ketibdi, uchinchi xonim bo'lsa erini tashlab, bir artist bilan jo'nab qopti, yana biri eridan chiqib, ofitser bilan topishibdi, hokazo va hokazo... Bu yerda shunaqa yuqumli kasal tarqalganmi deyman! Shunday bo'laversa, shaharingizda tez orada bironta oyimqiz, bironta tuzuk juvon qolmasa kerak!

Men bu so'zlarni tiloyog'lamalik bilan razil bir ohangda aytdim. Agar, Kisochka so'zimni eshitib jilmaysa, men: «Ey, Kisochka, siz ham hazır bo'ling,

hiron ofitsyor yo aktyor tag'in sizni ham o'g'irlab ketmasin!» demoqchi edim. U taqdirda Kisochka ko'zini yerga tikib: «Menga o'xshagan notovonni o'g'irlash kimga ham kerak? Mendan ko'ra yosh va chiroylilar ko'p-ku...» deb javob qilardi. Men unga: «Bo'lmag'ur gapni qo'ysangizchi, Kisochka, avvalo o'zim sizni o'g'irlab ketardim!» derdim. Shu taqlid gap chuvala borib, oxiri, oshig'im olchi turardi. Biroq, Kisochka menga javoban jilmaymadi, aksincha, yuzlariga jiddiy tus kirib, uh tortdi.

— Ana shu eshitganlaringizning hammasi to'g'ri... — dedi u. — Aktyor bilan qochib ketgan qiz mening xolavachcham Sonya bo'ladi. Bu yaxshi gap emas, albatta. Har bir odam taqdirga tan berishi kerak. Lekin men ularni qoralamoqchi emasman... Ba'zan vaziyat kishidan ustun keladi!

— Bu-ku to'g'ri-ya, Kisochka, lekin qanday vaziyat yuqumli kasal tarzida bo'lishi mumkin?

— Bu ma'lum va ravshan... — dedi qoshlarini chimirib Kisochka. — Bu yerda ziyoli qiz va juvonlar o'zlarini qaerga qo'yishni bilmaydilar. Kursga o'qishga ketishga, o'qituvchilik qilishga, umuman, erkaklar singari g'oya va maqsad bilan yashashga har bir ayol ham qodir emas. Bo'lmasa erga tegish kerak, dersiz... Xo'sh, qani kimga tegaylik? Siz — o'g'il bolalar gimnaziyada o'qishni tamom qilgach, o'z tug'ilgan shaharingizga qaytib kelmaslik uchun universitetga kirasiz, poytaxtning o'zida uylanisiz, bu yerdagi qizlar esa qolib keta beradi.. Xo'sh, shunday bo'lgach, ularni kimga teg deysiz endi? O'qimishli, vijdonli yaxshi erkaklar bo'lmaganidan keyin qizlarimiz duch kelgan, araq ichadigan, klublarda janjal ko'taradigan, qaerdagi dallol va

kelgindilarga tegishga majbur bo'ladilar-da, bekorga umrlarini xazon qiladilar... Shundan keyin hayot nima bo'lardi deysiz? O'zingiz yaxshi tushunasizki, tarbiya ko'rgan, o'qimishli xotin bemaza bir odam bilan hayot kechirayotib, ziyoli odamni: ofitsermi yo aktyor, doktormi yoxud allakimni ko'radi-da, uni sevib qoladi; shundan so'ng hayot do'zaxga aylanib, erini tashlab qochadi. Ularni ayblab bo'lmaydi!

— Kisochka, unday bo'lsa erga tegib nima qilishadi? — deb so'radim.

— Albatta, — dedi Kisochka chuqur nafas olib, — axir har qanaqa qiz ham biron erkakning bo'lishini afzal ko'radi-da... Umuman, Nikolay Anastasevich, bu yerda yashash oson emas, g'oyat qiyin! Qiz o'tirsang joning qiynoqda, erga tegsang undan badtar... Mana hamma Sonyaning qochib ketganini masxara qiladi. Yana artist bilan-a deyishadi, agar ular Sonya qalbini bilsalar, bu taqlid kulishmagan bo'lardi...

Tashqaridan yana Azorkaning vovullagani eshitildi. U, allakimga g'azab bilan vovullab, keyin g'amgin g'inshib oldi va butun gavdasi bilan o'zini baragimiz devoriga urdi... Ananevning yuzi achinishdan bujmaydi, u, hikoyasini bo'lib, tashqari chiqib ketdi. Ikki minutcha uning eshik orqasida itni ovutayotgani eshilib turdi. U zo'r berib: «Zap yaxshi it-da! Voy bechoragina-ey!» derdi.

— Nikolay Anastasichimiz suhbatni yaxshi ko'radi, — dedi fon Shtenberg iljayib va biroz jim qolgach. — Yaxshi odam! — deb qo'ydi.

Injener barakka qaytib kelib, stakanlarimizga yana vino quydi, keyin iljayib, ko'kraklarini silarkan, so'zini qolgan joyidan davom etdirdi:

— Shunday qilib, mening hujumim bekor ketdi. Iloj yo'q, o'zimning buzuq niyatimni boshqa bir qulayroq paytgga qoldirib, mag'lubiyatga ko'nikishga, bor-e deb, qo'l siltab qo'ya qolishga majbur bo'ldim. Kisochkaning tovushi, kechki musaffo havo hamda jimlik menga ta'sir qilib, o'zim asta-sekin dilbar bir kayfiyatga keldim. Esimda bor, men lang ochiq deraza tagidagi kresloda daraxtlarga va qorayib ketgan osmonga qarab o'tirardim. Akatsiya bilan org'uvon daraxtlari bundan sakkiz yil ilgarigiday bir xilda ko'rinardi; o'sha yoshlik yillarimdagi singari hozir ham allaqaerda, uzoqda fortepyano g'ingillar, o'sha vaqtdagi kabi xiyobonning u boshidan bu boshiga kishilar sayr qilib yurar, lekin bu sayr qilib yurganlar boshqa odamlar edi. Endi bu xiyobonlarda men, o'rtoqlarim, yoki sevganim emas, bizga tanish bo'lmagan allaqanday gimnazistlar va notanish qizlar sayr qilib yurardi. Qalbim g'amgin hislarga to'ldi. Kisochkadan tanish-bilishlarimni so'rardim, undan besh marta «o'lgan» degan javob oldim, bundan g'amginligim oshib, ko'nglim vafot etgan yaxshi odamlar azasida o'tirgandek buzilib ketdi. Deraza tagida o'tirib, sayr etib yurgan kishilarni tomosha qilarkanman, fortepyano g'ingillashiga quloq solarkanman, umrimda birinchi marta, bir avlod ikkinchi avlodni almashishga qanchalik ehtiros bilan shoshilib ketayotganini va odamzod hayotida yetti-sakkiz yil degan narsa mash'um ahamiyatga ega ekanini o'z ko'zim bilan ko'rdim!

Kisochka stolga santurin degan bir shisha vino keltirib qo'ydi. Men ichdim, kayfim oshib, uzoq vaysadim. Kisochka so'zimga quloq solib, avvalgiday o'zimga va aqlimga qoyil qolar, zavq bilan menga

qarab o'tirardi. Vaqt o'tib bormoqda edi. Osmon shunday qorong'i bo'lib ketdiki, akatsiya bilan arg'uvon daraxtlarining qorasi bir-biriga qo'shilib ketdi, xiyobonda sayr qilib yurganlar ko'rinmay qoldi, fortepyanoning ovozi o'chdi, yolg'iz dengizning bir me'yordagi shuvullashi eshitilardi.

Eshlarning hammasi bir xil. Yesh yigitni erkalatib, silab-siypasangiz, vino bersangiz, yaxshi va kelishgan yigitsan deb maqtasangiz bo'ldi, hamma narsani unutib, og'zini ochib o'tira beradi, ketish kerakligini unutib, hadeb gapira beradi... Mezbonning uyqusi kelib ko'zlari yumilib ketayotgan bo'lsa ham, hamon jag'i tinmay gap sotaveradi. Men ham xuddi shunday bo'ldim. Bir safar behosdan soatga ko'zim tushganda vaqt o'n yarim bo'lgandi. Xayrlashmoqchi bo'lib turgan edim:

— Ketar jafosiga iching, — dedi Kisochka.

Men ketar jafosiga yana ichdim, keyin uzundan-uzoq gapga tushib ketdim, ketishim kerakligini ham unutib, yana o'tirdim. Shu palla erkaklarning ovozi, qadam tovushi va shporlar jiringlashi eshitildi. Allaqanday odamlar deraza tagidan o'tib, eshik yonida to'xtashdi.

— Erim kelganga o'xshaydi... — dedi Kisochka tashqaridan kelayotgan ovozlarga quloq solib.

Eshik shiq etdi, ovozlari endi dahlizdan kela boshladi, men oshxonaga kiradigan eshik yonidan o'tgan ikki kishining qorasini ko'rdim: biri semizdan kelgan, qoramag'iz yuzli, poxol shlyapali qirg'iy burun bir odam, ikkinchisi oq kitel kiygan yosh ofitser edi. Ular eshik yonidan o'taturib, men va Kisochkaga byoparvo ko'z tashlab qo'yishdi, menga ularning har ikkovi ham g'irt mastga o'xshab ko'rindi.

— Demak, u senga yolg'on gapirgan, sen laqqa ishongansan! — degan ovoz eshitildi, oradan bir minut o'tmay, g'oldirab. — Birinchidan, bu narsa katta klubda emas, kichigida bo'lgan edi.

— Yupiter, jahling chiqyapti, demak haqli emassan... — dedi ikkinchisi, yo'talayotgani kulib, ehtimol bunisi ofitserning ovozi bo'lsa. — Menga qara, bugun uyingda yotib qolsam maylimi? Ochig'ini aytaver: senga bermalolmi?

— Bu qanaqa savol?! Yotib qolishing mayligina emas, shart! Nima ichasan: pivomi, yo vinomi?

Ular bizdan ikki xona narida o'tirib, baland ovozda gaplashardi, na Kisochka, na uning mehmoniga qiziqishmasdi. Kisochkada erining kelishi bilan sezilarli o'zgarish yuz berdi. U, avvaliga qizardi, keyin yuzida cho'chish va o'zini gunohkordek sezish aks etdi. Umuman vujudini allaqanday xavotirlik qopladi, menga u erini ko'rsatgani uyalayotganday, shuning uchun tezroq ketishimni kutayotganday tuyildi.

Men xayrlashdim. Kisochka eshikkacha kuzatib chiqdi. Uning xayrlashayotgandagi yoqimtoy va g'amginlik bilan jilmayishi, erkalik va itoatkorlik bilan boqishi hali ham yodimda. U qo'l berib xayrlasharkan:

— Ehtimol, endi hech bir ko'rishmasmiz... — dedi, — ilohi ishingiz o'ngidan kelsin. Kelganingiz uchun rahmat!

Ortiq bir og'iz gapirmadi va biron marta uh tortmadi. Men bilan xayrlashayotganda qo'lida sham bor edi; yorug' doiracha xuddi uning hasratli jilmayishini quvib yurganday yuzida, bo'ynida o'ynardi; men bir zamonlar ko'rganda mushuk

bolasidek silaging keladigan Kisochkani xayolimdan o'tkazib, ko'z oldimda turgan Kisochkaga sinchiklab qaradim. Negadir xotiramga uning: «Har bir odam taqdirga tan berishi kerak» degan so'zi keldi. Shundan keyin ko'nglim juda o'zgarib ketdi. Mendek baxtiyor va beparvo odam oldida g'oyat mehribon, sofdil, ammo ko'p azob-uqubat chekkan juvon turganini butun vujudim bilan sezdim.

Men ta'zim qilib, darvoza tomon yurdim. Allaqachon qorong'i tushgan, Janubda iyul oylarida kech juda erta tushib, bir nafasda hammayoq qorong'i bo'lib ketadi. Soat o'nga borib shunday qorong'i bo'ladiki, kishi ko'z oldidagini ham ko'rmaydi. Men turtinib-surtinib yurib, darvozagacha yigirmatacha gugurt chaqdim.

Darvozadan chiqdim-u:

— Izvozchik! — deb qichqirdim, menga biron ovoz eshitilmadi... Men yana: — Izvozchik! — deb qichqirdim.

— Ey, leneyka!

Izvosh ham, lineyka ham yo'q edi. Atrofim mozorday jimjit. Qulog'imga faqat dengizning shuvillashi, boyagi santurin vinosidan yuragimning urishi eshitiladi. Boshimni ko'tarib osmonga qaradim — bironta yulduz ko'rinmaydi. Qorong'i va osmonni bulut qoplagan bo'lsa kerak. Men negadir yelkamni qisdim, telbadek tirjayib, botinmay, yana «Izvozchik!» deb baqirdim.

— Oshch! — degan aks sado eshitildi.

To'rt chaqirim dala yo'lini qorong'ida o'tish — ko'ngilga xush yoqmaydigan narsa, albatta. Piyoda yo'lga tushishdan oldin men uzoq o'yladim, tag'in izvosh chaqirdim, shundan keyin yelkamni qisib,

aniq bir qarorga kelmay istar-istamas daraxtzorga keldim. Daraxtzor ichi zimiston. U yer bu yerda, daraxtlar orasidan chorbog'chilarning derazalaridan g'ira-shira yorug' ko'zga chalinib qoladi. Qadamim tovushidan va gugurt chaqib, shiyponcha yo'lini yoritishimdan cho'chib ketgan qarg'a daraxtdan-daraxtga uchib o'tar va zo'r berib barglarni shitirlatardi. Mening ham jahlim chiqar, ham xijolat tortardim. Bu holatimni sezganday qarg'a meni masxara qilib, qag'-qag' deyardi! Piyoda qaytib ketish alam qilar va Kisochka uyida xuddi yosh boladek vaysaganimdan xijolat tortar edim.

Oxiri shiypongacha yetib bordim, qo'lim bilan skameykani paypaslab topib, o'tirdim. Pastda, qorong'ilik qo'ynida dengiz ohista va shaxdam shuvillardi. Men ko'r odamday dengizni ham, osmonni ham, hatto o'zim o'tirgan shiyponchani ham ko'rmay, butun dunyo faqat mast kallamga kelgan fikrlar va pastda allaqaerda bir xilda shuvillayotgan ko'rinmas kuchdan iboratga o'xshab tuyilardi. Keyin mudroq bosdi, shuvillayotgan dengiz emas, mening fikrlarimga o'xshab ketdi. Butun dunyo esa yolg'iz mendan iboratdek sezildi. Shunday qilib, butun dunyoni o'zimda mujassamlantirib izvoshchilarni, shaharni, Kisochkani unutdim va o'zim sevgan tuyg'ularga berildim. Bu dahshatli yolg'izlik tuyg'usi bo'lib, qop-qorong'i, shaklsiz butun olamda mendan bo'lak tirik jon yo'qqa o'xshardi. Bu tuyg'u, o'z tekisliklari, o'rmonlari va qorlari singari fikrlashi ham, his-tuyg'ulari ham cheksiz va bepoyon bo'lgan rus kishilariga xos g'ururli, iblisona bir tuyg'u edi. Agar men rassom bo'lganimda, boshini qo'llari orasiga olib, oyoqlarini ostiga bukib, qimirlamay

o'tirgan va ana shu tuyg'ularga berilgan rus kishisining yuzidagi ifodani tasvirlardim... Mana shu tuyg'ular bilan bir qatorda hayotning bema'niligi, o'lim va narigi dunyo haqidagi fikrlar... Bu fikrlar aslida bir chaqaga ham qimmat, ammo, yuz ifodasi nihoyatda chiroyli chiqsa kerak...

O'rnimdan qo'zg'olmay, mudrab o'tirarkanman, o'zimni iliq va xotirjam sezdim; dengizning sekin, bir me'yorda shuvillashi orasidan bir hodisa sodir bo'lganday bnrin-кетин eshitilgan ovozlari xayolimni bo'ldi... Kimdir xiyobondan jadal kelardi. Bu odam shiyponga yetganda to'xtadi-da, yosh qizdek entikib, yig'loq bir ohangda:

— Ey parvardigor, bu azob-uqubat qachon tugaydi? Tangrim! — deb nola qildi.

Ovozi va yig'isiga qaraganda qiz o'n-o'n ikki yoshlarga kirganga o'xshardi. U, taraddud ichida shiyponchaga kirib o'tirdi-da, so'nik ovozda g'o'ldiray boshladi. Uning ibodat qilayotganini ham, shikoyat qilayogganinn ham bilib bo'lmasdi...

— Yo rabbim! — dedi u yig'i aralash cho'zib. — Axir bunga chidab bo'ladimi! Pichoq suyakka borib taqaldi-ku! Men shu mahalgacha sabr-toqat qilib keldim, indamadim, tushungin, ahir, mening ham yashagim keladi. Voy xudoyim-ey!

Hammasi shu taqlid gaplar... Men qizni ko'rgim va u bilan gaplashgim keldi. Uni cho'chitib yubormaslik uchun avval qattiq uh tortdim, keyin yo'taldim va ohista gugurt chaqdim... ravshan nur qorong'ilikda chaqnab, yig'layotgan odam yuzini yoritdi. U Kisochka edi...

— Manavi antiqani qarang! — deb uh tortdi fon Shtenberg. — Qorong'i kecha, dengiz

o'ng qo'lga qayrilib, yumshoq to'proq yo'ldan asta-sekin ketdik. Tun qorong'i; ko'zim sekin-asta qorong'ilikka o'rgangach yo'lning ikki yoqasidagi kekxa, lekin ingichka eman va arg'uvon daraxtlari qorasini ko'ra boshladim. Tez orada o'ng qo'lda, u yer bu yerini o'pqnlar va mayda-chuyda jarliklar qoplagan notekis sahn g'ira-shira ko'zga tashlandi. Jarliklar bo'yida xuddi pusib o'tirgan odamdek pastak butalar turardi. Yuragimni vahima bosib ketdi. Men shubhalanib qirg'oq tomon ko'z qirimni tashladim, dengiz shuvillashi, dalalarning sukunati yuragimga g'ulg'ula soldi. Kisochka indamay borar, u hamon qaltirar, yarim chaqirimcha yo'l bosmay yurishdan madori qurib, xalloslab qoldi. Men ham indamay ketmoqda edim.

Karantindan bir chaqirimcha narida bir vaqtlari bug' bilan ishlangan, mo'rilari juda ham baland, to'rt qavatli tashlandi tegirmon binosi bor. U sohilda yagona bino bo'lib, kunduzi dengizdan ham, dalalardan ham ko'rinib turadi. Bino tashlandi va unda hech kim yashamasligi, har qanaqa ovozlarga aks sado berishi, o'tgan-ketganlarning ovozi va qadam tovushi bino ichidan barala eshilib turishidan ko'zga juda sirli hamda vahimali ko'rinadi. Mana shu qop-korong'i kecha qo'ynida eridan qochib ketayotgan xotinni qo'ltiqlab, o'yib olingan ko'zdek yuzlab qora derazalari tikilib turgan, har bir qadamimning sadosini takrorlayotgan bino oldida turgan meni tasavvur eting. Bunday kezda, esi joyida bo'lgan yosh yigit romantizmga berilib ketardi, men bo'lsam qop-qora derazalarga qarab, o'zimcha: «bularning hammasi dahshatli, lekin bir kun kelib shu binodan, Kisochkadan,

uning g'am-anduhlaridan, men va mening barcha fikr-o'ylarimdan nomu nishon qolmaydi... Barchasi bo'lmag'ur, behuda narsalar...» deb o'yladim.

Biz tegirmon yoniga yetganimizda Kisochka to'satdan to'xtadi, qo'lini ohista bo'shatib olib, avvalgiday yosh qiz ovozi bilan emas, o'zining rasmana ozozi bilan:

— Nikolay Anastasich, bularning hammasi sizga juda g'alati ko'rinayotgandir, — dedi, — lekin, men juda baxtsizman! Qanday baxti qora ekanimni tasavvur ham qilolmaysiz! Tasavvur qilib ham bo'lmaydi! Sizga uni gapirib o'tirmayman, chunki gapirib ham bo'lmaydi. Shunday hayot, shunaqanggi bayot...

Kisochka gapini tugatolmadi, tishlarini g'ijirlatib, shunday ingradiki, go'yo og'riqdan baqirib yubormaslik uchun kuchining boricha o'zini tiyib turganga o'xshadi...

— Shunaqanggi hayot! — deb takrorladi u qo'rquv bilan va cho'zib. Bu ovozda janublilarga, xoxollarga xos bo'lgan, ayniqsa xotinlarning hayajonli so'zlashiga qo'shiq ruhini beradigan ohang yangrab eshitildi. — Shunaqanggi turmush! Voy xudoyim-ey, bu qanday gap, a? Ey, parvardigor!

U, go'yo o'z hayotining sirini yechmoqchi bo'lganday hayrat bilan yelkasini qisdi, boshini chayqab, qo'lini-qo'lga urdi. Xuddi ashula aytayotganday so'zlar, barakati esa jozibali hamda chiroyli edi; shu topda u menga tanish bir otoqli ukrain aktrisasini eslatdi.

— Oh xudo, men xuddi zindonda yotganga o'xshayman! — dedi u, so'zida davom etib va barmoqlarini qisillatib. — Qani endi, aqalli bir

nafasgina odamlarga o'xshab shod-xurram yashasam!
E, xudo! Qanday malomatli kunlarga qoldi bu
boshim! Yot odam oldida xuddi allaqanaqanggi
sayoq xotinlardek yarim kechasi erimni tashlab
qochib ketyapman. Shundan keyin nimaga umid
bog'lab bo'ladi?

Men uning harakati va ovozi bilan zavq bilan
kuzata turib, Kisochkani eri bilan yomon turishidan
xursand bo'layotganimni birdan payqab qoldim.
Ko'nglimdan darhol: «U bilan bir kecha birga
bo'lishga nima yetsin!» degan fikr o'tdi. Bu
shafqatsiz fikr ko'nglimga qattiq joylashib olib,
yo'l bo'yi menga tinchlik bermadi. Tobora meni
ko'proq vasvasaga solib, yuragimni qitiqlab bordi...

Tegirmondan bir yarim chaqirimcha o'tilgach,
shaharga borish uchun mozor yonida chapga qayilish
kerak. Ana shu qayilishda, mozor muyishida g'ishtin
shamol tegirmon bor, uning yonidagi kichik uyda
tegirmonchi yashaydi. Biz tegirmon va uning egasi
uyidan o'tib ketdik, keyin chapga qayrilib, mozor
darvozasiga yetdik. Shu yerda Kisochka to'xtadi.

— Nikolay Anastasich, men qaytib ketaman! —
dedi u, — siz keta bering, xudo yo'lingizni bersin,
uyimga o'zim qaytib ketaman. Men qo'rqmayman.

— Iya, topgan gapingizni qarang-a! — dedim
cho'chib, — onangizmikiga boradigan bo'lsangiz
boring-da...

— Men bekor qizishib, tezlik qilibman... janjal
arzimagan narsadan chiqdi. Sizning so'zlaringiz
o'tmishni yodimga tushirdi. Shundan keyin
ko'nglimga turli o'ylar keldi... Yuragim siqilib
turgandi. Erim ofitser o'rtog'i oldida menga nojo'ya
gap qildi, men chidab turolmadim... Shaharda,

oyimning oldida nima bor? Shunday qilsam baxtli bo'larmidim? Qizig'ida qaytganim yaxshi... Yo'q, keling... yura bering! — dedi Kisochka va jilmayib qo'ydi. — Bo'lar ish bo'ldi!

Men mozor darvozasidagi: «Shunday soat keladiki, barcha qabrda yotganlar Isoning ovozi eshitadilar» deb yozib qo'yilgan lavhani esladim, men, qachondir ertami, yo kech, bir kun kelib o'zim ham, Kisochka ham, uning eri, oq kitelli ofitser ham, hammamiz anavi qorayib ko'rinayotgan daraxtlar ostidagi panjara naryog'ida yotajagimizni yaxshi bilardim. Shu bilan birga yonimda baxti qora, haqoratlangan odam ketayotganini ham bilardim, bular menga ravshan edi, lekin Kisochka qaytib ketadi-yu men unga aytmqchi bo'lgan gaplarimni aytolmay qolaman degan malol keladigan va ko'ngilsiz xavotirlik dilimga hayajon soldi. Kallamda hech qachon o'sha tundagidek oliy fikrlar o'zimning pastkash niyatlarim bilan qo'shilib, bu darajada aralashib ketmagandi... Qanday dahshat!

Mozor yaqinida izvosh topdik. Kisochkaming onasi istiqomat qiladigan Bolshaya ko'chasiga yetganimizda izvoshdan tushib, yo'lkadan ketdik. Kisochka hamon jim ketardi, men esa unga qaragan sari jahlim chiqib: «Nega indamaysan, axir? Gapirsangchi, ayni fursat-kul!» deb o'zimni-o'zim koyirdim. Men yashayotgan mehmonxonadan yigirma qadam beridagi fonar tagiga yetganimizda Kisochka to'xtab, yig'lab yubordi.

— Nikolay Anastasich! — dedi u yig'i va kulgi aralash. Keyin yosh to'la ko'zlarini jovdiratib, menga tikildi. — Ana shu qilgan yaxshiligingizni

bir umr unutmayman... Qanday yaxshi odamsiz! Sizlarning hammangiz ana shunday azamatsizlar! Oq ko'ngil, himmatli, donishmand, muruvatli... Oh qanday yaxshi-ya!

U menga hamma jihatdan ilg'or va yetuk madaniyatli odam deb qarardi; uning ko'z yoshlaridan ho'l bo'lib ketgan yuzida, menga nisbatan tug'ilgan zavq va mehr bilan bir qatorda, menga o'xshagan odamlarni juda kam ko'rishi va shunday odamlardan birini xotini bo'lishdek baxtni xudo unga ravo ko'rmaganidan afsuslanish bor edi. «Oh, qanday yaxshi-ya!» deb yana g'o'ldiradi u. Yuzidagi go'daklik sevinchi, ko'z yoshlari, muloyim jilmayishi, ro'moli ostidan chiqib turgan mayin sochlari, beparvolik bilan boshiga tashlab olgan ana shu ro'molining o'zi menga fonar yorug'ida ko'rganingda mushukdek silab-siypaging keladigan ilgarigi Kisochkani eslatdi...

Men chldab turolmay uning sochlarini, yelkasini, qo'llarini siladim...

— Kisochka, ayt axir, nima istaysan? — deb g'o'ldiradim. — Istasang sen bilan dunyoning narigi burchiga borishga roziman! Men seni ana shu zindondan olib ketaman, baxtli bo'lasan, Seni sevaman... Birga ketaylik, jonginam! Xo'pmi? Yaxshimi?

Kisochkaning yuzida taajjub paydo bo'ldi. U, fonar ostidan bir qadam chekinib, ko'zlarini katta ochib menga tikildi. Men esa uning qo'lini mahkam ushlab yuzini,, yelkasini, bo'ynini o'pdim, qasam ichib, turli-tuman va'dalar berdim. Ishq-muhabbatda qasam ichish jismoniy bir zaruriyatdir. Busiz ish bitmaydi. Ba'zan shunday bo'ladiki,

yolg'on gapirayotganingni o'zing xam bilib turasan, va'da berish kerak emas, lekin, bari bir qasam ichib, va'da berasan. Hayratda qolgan Kisochnka hamon orqaga tisarilar va ko'zini baqraytirib menga qarardi.

— Yo'q, yo'q! Kerak emas! — deb shivirladi u qo'li bilan meni o'zidan chetlatib.

Men uni mahkam quchoqlab oldim. To'satdan u asabiylashib, ho'ngrab yig'lab yubordi, uning yuzi shiyponchada gugurt chiqqanimdagi singari notayin va allaqanday beparvo tusga kirdi. Men uning so'zlashiga xalaqit berib, roziligini olmay, mehmonxonaga sudrab kirdim... U, xuddi toshday qotib qolgan, yurmasdi, shunga qaramay men uni qo'ltig'idan ushlab, deyarlik ko'tarib olib ketdim... Esimda, biz zinapoyadan chiqayotganimizda allaqanday qizil gardish furajkali odam taajjub bilan menga qaradi-da, Kisochnkaga salom berdi...

Ananev qizarib ketdi va so'zdan to'xtadi. U, jimgina stol yonidan o'tdi, zarda bilan bo'ynini qashidi, keyin o'zining badaniga yugurgan sovuqdan junjib, kurak o'rtasini va yelkasini qisdi. Unga o'tmishni xotirlash og'ir, o'zi bilan o'zi olishmoqda edi...

— Yaxshi emas! — dedi u stakandagi vmoni ichay deb turib, bosh silkib. — Aytishlariga qaraganda, talaba mediklarga har safar xotin-qizlar kasalliklari to'g'risida kirish lektsiyasi o'qish va bemor ayolni yechintirib, u yoq bu yog'ini ushlab ko'rishdan oldin ularga har birining onasi, singlisi va qallig'i borligini eslashni maslahat berisharkan... Bu gap yolg'iz mediklarga emas, hayotda biron sabab bilan xotinlarga duch keladigan barcha kishilarga aloqador va aytilishi lozim. Mana hozir,

xotinim va qizim bor, mana endi bu maslahatning qanchalik o'rinli ekanini tushundim! Aytganday, bu yog'ini eshitinglar... Kisochka mening sevgilim bo'lganidan keyin, bunga boshqacha nazar bilan qaradi. Avvalo, meni ixtiros bilan chuqur sevdi. Men uchun qisqa muddatli ko'ngil ocbish uning xayotida katta o'zgarish yasadi. Esimdaki, u aqldan ozgan odamga o'xshab qolgandi. Hayotida birinchi marta baxtli bo'lib, yasharib ketdi, yuzlarida zavq va quvonch o'ynab, baxtiyorlikdan o'zini qo'ygani joy topmay goh kular, goh yig'lardi, ertaga biz qanday qilib Kavkazga jo'nashimiz, u yerdan kuzda Peterburgga borishimiz, so'ng qanaqa hayot kechirishimiz to'g'risida orzu-umidlarini tinmay ocbiq gapirardi...

— Erim to'g'risida aslo tashvish tortma, — deb menga tasalli berdi, — u menga taloq xatimni berishga majbur. Chunki Kostovichning katta qizi bilan uchrashib turishini butun shahar biladi. Men undan ajralaman, ikkimiz nikohdan o'tamiz.

Xotinlar sevib qolsa, mushukka o'xshab, qishiga juda tez ilashib, ko'nikib ketadi. Kisochka mening xonamda atigi bir yarim soat bo'ldi-yu, lekin xuddi o'z uyida o'tirgandek, mening buyumlarimni o'z buyumidek bilib, tergay boshladi. Buyumlarimni chemodanga joyladi, qimmatbaho paltomni qoziqqa ilmay lattadek stulga tashlab qo'yganim uchun koyidi va hokazolar.

Men unga qarab, so'zlarini eshitib o'tirarkanman, o'zimning charchaganim va bu ishdan pushaymon bo'layotganimni sezdim. Oqko'ngil, nomusli, jaf tortgan ayolling uch-to'rt soat ichida duch kelgan odam quchog'iga otlib, o'ynash bo'lgani mening

g'ashimga tegmoqda edi. Ko'rdingizmi, menday insofli odamga bu narsa yoqmay qoldi. Keyin, Kisochka kabi yengiltak ayollarning hayotni haddan ziyod sevishlari, hatto bekorchi gap bo'lgan — o'zlarining erkaklarga muhabbatlarini oliy baxt, azob-uqubat va hayotni o'zgartuvchi narsa darajasiga ko'tarishlari menda yomon ta'sir qoldirdi... Buning ustiga, murodim hosil bo'lgach, bu ayol bilan yaqinlashib telbalik qilganim va endi beixtiyor uni aldashim kerakligidan o'zim pushaymon bo'lmoqda edim... Ha, darvoqi, shuni ham aytib o'tayki, o'zimning xiyla intizomsizligimga qaramay, yolg'on gapirishni o'larday yomon ko'rardim.

Hozir ham esimda, Kisochka boshini tizzamga qo'yib o'tirardi. Muhabbatdan yonib turgan ko'zlarini menga tikib:

— Kolya, meni sevasanmi? — deb so'rardi. — Juda ham sevasanmi? A juda ham-a?

Shunday deb, u quvnab kuldi... Bu narsa mening ko'zimga tuyg'uga ortiq berilish, ko'ngilni aynatuvchi nodonlik bo'lib ko'rindi. Lekin o'zim, shu paytda avvalo hamma narsadan «chuqur fikr» izlash kayfiyatida edim.

— Kisochka, onang uyiga ketsang bo'lardi, — dedim. — Bir balo bo'lib, yo'qliging bilinib qolsa, qarindosh-urug'laring butun shaharni kezib, izlab yurishmasin tag'in. Oying oldiga ertalab kirib borsang, yaxshi bo'lmaydi...

Kisochka so'zimni ma'qulladi. Xayrlashayotib, u bilan ertaga kunduzi shahar istirohat bog'ida uchrashadigan, indiniga Pyatigorskka birga jo'nab ketadigan bo'lib, ahdlashdik. Uni ko'chagacha kuzatib chiqdim. Yo'lda samimiy va mehribonlik

bilan erkalatganim hali ham xotiramda. Shunday daqiqalar ham bo'ldiki, hech shubhasiz menga ishonayotgani uchun unga rahmim keldi, hatto, o'zim bilan Peterburgga olib ketmoqni xayol qildim. Lekin, chemodanimda atigi olti yuz so'm borligi, kuzda esa undan ajralish hozirgidan ko'ra yanada qiyinroq bo'lishni eslab, darhol rahm-shafqatimni yig'ishtirib qo'ydim.

Biz Kisochkaning onasi yashaydigan uy oldiga keldik. Men qo'ng'iroqni bosdim. Eshik orqasidan oyoq tovushi eshitilganda Kisochkaning yuzida darhol jiddiy qiyofa paydo bo'lib, osmonga qaradi va meni shoshilib yosh boladek qayta-qayta cho'qintirdi, shundan keyin qo'limni mahkam ushlab, lablariga bosdi.

— Ertagacha xayr! — dedi u va uyga kirib ketdi.

Men ko'chaning narigi betiga o'tib, yo'lkadan turib, ro'paramdagi uyni ko'zdan kechirdim. Avval derazalar qop-qorong'i edi, to'satdan bir derazada yoqilgan shamning xira ko'kish nuri ko'rindi; u kattalanib, o'zidan shu'la taratdi. Ana shu nur bilan birga allaqanday soyalar xona bo'ylab yura boshladi.

«Kutishmagan ekan!» deb ko'nglimdan o'tkazdim.

O'z nomerimga qaytib kelib, yechindim, santurin vinosidan ichib, bozordan kunduz kuni sotib olgan donador ikra bilan zakuska qildim. Shoshilmay o'rnimga yotdim-da, turistlar singari xotirjam va qattiq uyquga ketdim.

Ertalab o'rnimdan turganimda boshim og'rir, kayfim buzuq, negadir ko'nglim g'ash edi.

— Nima gap o'zi? — deb so'radim o'zim o'zimdanda, nimadan tashvishlanayotganimni bilmoq uchun. — Meni nima bezovta qilyapti? Kisochka kelib qolsa jo'nab ketishimga xalaqit berishi va unga yolg'on gapirib, ming tovlanishim kerakligi meni bezovta qilayotgan ekan. Men tezgina kiyindim-da, buyumlarimni chemodanga joylab, uni kechqurun soat yettiga vokzalga yetkazib berishlarini buyurib, mehmonxonadan chiqib ketdim. Kun bo'yi bir tanish doktor o'rtog'im uyida o'tirdim, kech kirgach, shahardan jo'nab ketdim. Mana, o'zingiz ko'rib turibsizki, mening fikrim g'oyat pastkashlik bilan, xiyonatkorona ravishda shahardan qochib qolishga xalaqit bermadi.

Tanish doktor o'rtog'im uyida o'tirganimda ham, vokzalga chiqib ketayotganimda ham xavotirlikdan o'zimni qo'ygani joy topmadim. O'zimcha Kisochka bilan uchrashishdan, biron janjal chiqishidan ko'rqayotganga o'xshardim. Vokzalda ataylab ikkinchi qo'ng'iroq urilguncha hojatxonada o'tirdim. O'z vagonim tomon ketayotganda qalbimni shunday og'ir tuyg'ular qamrab oldiki, go'yo boshimdan oyog'imgacha o'g'irlangan buyumlar bilan o'ralgandek edim. Zo'r vahima va sabrsizlik bilan uchinchi qo'ng'iroq chalinishini kutdim!

Nihoyat quvonchli, jonimga ora kiruvchi uchinchi qo'ng'iroq urildi, poezd yo'lga tushdi; qamoqxona bilan kazarma ham orqada qolib ketdi, keng dala boshlandi, ammo, meni hayron qilgan narsa shu bo'ldiki, yuragimning bezovtaligi hamon bosilmagan edi. O'zimni hali ham zo'r berib qochishga tirishayotgan o'g'riday his qilmoqda edim. Bu qanaqasi a? O'zimni bosib olish va

ko'ngildagi chigilni yozish uchun, vagon derazasidan tashqariga qaradim. Poezd sohil yoqalab borardi. Dengiz sathi oynaday silliq, kechki shafaqning oltinsimon nozik shu'lasini yoyilgan feruza osmon dengizda jilvalanib, osoyishta aks etib turardi. Dengizning u yer bu yerida baliqchilarning sol va qayiq-lari ko'zga qorayib ko'rinardi. Baland sohilga joylashgan xuddi qutichaday bejirim va g'uborsiz shahar ustini asta-sekin kech qorong'iligi qoplay boshlagan edi. Uning oltin boshli cherkovlarida, derazalari va ko'katlarida botayotgan qo'yoshning nuri aks etib, eritilayotgan oltinday yallug'lanar va so'nardi... Dalalardan taralayotgan xushbo'y is dengizdan esayotgan yoqimli nam havo bilan qo'shib ketmoqda.

Poezd uchib borardi. Yo'lovchilar va konduktorlarning kulgilari tinmaydi, hamma shod-xurram, o'zini yengil sezardi, yolg'iz mening g'alati bezovtaligim borgan sari zo'rayardi... Men shaharni bosayotgan nursiz qorong'ilikka qaradim, nazarimda, ana shu qorong'ilik ichidagi cherkov hamda uylar yonida, yuzida biron ifoda bo'lmagan, beparvo qarovchi xotin zir yugurib meni qidirib yurganga o'xshadi. U yosh qizdek yoki ukrain aktrisasi singari cho'zib: «Yo rabbim, yo rabbim!» deb ingrardi. Kecha xayrlashayotib, uning jiddiy yuz va tashvish to'la ko'zlarini katta ochib, xuddi o'z o'g'lidek meni cho'qintirganini esladim, shu zahoti, kecha u o'pgan o'z qo'llarimga beixtiyor qaradim.

Qo'limni qashib turib: «Nima balo, yaxshi ko'rib qoldimmi?» deb o'zimdan-o'zim so'radim.

Faqat kechasi bo'lib, yo'lovchilar uyquga ketib, men o'z vijdonim bilan yolg'iz qolganimdagina

ilgarigi g'alati tuyg'umni fahmlab qoldim. Hozirgina yoritilgan vagonda, ko'z oldimda Kisochka obrazi turardi, xuddi ana shu fursatda men odam o'ldirish darajasida yovuzlik qilganimni angladim. Vijdon azobi qiynamoqda edi. Ana shu azob-uqubatli hislarni hosmoq uchun bularning hammasi behuda, bo'lmag'ur narsa, bari bir men ham, Kisochka ham o'lib, chirib ketamiz, uning qayg'u-alamlari esa o'lim oldida hech gap emas va hokazo va hokazo, deb o'zimga tasalli berishga tirishdim... Qisqasi, ozod iroda yo'q, demak shunday bo'lgach men ham aybdor emasman; lekin mana shu dalillarning o'zi mening g'ashimga tegardi va ular bo'lak o'y-mulohazalarim ichida g'alati bir tezlikda yo'qolib ketardi. Kisochka o'pgan qo'limdan qo'msash hissi sezdim... Goh joyimga borib yotar, gob o'rnimdan turib stantsiyalarda araq ichar, o'zimni mejbur qilib buterbrod yerdim, keyin hayotning bir chaqalik qimmati yo'q deb, o'zimni ishontirishga tushdim, ammo bundan hech nima chiqmadi. Mening miyam g'alati narsalar, ochig'i, kulgili narsalar bilan to'lib toshgandi. Sira bir-biriga o'xshamagan fikrlar tartibsiz ravishda qalashib, biri ikkinchisiga xalaqit berib, chuvalashib ketardi, men mutafakkir esa, boshimni quyi egib, ko'zimni yerdan olmay hech baloga tushunmaganimcha, ana shu son-sanoqsiz fikrlardan kerakli va keraksizimi ajratolmay karaxt o'tirardim. Ma'lum bo'ldiki, men, mutafakkir shu mahalgacha hatto fikrlash texnikasini ham bilmas ekanman, xuddi soatni tuzata olmaganim singari miyamni ham o'zimga bo'ysundirolmas ekanman. Umrin bino bo'lib birinchi marta jiddiy tarzda fikr yurgizmoqda edim, bu narsa menga juda qiziq

tuyildi, o'zimcha: «Men jinni bo'laman, shekilli!» deb o'yladim. Kimning miyasi hamisha ishlamay. faqat qiyin paytdagina ishlasa, unday odamning ko'nglidan ko'pincha jinni bo'lib qolish fikri o'tadi.

Ana shu o'ylar bilan bir kechayu bir kunduz qiynaldim. Ikkinchi kecha ham xuddi shu tarzda o'tdi, men fikr yuritish naqadar kam ko'mak berganini sezib, ko'zim moshday ochildi. Shu bilan o'zimning kimligimni yaxshi bilib oldim. Fikrlarim bir chaqaga qimmatligini, Kisochka bilan uchrashuvimizga qadar hali fikr yurita olmaganimni, jiddiy fikr yuritish nimaligi haqida hatto tushunchaga ham ega emasligimni angladim; shuncha azob-uqubat chekkanimdan keyingina menda e'tiqod ham, amiq bir ma'naviy maslak ham, yurak ham, idrok ham yo'qligini bildim. Mendagi barcha aqliy va ma'naviy boylik faqat mahsus bilimdan, bo'lak-bo'lak va keraksiz xotiralardan, birovlarining fikrlaridan iborat ekan, ruhiy holatim esa, xuddi yakun bilgan alifbe darajasida past va oddiy tarzda ekan... Yolg'on gapirmasligim, o'g'irlik qilmasligim, birovni o'ldirmasligim, hammaga ravshan bo'lgan nojo'ya ishlarga berilmasligimga sabab menda biron maslak yoxud e'tiqodning borligidan emas, — ular menda yo'q edi, — asosan, o'zim barchasi bo'lmagan narsa deb hisoblagan, oyoq-qo'limni mahkam bog'lab, sezmaganim holda mening hayotimni boshqarib kelgan, qon va tanamga sinpib ketgan enagamning ertaklari bilan kirgan hammadop xulosalar ekan...

Men o'zimning mutafakkir ham emas, faylasuf ham emas, yulduzni benarvon uradigan epchil odam ekanimni tushundim. Xudo menga sog'lom, baquvvat iste'dod kurtagi bo'lgan rus miyasini

bergan edi. Mana endi, yigirma olti yoshli, hali oq-qorani tanimagan, turg'unlikdan begona, biron boylik orttirmagan, ammo, injenerlik kasbining yengil-elpi changi bilan qoplangan miyani tasavvur eting; u yosh bo'lganidan jismoniy ishga o'ch, uni qidiradi. Lekin, u, hayotning bema'niligi va narigi dunyo to'g'risidagi juda chiroyli, jarangdor fikrlarga tasodifan duch keladi-da, ana shu fikrlarni xasislik bilan o'ziga emib olib, butun borligini unga bag'ishlaydi, shu bilan xuddi mushuk bilan sichqon o'rtasidagi singari ular o'rtasida turli o'yin boshlanadi. Miya hali na eruditsiyaga, na biron ma'lum tartibga ega, lekin bu hech narsa emas. U, o'ziga berilgan tabiiy kuch vositasi bilan mustaqil o'sib-ungandek ulkan fikrlarni ham uddalab ketadi, oradan bir oy o'tmay ko'ribsizki, ana shu miya egasi birgina kartoshkadan yuz xil mazzali ovqat tayyorlab, o'zini mutafakkir deb xayol qiladi...

Bizning avlodimiz ana shu epchillikni, jiddiy fikr o'yinini fanga, adabiyotga, siyosatga, ish qilib, qaysi ko'chaga kirishga erinmagan bo'lsa, hammasiga olib kirdi, bu bilan uning beparvoligi, ma'yusligi, bir yoqlamaligi ham kirib keldi, yana menimcha, xalqda shu mahalgacha ko'rilmagan, jiddiy fikrga g'alati munosabatni yuzaga keltirdi.

Ana shu baxtsizlik orqasida men o'zinming nuqsonlarimni va nodon ekanligimni bilib oldim, bulardan xulosa chiqardim. To'g'ri fikr yuritishim, o'z bilishimcha, ishni alifbedan boshlaganimdan, ya'ni vijdonim buyrug'i bilan N shahariga qaytib borishga majbur bo'lganimda boshlandi. Men falsafa sotib, donishmandlik qilib o'tirmay, Kisochka oldida

xuddi yosh boladek yalinib-yolvorib, tovba qildi va birga o'tirib yig'ladim...

Ananev qisqa qilib Kisochka bilan bo'lgan so'nggi uchrashuvini so'zlab berdi-da, keyin jim qoldi. Injener hikoyasini tamom qilgach:

— Shunday... — dedi talaba gerdayib, — olamda shunaqa gaplar ham bor!

Uning yuzi hanuz beparvoligini aks etdirar. Ananevning hikoyasi unga zig'ircha ta'sir qilmaganga o'xshardi. Bir pasgina dam olgan injener, o'zining oldingi fikrlarini sharhlay boshlaganda talaba asabiylik bilan yuzini burishtirib, o'rnidan turdi va stol yonidan o'z krovati tomon ketdi. Joyini hozirlab, yechina boshladi.

— Hozir o'zingizcha biron kishini biron narsaga ishontirgan odamga o'xshaysiz! — dedi jahl bilan u.

— Biron kishini deb takror so'radi injener, — azizim, axir men bunga da'vogar emasman-ku? Sizga xudo yor bo'lsin! Sizni ishontirib bo'ladimi! Bunday ishonchga faqat o'z shaxsiy tajribangiz orqali hamda azob-uqubat chekib erishasiz!..

— Gapingizdagi mantiq ham juda g'alati — dedi talaba tungi ich ko'ylagini kiyarkan, ming'irlab. — O'zingiz sevmaydigan ana shu fikrlar yoshlarga halokat-ku, sizga o'xshagan keksalar uchun, gapingizga qaraganda, normal hol emish! Go'yo gap sochning oqi ustida borayotgandek... Keksalarga bu imtiyoz qayoqdan berildi? Nimaga asoslangan u? Ana shu fikrlar zahar bo'lsa — hamma uchun baravar bo'lishi lozim edi.

— E, yo'q, azizim, unday demang! — dedi injener mug'ombirlik bilan ko'z qisib. — Aslo unday demang! Birinchidan, keksalar epchil

emaslar. Ulardagi umidsizlik tashqaridan, tasodifan kelgan narsa bo'lmay, miyalarida tug'iladi, ular har qanaqa Gegel va Kantlarni yodlab, xo'p azob-uqubat chekib, bir talay xato qilib, bir so'z bilan aytganda, butun zinani pastdan yuqori bosqichiga bosib o'tib, bunga erishadilar. Ularning umidsizligi shaxsiy tajriba hamda puxta falsafiy zamimga ega bo'ladi. Ikkinchidan, kekxa mutafakkirlarda umidsizlik siz bilan mendagi singari oldi-qochdi emas, olamshumul azob, jafxo chekish degan gap. Bu xristianlikka borib taqaladi, chunki u kishiga muhabbat va kishi haqidagi fikrlardan kelib chiqadi, shu tufayli epchil odamlardagi umidsizlikka hech bir o'xshamaydi. Siz, hayot o'z sir-asrorini shaxsan sizdan yashirgani uchun unga nafrat bilan qaraysiz, faqat o'z o'limingizdan ko'rqaqiz, xolos, chin mutafakkir esa, haqiqat barcha odamlardan yashirin bo'lgani uchun qayg'iradi va odamlar deb g'am chekadi. Jumladan: shu yerdan sal narida Ivan Aleksandrovich degan davlat o'rmonining qorovuli yashaydi. Ajoyib chol o'zi. Bir vaqtlari allaqacda o'qituvchi bo'lgan, allamimalar yozgan, kim bo'lib o'tganini kim biladi, xullas, o'zi xo'p donishmand, falsafani suv qilib ichib yuborgan odam. Ko'p o'qigan, hozir ham qo'lidan kitob tushmaydi. Shu yaqinda nima ham bo'lib biz u bilan Gruzovskaya uchastkasida uchrashib qoldik... o'sha kunlarda u yerda shpala va temir yo'l izi yotqizilgan edi. Ish aytarli murakkab emas, lekin bu kasbdan xabari yo'q Ivan Aleksandrovichga iz yotqizish allaqanday fokusga o'xshab ko'rmardi. Tajribakor master shpalani o'rnatib, unga temir yo'l izi yotqizishi uchun atigi bir minut kerak. Ishchilarning kayflari

ehox' bo'lganidan ular chindan ham jadal va mohirlik bilan ishlamoqda edilar. Ayniqsa bir ablah bolg'a bilan mixning qalpoqchasiga shunday mo'ljallab urardiki, bir zarbning o'zidayoq shpalaga mixni joylab qo'yardi, bolg'a dastasining o'zi sal kam bir sarjin, mix esa bir fut uzunlikda edi. Ivan Aleksandrovich ishchilarga uzoq tikilib turdi, ko'ngli yumshab ketib, ko'zlariga yosh to'ldi, u men tomon qarab: «Eh, attang, mana shu ajoyib kishilarning hammasi bekorga o'lib ketadi!..» dedi. Bunday umidsizlikning ma'nosiga men tushunaman...

— Bu gaplaringiz hech nimani isbotlab, yechib bermaydi, — dedi talaba choyshab yopinarkan. — Bu narsa xovonchada suv yanchish bilan baravar gap! Hech kim hech narsani bilmaydi, keyin so'z bilan biron narsani isbotlab berish ham mumkin emas.

U, choyshab tagidan boshini ko'tardi va asabiylilik bilan yuzini burishtirib, shoshilib:

— Kishilarning so'ziga va mantiqqa ishonmoq, unga muhim narsa deb qaramoq uchun odam haddan tashqari sodda va go'l bo'lmog'i kerak, — dedi. — Og'izda istagan narsani isbotlab berish va uni rad etish mumkin. Odamlar tez orada til texnikasini mislsiz darajada takomillashtirish bilan ikki karra ikkini yetti deb matematik jihatdan to'g'ri isbotlab berishga erishadilar. Men bironing gapini eshitishni, kitob o'qishni yaxshi ko'raman, lekin ishonch masalasiga kelganda, meni kechiring, ishonmoqqa ojizman, buni istamayman ham. Men faqat xudoga ishonaman, sizga bo'lsa, osmon uzilib yerga tushguncha gapirsangiz ham, Kisochkalardan yana besh yuztasini shaydo qilsangiz ham ishonmayman,

faqat aqldan ozgamimdagima ishonishim mumkin...
Yaxshi yotibturinglar!

Talaba boshiga choyshabini yopib oldi, o'zining eshitishi ham, gapirishni ham istamayotganligini bildirish uchun devor tomonga o'girildi. Shu bilan bahs tamom bo'ldi.

Yotishdan oldin injener bilan men barakdan tashqariga chiqdik va yana chiroqlarni tomosha qildik.

— Sizni behuda safsatalarimiz bilan tozzayam zeriktirib yubordik, shekilli! — dedi Ananev osmonga qarab, homiza tortarkan. — Shunday, otaxonim, nima qil deysiz! Bemaza zerkishdan yuraging siqilib vino ichasan-u, falsafa sotib, ko'ngil ovutasan... Voy xudoyim, anavi ko'tarmani ko'ring! — dedi u zavqlanib, biz temir yo'l ko'tarmasi yoniga kelganda. — Qarang, ko'tarma emas, naq Ararat tog'ining o'zginasi-ya!

Biroz jim qolgach, yana davom etdi:

— Mana shu chiroqlar baronga amalekityanlarni eslatibdi, menga ular kishilarning fikrlariga o'xshaydi... Bilasizmi, har bir odamning fikri ana shu taqlid tarqoq va tartibsiz bo'ladi. U, hech nimani yechib bermaydi, qorong'ilikni yoritmaydi, noma'lum holicha allaqanaqa maqsad tomon bir yoqlama intiladi, keyin, allaqaerda — uzoq keksalikka borib g'oyib bo'ladi... Darvoqi, falsafa sotishni bas qilaylik! Allamahol bo'lib qoldi...

Biz barakka qaytib kirdik. Injener meni o'zining krovatiga yotishimni iltimos qildi.

— Hech so'zsiz xo'p deng! — deb qistardi ikki qo'lini ko'ksiga qo'yganicha. — O'tinaman! Mening to'g'rimda aslo tashvish qilmasinlar. To'g'ri kelgan

joyda yotib keta beraman, eng muhimi, men hali-
veri yotmoqchi emasman... Iltimosimni qaytarmang!

Men rozi bo'lib, yechina boshladim. Injener ish
joyiga o'tirib, yana chertyojlarni ko'zdan kechirishga
kirishdi.

— Otaxonim, bizga o'xshagan bechoralarga uyqu
qayoqda deysiz, — dedi shivirlab. Men allaqachon
o'ringa yotib, ko'zimni yumib olgandim. — Kimning
xotini va ikki bolasi bo'lsa uning uxlashga vaqti
bo'lmaydi. Ularni boqishi, kiyintirishi va kelajagini
g'amlab berishi kerak. Ikkita bolam bor: biri
o'g'il, biri qiz... O'g'ilcham tushkurning basharasi
xo'p kelishgan-da... o'zi hali olti yoshga to'lgani
yo'g'u iste'dodi, men sizga aytsam, juda o'tkir,
zehni baland... Qaerdadir suratlari ham bor... Eh
bolajonlarim, jonajonlarim!

U qog'ozlarni titib, suratni topib oldi-da, uni
ko'ra boshladi. Men uxlab qoldim.

Azorkaning vovullashidan va allaqanday
shang'illagan ozozdan uyg'omb ketdim. Ichki
ko'ylakli, sochlari to'zigan yalang oyoq fon Shtenberg
ostonada turib, birov bilan qattiq gaplashardi.
Tong otib kelmoqda adi... Ko'kish tong qorong'usi
barakning eshigi, tirqishlar va derazalardan o'zini
ichkari urib, men yotgan krovatni, Ananevni,
qog'ozlar to'la stol ustini xiragma yoritmoqda edi.
Polga to'shalgan burka ustida, go'shtdor, seryung
ko'kraklarini kerib, charm yostiqqa bosh qo'yib
injener uxlab yotardi. Ananev shunday qattiq
xurрак otardiki, har kecha u bilan birga yotuvchi
talabaga chin qalbidan achindim.

— Nima sababdan biz uni qabul qilarkanmiz?
— deb qichqirardi fon Shtenberg. — Buning bizga
daxli yo'q!

Injener Chalisov oldiga olib bor! Qozonlarni kim berib yubordi?

— Nikitin... — deb javob qildi yo'g'on ovoz.

— Gap shu, uni to'g'ri Chalisovga olib borib ber... Bizga buning tegishli joyi yo'q. Nega baqrayib turibsən? Jo'nal!

— Janobi oliylari, biz u kishining oldilariga borib keldik! — dedi yo'g'on ovoz yana. — Kecha kun bo'yi yurib butun temir yo'l bo'ylab u kishini izladik, baraklariga kirsak, u kishini Dimkovskiy uchastkasiga ketganlar, deb aytishdi. Baraka toping, bir yaxshilik qiling, olib qoling uni! Qachongacha olib yuramiz? Olib yuraverishimizning oxiri ko'rinmaydi...

— Nima gap o'zi? — dedi xirillab Ananev uyqudan uyg'onib, boshini ko'tarib qararkan.

— Nikitindan qozon olib kelishipti, — dedi talaba, — bizga qabul qilib olinglar deb tiqilinch qilishyapti. Olib bizga nima zarur kelipti?

— Haydab yuboring!

— Ilohi baraka toping, janobi oliylari, shu narsani bir yog'liq qilib bering! Otlarimizga ikki kundan beri yem berganimiz yo'q, hoynohoy xo'jayinimizning jahli chiqib o'tirgandir. Qaytarib olib ketib bo'ladimi? Qozonlarni temir yo'l buyurgan ekan. demak, qabul qilib olishi kerak...

— Gapga tushunsang-chi axir, qovoqbosh, bu bizning ishimiz emas! Chalisovning oldiga bor, deb aytyapman-kul!

— Tag'in nima gap? Kim o'zi? — Yana xirillab so'radi Ananev. — Ey basharasi qursin! — deb koyinganicha o'rnidan turib, eshik yoniga keldi. — Nima gap?

Men ham kiyinib, oradan ikki minut o'tmay, barakdan tashqariga chiqdim. Ananev bilan talaba, ularning har ikkisi ham ichki ko'ylakda, yalangoyoq, oldilarida turgan boshyalang, qamchin ushlagan va ularning nima deyayotganlariga tushunmayotgan mujikka allanimani qizishib, sabrsizlik bilan tushuntirardilar. Har ikkisining ham yuzida kundalik oddiy tashvish aks etardi.

— Qozonni nima qilaman? — deb baqirib berdi Ananev. — Boshimga uramanmi uni? Agar Chalisovni topmagan bo'lsang, yordamchisini qidirib top, bor yo'lingdan qolma, bizning ham boshlmizni og'ritib yurma!

Talabaning ko'zi menga tushishi bilan kechasi bo'lib o'tgan gaplarni esladi, shekilli, uyquli yuzidan tashvish belgisi yo'qolib, o'rmini aqliy tanballik ifodasi egalladi. U, mujikka qo'l siltab, mimanidir o'ylaganicha bir chetga chiqib ketdi.

Ertalabdan havoning avzoyi buzuq edi. Tunda chiroqlar ko'ringan temir yo'l bo'ylab, uyqudan turgan ishchilar ivirsib yurardi. Olag'ovur va zambil g'altaklarning g'ijirlashi eshitildi. Ish kuni boshlandi. Arqon abzalli ot qum solingan aravani bo'ynini cho'zib, kuchining boricha intilib, ko'tarma ustiga tortib chiqardi...

Men xayrlashdim... Tunda juda ko'p sohada gap bo'ldi, ammo, men bironta hal qilingan masalani ko'nglimga tugolmadim, tunda bo'lgan gaplardan xuddi suzgichdan o'tkazganday ertalab mening xotiramda faqat chiroqlar bilan Kisochka obrazigina qoldi, xolos. Men otga minib, so'nggi bor talabaga, Ananevga, jazavasi qo'zib qoladigan, ko'zlari mastdek xira boquvchi Azorkaga, ertalabki tumanda ko'zga chalinayotgan ishchilarga, temir

yo'l ko'tarmasiga, bo'ynini cho'zib tepaga chiqib ketayotgan otga qarab, o'zimcha:

«Bu dunyoda hech narsaga tushunib bo'lmaydi!» deb o'yladim.

Otinga qamchi bosib, temir yo'l yoqalab ketdim, sal yurib, tumshaygan bepoyon tekislikka, bulut bilan qoplangan sovuq osmonga qarab, tundagi gaplar xotiramdan o'tdi. O'ylab ketdim, quyosh tig'idan qovjiragan tekislik, cheksiz osmon, uzoqdan qorayib ko'ringan o'rmon, tumanli ufq go'yo menga: «Ha, rostdan ham bu dunyoda hech narsaga tushunib bo'lmaydi!» deb aytayotgandek edi. .

Quyosh chiqa boshladi...

***Rus tilidan
S. Abduqahhorov
tarjimasi***

MUNDARIJA

Yovuz niyatli kishi. <i>Abdulla Qahhor tarjimasi</i> ...	
Chiqdi. <i>Abdulla Qahhor tarjimasi</i>	
Vanka. <i>O.Rahimiy tarjimasi</i>	
Uyqu istagi. <i>Zumrad tarjimasi</i>	
Kashtanka. <i>H.Ahrorova tarjimasi</i>	
Orden. <i>Zumrad tarjimasi</i>	
Semiz va oriq. <i>Abdulla Qahhor tarjimasi</i>	
Spravka. <i>S.Ibrohimov tarjimasi</i>	
Chinovnikning o'limi. <i>Abdulla Qahhor tarjimasi</i>	
Yomon bola. <i>A.Hayitqulova tarjimasi</i>	
Albion qizi. <i>Murod Muhammad Do'st tarjimasi</i>	
San'at asari. <i>Odil Rahimiy tarjimasi</i>	
Rohibning qayg'usi. <i>Ilhom Hafizov tarjimasi</i>	
Go'zallar. <i>A.Aliyev tarjimasi</i>	
Ko'ngilsizlik. <i>A.Aliyev tarjimasi</i>	
Chiroqlar. <i>S.Abduqahhorov tarjimasi</i>	

Adabiy-badiiy nashr

ANTON CHEXOV

YOMON BOLA

Hikoyalar

Muharrir
S. BADALBOYEVA

Tex. muharrir
A. G'ULOMOV

Sahifalovchi
N. MAMADALIYEV

Dizayner
M. QOSIMOV

Litsenziya raqami: AI № 182. 08.12.2010 da berilgan.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 6,0. Shartli bosma tobog'i 10,08.

Garnitura «AcademUz». Ofset qog'ozi.

Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yoshlar nigohi» xususiy korxonasida tayyorlandi.

Nashriyot manzili:

Toshkent, O'qchi ko'chasi, 109-uy.

«ADAD PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 100097, Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.